

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Rahmanova V.S.

Ona tili o'qitish maxsus metodikasi

(Yordamchi mehnat ta'limi muktabida ona tili o'qitish metodikasi) fanidan darslik
Ixtisoslik 141800 Defektologiya bakalavr bosqichi uchun

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2007

Taqrizchilar: Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Nurkeldiyeva D.A.
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Shomahmudova R.Sh.

Rahmanova V.S.

Ona tili o'qitish maxsus metodikasi. Oliy oquv yurtlari uchun darsli / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.- T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2007.- 139 b.

Mazkur darslikda yordamchi mакtabda ona tili o'qitish metodikasining umumiylasalari hamda savod o'rgatish, o'qishga o'rgatish, grammatika va imlo, nutq o'stirish metodikalari yordamchi mehnat ta'limi mакtabining maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda bayon etilgan. Qo'llanmada ona tili metodikasining barcha bo'limlarida ishlar yordamchi mакtabda ta'lif oluvchi aqli zaif, oligofren o'quvchilarning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksion yo'nalishda tashkil etilishi yoritilgan.

Kitob V142300 defektologiya yo'nalishi uchun 2006 yilda chop etilgan «Ona tili o'qitish maxsus metodikasi» namunaviy dasturi asosida tuzilgan bo'lib, talabalar uchun mo'ljallangan. Undan umumta'lif mакtablarda integratsiyalashgan ta'lifni amalga oshiruvchi resurs o'qituvchi-oligofrenopedagog hamda maxsus muassasa o'qituvchilari foydalana olishlari mumkin.

Mustaqillikka erishgan hozirgi davming muhim talablaridan biri, bozor munosabatlari shakllanayotgan mazkur jarayonga mos keladigan, yangicha fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashdan iborat. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bulgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz zarur».

Oila, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatni chuqur anglaydigan yetuk shaxsni tarbiyalash hamda axloqiy pok, jismongan baquvvat Vatan tuyg'usi bilan sug'oriladigan fidoiy inson, izlanuvchan, tashabbuskor avlodni o'qitish va tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limining bosh maqsadlaridan biridir. Biroq xalqimiz orasida alohida ehtiyojli odamlar ham mavjud. Ular hamma qatori dastur talablariga amal qilgan holda ta'lim jarayonida qatnasha olmaydilar. «Inson huquqlari dekloratsiyasi», «Bolalar konvensiyasi», «Salomanka dekloratsiyasi», O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim hamma uchun» milliy dasturi kabi va boshqa hujjatlar ularning huquqlarini ximoyalab, jamiyatda hamma qatori yashashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimov 2004 yilni «Mehr va muruvvvat yili», 2005 yilni «Sixat salomatlik», 2006 yilni «Shifokorlar va homiyalar» yili deb e'lon qildilar. Bu yillarning alohida ehtiyojli odamlar ta'limiga tegishli jixatlari ko'p. «Mehr va muruvvvat», «Sog'lom avlod» kabi va boshqa dasturlarda aholining ijtimoiy muxofazasini kuchaytirishga, sog'lomlaqtirishga, kasalliklarni oldini olishga, jamiyatimizda ahillik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, millatlararo do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga, xususan kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, boquvchisidan judo bo'lgan bolalar, alohida ehtiyojli odamlarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvatlashga katta e'tibor berildi. Xalqimizning bunday qadimiy an'ana va qadriyatlarini hayotga chuqurroq singdirish zarurligi alohida ta'kidlab o'tildi. Dasturlar yuzasidan defektologiya soxasida ham talaygina ishlar amalga oshirildi. Bu borada dastav val jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan alohida ehtiyojli odamlarga, maxsus yordamga muxtoj bolalarga berilajak e'tibor katta ahamiyatga ega.

Birlashgan millatlar tashkilotining «Ta'lim hamma uchun nomidagi Salomanka dekloratsiyasi»ga javoban O'zbekiston Respublikasida 2005 yilda « Ta'lim hamma uchun» milliy dasturi tuzilib, ushbu dasturni joriy qilish bosqichlari belgilab olindi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar , alohida ehtiyojli odamlar orasida oligofren bolalar son jixatdan nisbatan qo'proq uchrab turadi. Hozirgi kunda ular maxsus yordamchi maktabgacha tarbiya mussasalarida va yordamchi mehnat ta'limi maktablari, maktab-internatlari yoki umumta'lim muassasalarida me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida integratsiyalashgan ta'limga jalb etilib hamma qatori oddiy sinfda yoki yordamchi sinflarda ta'lim olmoqdalar. Ushbu muassasalarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar ijtimoiy adaptatsiyasini amalga oshirish, ya'ni aqlan zaif bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o'z o'mini topib, hamma qatori mehnat qilib, yashab ketishiga yordam berish.

Kadrlarni tayyorlash milliy dasturiga binoan yaratilgan uzlusiz ta'lim tizimida aqli zaif debil bolalar ham endilikda 9 yil majburiy va yana 3 yil majburiy-ehtiyoriy ta'limga jalb etilmoqdalar. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda hozirgi kunda yordamchi maktab bitiruvchilar uchun maxsus mehnat maktablari tashkil etilgan. Ayrim kasb-hunar kollejlarida esa, ular uchun maxsus guruhlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Mazkur kitobning maqsadi oliy o'quv yurtida bakalavriatning defektologiya yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalarni «Yordamchi mehnat t'limi maktabida ona tili uqitish metodikasi» fanini o'rganib, ona tilidan aqli zaif o'quvchilarga mustaqil hayotda zarur bo'lgan hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarни berish, shakllantirish yo'llari, usullari haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish. O'quv qo'llanmada maxsus metodikaning barcha bo'limlari yoritilgan bo'lib, har bir mavzuda amaliy xarakterdagи topshiriqlar, adabiyotlar ro'yxati berilgan. Ushbu topshiriqlar talabalardan dastur va darsliklarni o'qib, o'rganib, tahlil etishga, kuzatilgan darslarni tahlil etishga, adabiyotlar ustida mustaqil ishlashga, o'z bilimini sinab ko'rishga, nazorat etishga undaydi. O'quv qo'llanmada Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy o'zbek, horijiy o'quv adabiyotlar jalb qilinib, ularning muayyan mazmuni o'zbek tilida ona tilini o'qitish metodikasiga doir o'quv adabiyotlari bilan q-iyosiy tahlil etilib yozilgan.

Muallif ushbu kitobni tayyorlashda o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamagan taqrizchilar p.f.n. dotsent Nurkeldiyeva D.A., p.f.n., dotsent Shomahmudova R.SH.larga minnatdorchiligini bildiradi.

1 bob. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili mahsus

metodikasi fanining umumiy masalalari

1.1.«Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili mahsus metodikasi fan sifatida

Reja

1. Mahsus «Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi» fani haqida tushuncha
2. Mahsus metodika fanining predmeti, vazifasi, mazmuni.
3. Mahsus metodikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Mahsus metodikaning bo'limlari.

“O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'nnaviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiqy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni qurmokda” (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.,T.1997).

Uzluksiz talim kadrlar tayyorlash tizimining asosi. Bu tizim O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini taminlovchi, shahs, jamiyat va Davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-tehnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor sohadir. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lif standartlari, dasturlari asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lif turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lif; umumiy o'rta ta'lif; o'rta mahsus kasb-hunar ta'lifi; oliy ta'lif; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lif.

Uzliksiz ta'lif tizimida mahsus umumta'lif yordamchi mehnat ta'lifi mакtablari ham faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Ushbu turdag'i mакtablarda aqli zaif oligofren bolalar ta'lif olmoqdalar.

Ona tili o'qitish mahsus metodikasi fani - bu yordamchi mehnat ta'lifi mакtabida aqli zaif o'quvchilarga ona tili o'rgatish yo'llari, usullarining tizimidir. Ushbu mahsus metodika oligofreniyaning debillik darajasidagi bolalaming jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlарini hamda yordamchi mehnat ta'lifi mакtabining maqsadi va vazifalarini hisobga olgan holda yaratilgan.

Yordamchi mehnat ta'lifi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi pedagogik fanlar turkumiga kirib, oligofrenopedagogikaning metodlari, tamoillari, tashkiliy formalariga asoslangan holda rivojlanadi. Shu bilan birga, yordamchi mehnat ta'lifi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi o'z o'rganish obyektiga ega bo'lib, mustaqil fan sifatida o'z predmeti,

maqsadi, vazifalari va ayrim hususiyatlari bilan boshqa ona tili o'qitish metodikalaridan ajralib turadi.

Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasining predmeti – yordamchi mehnat ta'limi mакtabida aqli zaif o'quvchilarga savod o'rgatish, o'qish, yozishga o'rgatish, nutqini o'stirishda qo'llanadigan usul va yo'llar, tamoillar, tashkiliy formalar shuningdek o'qitiladigan darslarning vazifasi, mazmunidir.

Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi fanining maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni mahsus metodikaga oid bilimlar bilan qurollantirish, ta'lim usullarini takomillashtirish, ularning samadarligini oshirish, hozirgi zamon talablariga muvofiq yangi usul, uslublar ishlab chiqarishdir.

Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi fanining vazifalari:

-yordamchi mehnat ta'limi mакtabining maqsad va vazifalari, bu turdag'i ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining o'ziga hos hususiyatlарини hisobga olgan holda savod o'rgatish, o'qish, yozuv, ona tili, nutq o'stirish darslarining mundarijasi, mazmuni, yo'nalishini aniqlash;

-ushbu darslarda o'r ganiladigan materialni sinflar bo'yicha taqsimotini belgilash;

-o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish jarayonida debil bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya etish yo'l va usullarini belgilash;

-ta'lim-tarbiya jarayonini korreksion yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlash.

Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Yordamchi mакtabda ona tili o'qitish metodikasi fani ham, boshqa fanlar singari, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni hal etishda bir qator fanlarga tayanadi, shular asosida rivojlanadi. Mahsus metodika pedagogikaning bir qismi bo'lib hisoblanadi va birinchi navbatda pedagogik va psihologik fanlar negizida rivojlanadi. Umumiy pedagogika va psihologiya, oligofrenopedagogika va oligofrenopsihologiya fanlari mahsus metodikaning nazariy asosi, poydevoridir. Oligofrenopedagogika fani oligofren bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan bo'lib, aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berish shakllari, mohiyati, maqsadi va mazmunini, uslub hamda

vositalari, tamoillarini belgilab beradi. Yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'qituvchisi pedagogika hamda oligofrenopedagogika fanlari belgilab bergen usul, uslub, ta'lim-tarbiya jarayoni shakllari, tamoillari asosida o'z faoliyatini tashkil etadi, shularga asoslanadi .

Yordamchi maktabda ona tili o'qitish metodikasi fani umumiy psihologiya, oligofrenopsihologiya, logopsihologiya, yosh bolalar psihologiyasi, psiholingvistika kabi fanlar bilan uzviy bog'liq. Ushbu fanlardagi ma'lumotlardan foydalanib, o'qituvchi bolalarning yosh hamda kasalliklaridan kelib chiqqan hususiyatlarini hisobga olib, ularga individual yondoshish imkoniyatiga ega bo'ladi. Oligofrenopsihologiya oligofren o'quvchilar tomonidan bilimlarning o'zlashtirilishi hamda ko'nikma va malaka larning shakllanish hususiyatlarini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayonida aqli zaif bolalarning psihofiziologik taraqqiyoti qonunlarini o'rganadi. Ushbu fan o'quv materiallarini tug'ri tanlash, ona tilidan o'rganiladigan bilimlar hajmini, sinflar bo'yicha o'rganiladigan materiallar taqsimotini ma'lum izchillikda belgilashga imkon yaratadi. Psihologik fanlar ta'lim-tarbiya jarayonini korreksion yo'nalishda tashkil etishga ko'maklashadi, eng samarali usul va tashkiliy shakllarni belgilashga imkon yaratadi.

Psiholingvistika fanining predmeti-nutqning kommunikativ, aloqa bog'lash funksiyasidir. Bu fan nutq haqida, nutqni hosil bo'lish mehanizmlari, rivojlanish hususiyatlari, nutqni talab qiluvchi va keltirib chiqaruvchi sabablar haqida, fikr bayon qilish turlarini belgilovchi omillar haqida, nutqni qabul qilish apparati, ommaviy va individual nutqiy aloqa haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa bog'lanishli nutqni o'stirish metodikasi uchun juda muhimdir.

Logopediya- pedagogik fanlardan biri bo'lib, nutq kamchiliklari va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni, shuningdek ularni oldini olish, bartaraf etish yo'l va usullarini o'rganadigan fan. Logopediya fani mahsus ta'lim-tarbiya vositalari va usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan shug'ullanadi. Yordamchi maktab o'quvchilarining ko'pchiligidagi turli nutqiy nuqsonlar kuzatiladi. Ona tili o'qituvchisi o'q faoliyatida logopedik usullardan keng foydalana olishi zarur.

Yordamchi maktabda ona tili o'qitish metodikasi tilshunoslik fani bilan chambarchas bog'liq. Yordamchi maktabda o'qitiladigan ona tili, nutq o'stirish, yozuv, o'qish darslarining ilmiy asosi va mazmunini dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. Tilshunoslik fani kishilarning eng

muhim aloq quroli bo'lgan nutqni ijtimoiy hodisa deb qayd etadi. Nutqning asosiy tarkibiy qismlari tovush, so'z, so'z birikmasi va gap bir butun tizimni tashkil etib, fikrni hilma-hil vositalar yordamida og'zaki yoki yozma shaklda ifodalash uchun hizmat qiladi. Ona tilini o'qitishning to'g'ri tashkil etilishi va samarali bo'lishi til to'g'risidagi lingvistik hulosalarning ilmiy va aniq bo'lishiga bog'liq.

Yordamchi mакtabda tilning tovush tomoni, grammatick qurilishi va lug'at boyligi haqida o'quvchilarga ularning yoshi hamda bilim saviyasiga mos holda elementar nazariy va amaliy ma'lumotlar beiladi. Ana shu bilimga bog'lab yozuv va stilistika normalari o'rgatiladi. Bularning hajmi va mundarijasi dastur va darsliklarni tuzishda hisobga olinadi. Masalan, fonetika bo'yicha o'quvchi tovush va harfni, unli va undoshni ongli rвishda o'zlashtirib, ularni ajrata oladigan bo'lishi zarur. Grammatika mashg'ulotlari shunday o'tkazilishi kerakki, o'quvchi so'zning morfologik tarkibini, so'z turkumlarining grammatick belgilarini, gap bo'laklarining o'zaro munosabatini ongli o'zlashtirib, ularni tahlil eta oladigan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, yordamchi mакtabda ona tili o'qitish metodikasi fani ona tili o'qitish nazariyasini yaratishda pedagogika, oligofrenopedagogika, psihologiya, oligofrenopsihologiya, logopediya, psiholingvistika, logopsihologiya, tilshunoslik kabi va boshqa fanlarga asoslanadi. Nazariyadan esa amaliy ko'rsatmalar paydo bo'ladi. Amaliy ko'rsatmalar esa o'quvchilarning ishiga bevosita yordam beradi. Shunga ko'ra metodik nazariya bilan pedagogik amaliyot bir birini to'ldiradi. Ilg'or mакtab yoki o'qituvchilar tajribasi mahsus metodikaning amaliy asosidir. Yordamchi mакtabda ona tili o'qitish metodikasi fani o'z nazariy asosi, qoidalarini ilg'or o'qituvchilar to'plagan, hayotda sinovdan utgan va ta'llim-tarbiya jarayonida ko'p foyda keltirgan tajribalar bilan to'ldirilib. boyitib boriladi.

Mahsus metodikaning bo'limlari.

Yordamchi mehnat ta'llimi maktabida ona tili o'qitish metodikasi o'z ichiga savod o'gatish va nutq o'stirish. o'qishga o'rgatish va nutq o'stirish, grammaticka, imlo va nutq o'stirish hamda bog'langan og'zaki va yozma nutqni o'stirish metodikasi bo'limlarini qamrab olgan. Savod o'rgatish va nutq o'stirish bo'limida aqli zaif o'quvchilarga savod o'rgatish yo'llari va usullari, davrlari yoritilgan. Metodikaning ushbu bo'limida yordamchi mакtabda o'quvchilarning daslabki o'qish va yozish ko'nikmalarini birinchi sinfda yil mobaynida alifbegacha davr, alifbe davri va alibedan keyingi davrlar bo'yicha amalga oshirish

tavsiya etiladi. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ham savod o'rgatish ishlari analiz-sintez tovush usuli, ya'ani tahlil-tarkib usuli bilan amalga oshiriladi.

Mahsus metodikaning o'qishga o'rgatish va nutq o'stirish bo'limida yordamchi mакtabning ikkinchi sinfigacha sinfigacha o'qish darslarining ta'limi, tarbiyaviy, korreksion vazifasi, mazmuni, maqsadi yoritilgan bo'lib, ularni amalga oshirish yo'llari, usullari, tashkiliy shakllari ko'rsatilgan.

Grammatika, imlo va nutq o'stirish metodikasi bo'limida yordamchi mакtabning boshlang'ich sinflarida yozuv darslari, yuqori sinflarda ona tili darslarining maksadi va vazifalari, mazmuni va ularni o'tkazish yo'llari hamda usullari yoritilgan. Grammatika va imlo darslarida turli usullarning ishlatalishi ko'rsatilib, ular ichida grammatik tahlil usuliga katta e'tibor berilgan. Metodikaning ushbu bo'lmida aqli zaif o'quvchilarni ko'chirib, diktovka ostida kalligrafiya va orfografiya qoidalariga rioya qilgan holda hatosiz yozishga o'rgatish usullari keng yoritilgan.

Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida nutq o'stirish ishlari nafaqat ta'limi, balqi qorreksion ahamiyatga ham ega. Boshlang'ich sinflarda alohida predmet sifatida nutq o'stirish darslari o'tkaziladi. Mahsus metodikaning o'quvchilarning og'zaki va yozma bog'langan nuqini o'stirish bo'limida nutq o'stirish darslarining vazifasi, mazmuni, mundarijasi va ularni o'tkazish metodikasi keng yoritilgan.

Savol va topshiriqlar

- 1.Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
- 2.Mahsus metodika qaysi fanlar bilan bog'liq?
- 3.Yordanichi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi fani boshqa ona tili metodikalaridan nima bilan farq qiladi?
4. 1.Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasi fanining qaysi bo'limlari mavjud?

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

- 1.Karimov I.A. Sog'lom avlod tarbiyasi barchamizning muqaddas insoniy burchimiz Tafakkur.2000.-I-16-b.
- 2.O'zbekiston Respublikasida Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi.T., 1997
- 3.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risi"dagi Qonuni

4. Aytmetova S.SH.Oligofrenopedagogika T, 1994.
5. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi-T.,1984
- 6.AksyonovaA.K. Metodika obucheniya russkomu yazo'ku vo vspomogatelnoy shkole.-M.,Prosveshchyyeniye,2004
- 7.Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.-T.1985
- 8.V.V.Voronkova Obuchenije gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassah vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveshchyyeniye,1988
- 9.Obuchenije uchashihhsya 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole Pod redaksiyey Petrovoy V.G. Moskva, Prosveshchyyeniye, 1992.
- 10.Yordamchi mакtablar uchun ona tili, o'qish va nutq o'stirish dasturi. tuzuvchi V.Rahmanova, T.,,2003
11. Rahmanova V.S.Mahsus pedagogika T.2005
- 12.Rahmanova V.S.Ona tili o'qitish mahsus uslubiyati. T.,2003

1.2.Ona tili yordamchi maktabda o'quv predmeti sifatida

Reja

- 1.Tevalar-atrofnii o'rganish yo'li bilan yordamchi maktab o'quvchilari nutqini o'stirish;
- 2.Aqli zaif uquvchilarni savodga o'rgatish ;
- 3.Mehnat ta'limi maktabida o'qish darslarining vazifasi;
- 4.Grammatika, imlo va nutq o'stirish darslari.

Kadrlarni tayyorlash milliy dasturiga binoan yaratilgan uzuksiz ta'lim tizimidagi har qanday muassasada ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda yaratilgan o'quv rejasi. fanlar bo'yicha dasturlar, darsliklar va qo'llanmalarda o'z aksini topadi. Aqli zaif o'quvchilar uchun mo'ljallangan yordamchi mehnat ta'limi maktablarining o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining »Ta'lim to'g'risida»gi qonuni» »Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi 390-sonli qarori asosida yaratilgan. Yordamchi mehnat ta'limi maktabining «Ona tili, o'qish va nutq o'sstirish» dasturi ushbu rejaga mos. umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosida mahsus maktablarning o'ziga hos korreksion ta'lim hususiyatlari hisobga olingen holda ishlab chiqilgan. Aqli zaif bolalar uchun mo'ljallangan mahsus maktab 9 yil muddatda o'quvchilarga boshlang'ich ma'lumot, tayanch bosqichining ayrim fanlari bo'yicha

elementar bilimlar beradi va mahsus kasb-hunar maktablariga tayyorlaydi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabining o'quv rejasida eng ko'p soat ona tili, o'qish, nutq o'stirish darslariga ajratilgan bo'lib, ona tili darslari jadvalda boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish, o'qish, yozuv deb nomlanadi. Yuqori sinflarda esa ona tili, o'qish deb nomlanadi. Ushbu predmetlar 1-9 sinflarda o'tkaziladi.

Yordamchi maktabda ona tili, o'qish va nutq o'stirish darslarining vazifasi:

-aqli zaif uquvchilarini savodga o'rgatish;

-o'quvchilar ongiga mos keladigan matnni ongli, to'g'ri, tez, ifodali o'qishga o'rgatish;

-o'quvchilarni o'z fikrlarini, ko'rgan-kechirganlarini og'zaki va yozma shakldagi nutq orqali atrofdagilarga izchil va to'g'ri bayon etishga o'rgatish;

- o'quvchilaning bilim doiralarini kengaytirish. hayot haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, ularning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash.

Ta'limiy va tarbiyaviy ishlardan tashqari, yordamchi maktabda barcha darslarda korreksion ishlari keng tarzda amalga oshiriladi. Yordamchi maktab ona tili dasturining barcha bo'limlarda nutk ustirish ishlari ta'limiy, tarbiyaviy hamda kooreksion ish sifatida berilgan. chunki bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklari aosan nutk ustirish orqali bartaraf etiladi, shu ish asosida boshqa korreksion ishlari ham amalga oshiriladi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabining asosiy vazifasi debil bolalarning nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarini iloji boricha bartaraf etish. kamaytirish, korreksiyalash hamda ularni mustaqil hayot kechirishga tayyorlash, ya'ni ijtimoiy adaptatsiya, reabilitatsiyasini amalga oshirish.

Aqliy rivojlanishida nuqsonari bolgan oquvchilar talim oladigan yordamchi mexnat talimi maktabi "Ona tili, oqish va nutq ostirish" dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi :

1. Savod o'rgatish va nutq o'stirish . (1sinf)

2. O'qish va nutq o'stirsh . (2-9 sinflar)

3. Grammatika , imlo va nutq o'stirish . (2-9 sinflar)

4.Tevarak-atrofnı organizh yoli bilan ogzaki nutqni ostirish. (1-4 sinfar)

Nutq o'stirish ona tili ta'lirmiga aniq amaliy yo'nalish beradi va bolalarga ongli o'qish , o'qiganlarini ravon gapirish va yozishga o'rgatadi ; ona tili va oqishdan o'quvchilarning yosh hamda kfsalilik oqibatida sodir bolgan xususiyatlari va saviyasini hisobga olgan holda boshlang'ich bilim berishi, shu asosda nutqini boyitish, undagi nuqsonlarni tuzatish , boshqalar nutqini e'tibor bilan eshitma olish hamda kitob o'qishga qiziqish uyg'otishga yonaltirilishi zarur.

Ona tili ta'liri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko'zda tutadi:

- oquvchilarning bilish faoliyatidagi nuqsonlarini tuzatish, korreksiyalash;
 - volalarga tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish ;
 - mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish ;
 - o'quv mashg'ulotlariga , bilim manbai bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish
 - bolalarni tarbiyalash ;

Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgani hajmda bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilishga ko'maklashishi lozim .

Tevarak-atrofni organish yoli bilan og'zaki nutqni ostirish.

Aqli zaif bolalar o'zlarining me'yorda rivojlangan tengdoshlariga karaganda birmuncha kech tilga kiradilar, birinchi so'zni aytish muddati uch ba'zan esa besh yoshigacha kechikadi. Birinchi sinfga kelgan aqli zaif bolalaming 66%ida talaffuz nuksonlari uchraydi. Aksariyat bolalarda fonematik eshitish kobiliyati buzilgan, nutk a'zolari va ularning harakatidagi nuksonlar ko'plab uchraydi. Lugat boyligini egallashda jiddiy kiyinchiliklar kuzatiladi. Impressiv nutk ekspressiv nutk tarakkiyotidan ancha orkada koladi. Mavhum hususiyatidagi, umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalovchi ko'pgina so'zlarni tushunmaydilar, ko'chma ma'noda ko'llanilgan tushunchalarni anglashda kiynaladilar, ularni aynan idrok etadilar.

Akli zaif o'quvchilarning gap tuzishida ham kiyinchilik vujudga keladi. Tuzgan gaplari sodda, bo'lib, so'zlarining o'zaro moslashuvida ko'plab hatolar uchraydi. murakkab bog'lanishli gaplar juda kam ko'llaniladi.

Akli zaif bolalar og'zaki nutkidagi barcha nuksolar ularni o'kitish jarayonida kiyinchilik tug'diradi, ayniksa yozma nutkni o'zlashtirish , savod o'rganishi kiyin. Lekin ilg'or o'kituvchi -defektologlarning tajribalari shuni ko'rsatdiki, ta'limgan mahsus tashkil etilgan logoped bilan hamkorlikdagi ish jarayoni yordamida akli zaif o'kuvchilarining og'zaki nutqidagi kamchiliklarni tuzatish, nutq madaniyatini tarbiyalash , yozma nutkini o'stirish, umumiy shahs rivojlanishini yanada ham yahshirok yo'lga ko'yish mumkin.

Dasturdagi «Tevarak-atrofni o'rganish yo'li bilan og'zaki nutqni o'stirish» bo'limining asosiy vazifasi – aqli zaif uqo'chilarining nutqini o'stirish, ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarini bartaraf etish, tuzatish, korreksiyalash, kamaytirishdir.

Borliqni bevosita kuzatish asosida lug'at boyitiladi, tevarak-atrofdagi buyum, voqe'a-hodisalar haqidagi tasavvurlari kengayib, o'quvchilarining bilim doiralari asta-sekin o'sib boradi. Bola lug'atiga ma'lum so'zlar kiritiladi, ular ma'nosiga ko'ra ajratiladi. Buyum nomi, harakati, sifatini bildiradigan so'zlar faol nutqda to'g'ri ishlata olishga o'rgatiladi. Tabiat qo'ynida sayohat qilish mashq'ulotlarida o'quvchilar buyum, voqe'a-hodisalar bilan tabiiy sharoitda tanishadilar. Sayohat davomida yig'ilgan materiallardan kolleksiya va gerbriylarni yasab, keyinchalik savod o'rgtish, o'qish, ona tili, mehnat, rasm, matematika vka boshqa darslarda qo'llaydilar.

Tevarak-atrofni kuzatish orqali taqqoslash, kuatish, solishtirish, buyumning o'hshash va farqli tomonlarini aniqlash hamda sodda hulosalar chiqarishga o'rganadilar.

Amaliy ishlar bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shular aosida o'quvchilarida atrof-muhit haqidagi ilk tasavvurlar hosil bo'ladi, mustahkamlanadi. O'quvchilarining sezgi organlari, diqqati, hotirasni, kuzatuvchangligi o'sib boradi. Bu o'zgrishlar o'z navbatida debil bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantiradi, bilish faoliyatidagi nuqsonlarni korreksiyalaydi va mana shu yo'l bilan boshqa o'quv sanlarini o'zlashtirishga zamin hozirlaydi.

So'zlashuv nutqi - nutqiy faoliyatning murakkab turlaridan biridir.

Savol-javob, muloqot; voqe'a-hodisa yoki o'z hatti-harakatini, taassurotlarini ta'riflash yo'li bilan dialogik va monologik nutqlari o'stiriladi, bola muloqot qilishga o'rganadi. Bunda suhbat usuli keng ishlataladi. Suhbat darsda va darsdan tashqari vaqtarda mavsumiy

o'zgarishlar, kishilar hayoti va faoliyati, mehnatini kuzatishdan so'ng, kinofilm yoki multfilmlarni namoish etishdan so'ng tashkil etiladi. O'qituvchining namunaviy nutqi suhabatning tarkibiy qismini tashkil qiladi. O'qituvchi bolalarni faol nutqiy muloqatga kirishuviga imkoniyat yaratadi, hatolarini tuzatib boradi. Bunda bolalar diqqati suhabat mavzusiga jalb etiladi va o'zi ko'rgan-kechirganlarini nutq orqali izchillik bilan bayon ejtishga o'rgatib boriladi.

SAVOD O'RGATISH VA NUTQ O'STIRISH

Yordamchi maktabda savod o'rgatish ishlari birinchi sinfda yil mobaynida olib boriladi. Birinchi sinf dasturi ikki bo'limdan iborat : alifbegacha bo'lgan tayyorgarlik davri va alifbe davri.

Alifbegacha davr bir chorak mobaynida 24 soat hajmida o'tkaziladi. Bu davrning asosiy vazifalari-o'quvchilarni dastlabki o'qish va yozish ko'nkmalarini o'zlashtirishga tayyorlash. Tayyorlash ishlariga: bolada o'qishga qiziqish o'yg'otish, o'z kuchiga ishonch hosi qilish, har bir bolaning umumiy va nutqiy rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlarini aniqlash, og'zaki nutqini o'stirish, eshitish idrokini rivojlantirish, ko'rish idrokini o'stirish, mayda qo'l muskullarining harakatchangligini oshirish kabi va boshqa ishari kiradi. Alifbegacha davr tayyorlov yoki propedevtik davr deb ham yuritiladi. Ushbu davrning asosiy vazifasi bolalarni hat savod o'rgatishga tayyorlash. Bu davrda olib boriladigan ishlarning mazmuni yozma nutq mehanizmlaridan kelib chiqadi.

Yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanadi. Bolaning eshitish analizatori, ko'rish analizatori faoliyati, mayda qo'l muskullarining Harakatchanligi yahshi bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bolani o'quv faoliyatiga kiritish, o'qishga qiziqish o'yg'otish, bolalarni yosh Hamda individual hususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Alifbegacha davrda og'zaki nutqning funksional sistemasi o'rganiladi va takomillashtiriladi. Bolalar bilan sabzavot meva, kiyim, o'quv qurollari, transport kabi va boshqa mavzular bo'yicha suhbatlar yushtiriladi, analiz sintez malakalari rivojlantirib boriladi. Eshitish analizatorini rivojlantirish ishlari ikki yo'nalishda: nutqdan tashqari tovushlar asosida va nutq tovushlari-fonemalar asosida eshitish diqqati, hotirasni, fonematik o'quvi rivojlantiriladi.

Ko'rish analizatori faoliyatini rivojlantirish ishlari rang, shakl Hajmi, o'zoq-yaqinligi, katta-kichikligini ajratish, ko'rish diqqati, hotirasini

o'stirish, kuzatuvchanligini rivojlantirish, fazoviy idrokni o'stirishlardan iborat bo'lishi kerak. Bolaning umumiy motorikasi qanchalik yahshi bo'lsa, uning nutqiy motorikasi va mayda qo'l muskullarining Harakatchanligi shunchalik yahshi bo'ladi. Demak, alifbegacha davrda bolaning motorikasini yahshi yo'lga qo'yish, ayniqsa mayda qo'l muskullarining harakatchangligini o'stirish muhim ahamiyatga ega.

Birinchi sinf dasturining ikkinchi bo'limini alifbe davri tashkil etadi. Bu davrda o'quvchilar tovush-Harflarni tahlil-tarkib asosidagi usul bilan o'zlashtiradilar. Yordamchi mакtabda tovush -Harflarni, bo'g'in Hamda so'zlarni o'rgatish tartibi o'zbek tilidagi tovushlarning fonetik hususiyatlari, ya'ni Hosil bo'lishi o'rni, usuli, talaffuzi, bo'g'inga birikishi va boshqalar Hamda oligofren bolalarning rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlarini Hisobga oлган Holda belgilanadi.

Yordamchi mакtabda alifbe davrida ishlar to'rt bosqich bo'yicha amalga oshiriladi.

Yordamchi mакtab I sinf o'quvchilari tovushlarni eshitish yo'li bilan nutqdan ajrata oladigan, ularni aniq va to'g'ri talaffuz etadigan, boshqa tovushlardan farqlay oladigan bo'lishi kerak. Har bir Harf yordamchi mакtabda barcha bosqichlarda quyidagi tartibda o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir: 1. Gap tuzib, uning ichidan o'rganiladigan harf ishtiropidagi so'zni ajratib olish; 2. so'z ichidan tovushni ajratib olish va uning o'rnnini aniqlash; 3. tovushning artikulatsiyasi, ya'ni qanday talaffuz etilishi (Havo oqimi qanday chiqadi, lablar qay Holatda, til uchi qayerda turibdi, un psychalari tebranishi yoki tebranmasligi) aniqlanadi; 4. bir necha so'z. bo'g'in ichidan tovushni ajratib olish, o'rnnini aniqlash; 5. tovushning yozuvdagagi belgisi -Harf shakli bilan tanishitirish; 6. tovush va Harfni solishtirish; 7. Harfini avval yopiq, so'ngra ochiq bo'g'inlarda qo'shib, bir nafas chiqarishda o'qish.

Ongli bo'g'inlab o'qishga o'rgatish maqsadida rasmlar ustida ishlash. alifbe darsligidagi Har bir betni to'g'ri o'qish ishlari olib boriladi. Savod o'rgatish qiyinligini inobatga olib, ishni soddadan murakkabga qarab tashkil etish mulimdir. Yozuv darslarida dastlab to'g'ri tayoqchalar, ilmoq, oval va shular ishtiropidagi Hoshiyalarni yozishga odat qilib, so'ngra Harf elementlari, bosh va kichik Harflar bilan tanishitiriladi.

Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida savod o'rgatish darslarida kesma Harflar, bo'g'inlar, Harflar terish tahtasi, bo'g'in, so'z jadvallari, shartli belgililar doimiy ravishda ishlatalishi shart.

O'qishga o'rgatish va nutq o'stirish.

Yordamchi maktabda o'qish darslarida bolalarni to'g'ri, ongli, tez, ifodali o'qishga o'rgatish, ovoz bilan va ovozsiz o'qish, o'qilgan matn mazmunini o'qituvchining savollari yordamida, rasmlar asosida so'ngra mustaqil bayon etishga o'rgatish talab etiladi.

O'qish uchun kichik Hikoyalar, she'r, masal, maqol, o'zbek va chet el yozuvchilari asarlari, o'quvchilar ongiga mos keladigan ro'znama va oynomalardan matnlar ishlataladi.

O'qishga o'rgatish jarayonida bolalar tarbiyalanadilar, ma'naviyati oshadi, ijobji Hislatlari, dunyoqarashi tarkib topadi, odob va ahloqni o'rganadilar, ularning shahsi shakllanib boradi. Yordamchi maktabda o'qish darslarining tarbiyaviy vazifasi-buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyalarini tarkib toptirish, shakllantirish, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishini ta'minlash. sh, bilih faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatib borishdan iborat..

To'laqonli o'qish malakalarini shakllantirish uchun bolani ongli, to'g'ri, tez va ifodali o'qishga o'rgatish talab etiladi. Yordamchi maktabda ushbu ta'limiyl ishlar tarbiyaviy va korreksion vazifalarni bajarish bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Yordamchi maktabda o'qish darslarining ta'limiyl vazifasi kuyidagilardan iborat: debil bolalarni ongli, to'g'ri, tez, ifodali o'qishga o'rgatish; ovoz bilan va ovozsiz(ichda) o'qishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini avval o'qituvchining yordami bilan, rasmlar asosida so'ngra mustaqil bayon etishga o'rgatish. Matn mazmunini to'liq idrok etish, bayon qilish, uni qismlarga, sarlavhalarga bo'lish. sarlavhalarni nomlash, reja tuzish, reja asosida matn mazmunini izchillik bilan o'z so'zлari bilan gapirib berish, o'zbek va chet el adabiyoti bilan tanishtirish, asar qahramonlarini bilih, salbiy va ijobjiy obrazlarni ajrata olish. Asar qahramonlarining hatti-harakatini ifodalovchi misollarni asar matni ichidan topib o'qish, qahramonlarga nisbatan o'z munosabatini ifodalay olish, asar qahramonlariga sodda harakteristika, tasnifnomalar tuzish. she'riy asarlarni yod olish va boshqalar.

Yordamchi maktabda o'qish darslarining ta'limiyl vazifasi bilan birga tarbiyaviy vazifalari ham amalga oshiriladi.

O'qish darslari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish borasida eng quay predmet bo'lib hisoblanadi. O'qish darsida ishlataladigan kichik hikoya, she'r, masal, topishmoq, tez aytishlar, rivoyat, hadislardan namunalar, yirik badiiy asarlardan parchalar, ilmiy-ommabop ishga doir maqolalar

o'quvchilar yoshi, ongiga mos keladigan badiiy asarlardan namunalar, bola shahsini shakllantirib boradi, uni ahloq va odobga o'rgatadi, ularning milliy mavkurasini, ma'naviyatini shakllantiradi. O'qishga o'rgatish jarayonida o'quvchilar tarbiyalanadi, ma'naviyati oshadi, dunyoqarashi kengayib, ijobjiy hislatlari tarkib topadi. O'qish darslarida o'quvchilar inson qadrini, millat qadriyatlarni, o'zligini anglab, erkin va ozod jamiyatda yashash, o'z o'mini jamiyatda egallah uchun fidoiylik bilan kurashish, mehnat qilish lozimligini o'rganadilar.

Grammatika, imloga o'rgatish va nutq o'stirish

«Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limida o'qituvchilar boshlang'ich sinflarda yozuv darslarida va yuqori sinflarda ona tili darslarida aqlan zaif o'quvchilar og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishlarni qanday tashkil etishi lozimligi; yozuv malakalarini shakllantirishga qo'yilgan talablar, yordamchi mакtabda yozma ishlarni hajmi, turlari, ularni tashkil etish yo'llari; yozma ishlarni tekshirish va baholashga qo'yilgan talablar ko'rsatilgan.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatika va imloni o'rgatishdan maqsad:

- o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini o'stirish;
- orfografiya va puktuatsiya qoidalariga rioya qilgan holda savodli yozishga o'rgatish;

Boshlang'ich sinfda yozuv, yuqori sinflarda ona tili darslarining asosiy vazifasi :

- aqli zaif o'quvchilarni, ularning rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil hayot kechirishida zarur bo'lgan hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirib, hamma qatori mustaqil hayot kechirishlarida zarur bo'lgan o'qish va yozuv malakalarini shakllantirish. Aqli zaif o'quvchilarning yozuv malakalarini rivojlanirish ishlarning samaradorligi ta'limiy va tarbiyaviy hamda korreksion ishlarni to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

Yordamchi maktabda yozuv darslarida grammatika va imlodan bilimlarni hosil qilish jarayonida tilga oid materiallarni tahlil qilishga o'rgatish orqali ularning aqliy va nutqiy qobiliyati o'stiriladi. O'quvchilar so'zning fonetik tuzilishi, so'zni bo'g' inlarga bo'lish, ma'noli qismlarga ajratish, ayrim so'z turkumlari va ularning muhim belgilari bilan tanishadilar, gap va gap bo'laklari haqida ma'lumot oladilar, mahsus mavzularga aloqador imlo va tinish belgilari qoidalarini o'rganadilar. Dasturda o'quvchilarni so'zning leksik ma'nosi, ko'p ma'noli, ma'no jihatidan bir-biriga yaqin ma'nodosh so'zlar bilan tanishtirishiga alopekida

e'tibor beriladi. Shu bilan birga o'quvchilarda nutqni tinglash iqtidori o'stiriladi, adabiy tilda muloqatda bo'lish ko'nikmalari hosil qilinadi, tilning asosiy belgilari - tovush, so'z, gapga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

«Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limi takrorlash, tovush va harflar, so'z, gap, bog'langan nutq kabi qismlarni o'z ichiga qamrab olgan. Aqli zaif o'quvchilarda bilish faoliyatida hamda nutqning rivojlanishida kuzatiladigan nuqsonlar grammatika va imloning o'zlashtirilishini ancha qiyinlashtiradi. Shuni hisobga olib, yordamchi maktablar uchun «Ona tili, yozuv, o'qish va nutq o'stirish» dasturida barcha sinflarda tovush-harflarni tahlil qilish, lug'at ustidagi ishlarga juda katta e'tibor berilgan. O'quvchilar tovushlarni idrok etish va talaffuz qilishga, bir biridan ajratish, analiz va sintez qilishga, ovozning kuchayishi va pasayishini nazorat qilishga, pauza qilishga, unli va undosh, jarangli va jarangsiz tovushlarni farqlashga o'rganadilar.

«Tovush va harflar» bo'limida o'quvchilar nutq tovushlarini eshitib va talaffuz qilib, ularni bir biridan farq qiladigan holatlarni, adabiy til talaffuzi qoidalarini o'rganadilar. So'zni fonetik va morfologik tahlil qilishga asoslanuvchi imlo qoidalarini o'zlashtirgan holda hatosiz yozish ko'nikma va malakalarini hosil qilish ishlariga ham dasturda alohida o'rinnajratilgan. Amaliy mashqlar asosida o'quvchilar buyum va narsalarning nomi, harakati, sifatini bildiradigan so'zlamni o'zlashtirib oladilar. So'z voqelikdagi buyum yoki hodisani ifodalab, ma'no bildirishini, gap tarkibida, ayniqsa, bog'lanishli matnlarda yangi-yangi ma'no kasb etilishi mumkinligini, shakl jihatdan turlicha bo'lgan so'zlar bir hil yoki yaqin ma'no bildirishini, shuningdek, ba'zi so'zlarning ma'no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishini o'rganadilar. Fikrni aniq ifodalash uchun ma'no jihatidan mos so'zni tanlash zarurligini anglab oladilar. Leksik mashqlar birinchi sinfdanoq boshlanib, muntazam ravishda izchillik bilan mantiqiy mashqlar bilan qo'shib olib boriladi. Dasturning «So'z tarkibi» bo'limida o'quvchilarga o'zak va o'zakdosh so'zlar haqida tushuncha beriladi, so'zlarning o'zgarishi va yasalishi haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi. Ular o'zak, so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni ajratish, o'zaklarni bir biri bilan qiyoslash, tarkibi bilan o'hshash o'zaklarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ishlata olish ko'nikmalarini egallab olishlari lozim.

«So'z turkumlari» bo'limida mavzular aqli zaif o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlanterib, keljakda mustaqil hayot

kechirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga mo'ljallangan hajmda berilgan.

«Gap» nomli bo'limda nutqni gaplarga bo'lish, ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, undov gaplar tuza bilish, gap ohirida tinish belgilarining ishlatalishini o'rganish kabi talablar qo'yilgan. O'quvchilar gapning bosh bo'laklari: ega va kesim, ikkinchi darajali bo'laklari haqidagi tushunchalarga ega bo'lib, gapning uyushiq bo'laklari, sodda va qo'shma gaplarni og'zaki va yozma nutqida to'g'ri ishlata bilishlari lozim. Dasturda gap haqida mustaqil hayotda zarur bo'lgan barcha m'lumotlarni berilishi talab etilgan.

«Bog'lanishli nutq». Yordamchi maktab o'quvchilarining bog'lanishli og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishlarini debil bolaning o'ziga hos hususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi belgilangan. Tovush va so'zlarni aniq, to'g'ri talaffuz etishga va yozishga, lug'atni boyitish, nutqni grammatik tomondan to'g'ri ifodalash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda bayon etishga o'rgatishga alohida e'tibor berilgan. Buning uchun savolga javob qaytarish, rasmlar tagiga yozish, berilgan so'zlardan gap tuzish kabi va boshqa turdag'i ishlar uyuşhtirilishi tavsiya etilgan. 5-8 sinflarda bayon va insholar, ish qog'ozlarini yozishga o'rgatish mashg'ulotlari ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Yozma ish haqida tushuncha berish va uni to'g'ri bajarishga o'rgatish hamda o'z fikrlarini yozma ravishda aniq, to'g'ri bayon etishga o'rgatish. Ayniqsa ariza, tarjimaiy hol, ma'lumotnomha, tilhat va boshhqalar.

Grafik malakalar. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida hatning grafik tomoni-husnihatga, kolligrafiyaga o'rgatish uchun mahsus darslar o'tkazish tavsiya etilmaydi. Yozuv darslarini husnihat mashqlari bilan, kolligrafiya bilan bog'lab olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Har qanday yozuv toza, aniq, ozoda, chirolyi yozilib, harflarning o'lchovi, shakli, qiyaligi va harf qismlarining qo'shilishi belgilangan normalarda bo'lishiga riyoq qilish zarur.

Yordamchi mакtab o'quvchilari qo'l muskullarining harakatchangligi sust. yahshi rivojlanmagan bo'ladi. Mayda qo'l muskullari harakati va ko'z bilan chamlashni takomillashtirish uchun dastlabki mashqlar o'tkazish, ayrim harf va harf guruhlarini murakkablashib borishiga qarab yozuv malakalari shakllantirib boriladi.

Yordamchi mакtabda ta'lim oluvchi aqli zai'f o'quvchilarning o'zlashtirish darjasasi har hil bo'lishini inobatga olib, individual va differensial yondoshuvni amalga oshirishda sinfini shartli ravishda uch

guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Dastur talablarini o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, sust o‘zlashtiruvchi bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalari standart talablaridan pastroq darajada bo‘lishi mumkin).

Savol va topshiriqlar

1.Aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilar ta’lim olayotgan mahsus muktab o‘quv rejasida ona tili, o‘qish va nutq o‘stirish darslari qanday o‘rin egallagan.

2.Nutq o‘stirish darslari mehnat ta’limi muktabining nechanchi sinflarida o‘tkaziladi? Ushbu predmetning mazmunini ta’riflab bering.

3.Savod o‘rgatish ishlariiga mahsus muktabda qanday talablar qo‘yilgan?

4.Mehnat ta’limi muktabida o‘qish darslarining ta’limiy, tarbiyaviy vva korreksion vazifalari nimadan iborat?

5.Mahsus muktabda grammatika, imlo va nutq o‘stirish ishlari nechanchi sinflarda o‘tkazilai? Ushbu darslarning mazmunini ta’riflab bering.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi.-T.,1984

2.Aksyonova A.K. Metodika obucheniya russkomu yazyku vo vspomogatelnoy shkole.- M., ProsveHeniye, 2004

3.Boshlang‘ich muktabning davlat ta’lim standartlari. RTM, T.,2006

4.Kosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.-T.1985

5.V.V.Voronkova Obuchenije gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassah vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveHeniye,1988

6.Obuchenije uchashihhsya 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole G·Pod redaksiyey Petrovoy V.G. Moskva, ProsveHeniye. 1992.

7.Yordamchi muktablar uchun ona tili, o‘qish va nutq o‘stirish dasturi. tuzuvchi V.S.Rahmanova, T.,2003

8.Pulatova F.M. Oligofrenopedagogika T, 2006.

9. Rahmanova V.S.Mahsus pedagogika T.2005

10.Rahmanova V.S.Ona tili o‘qitish mahsus uslubiyati. (ma’ruza matni)T.,2003

1.3. Yordamchi mактабда она тили о'qитиш тамоиллари.

Reja

- 1.Ta'lim qonuniyatları va tamoillari.
- 2.Ona tili darslariga hos bo'lgan tamoillar.
- 3.Yordamchi mактабда она тили дарсларida didaktik tamoillarga amal qilish
- 4.Didaktik tamoillarga asoslangan holda она тили дарсларini yangi inovatsion pedagogik tehnologiyalar asosida o'tkazish yo'llari.

Yoshlami vatansparvarlik, oqil insonlar bo'lib yetishishini ta'minlash va milliy g'oya ruhida tarbiyalab, ta'lim berishni shakllantirish masalasiga hukumatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berib kelmoqda. Bu boradagi islohatlarni jadallashtirishning bir qator istiqbolli rejaları ishlab chiqildi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrilar tayyorlash Milliy dasturi» shular jumlasidandir. O'tgan davrda ana shu dastur va qonun bo'yicha Respublikamizning uzlusiz ta'limi tizimida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ta'lim qonuniyatları va qoidalari zamon talablariga muvoqlashtirildi, takomillashtirildi.

Adabiyotlarda mashhur olimlarning ta'lim qonuniyatları va qoidalari, didaktik tamoillar haqidagi fikrlari keng yoritilgan.

Farobiy «Na'munali ta'lim» risolasida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materialni eng yahshi yo'sinda bayon qilish masalasiga to'htilib, bu ishning ikkita turini tavsiya etgan. Bularning biri bevosita sezishga yaqin narsalarni oldingi o'ringa qo'yishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni olg'a surishdan iboratdir. U o'zining fikrini tushuntirib shunday yozgan: » Aql o'z harakatini avval seziladigan narsalarga, keyin esa aqlga muvofiq yo'sinda, ya'ni hossalarni sintez qilishga yo'naltirishi ma'qul.»

Ibn Sinoning asarlarida ham didaktikaning tamoillariga, hususan ko'rsatmali o'qitishga qiziqish bilan qaralgan. Ibg Sino inson dastlabki o'quv mashg'ulotlarida buyumning tashqi hossasini o'rgansa, o'sha buyumni va uning tasvirini ko'rib chiqsa, o'zi mustaqil holda bilimlarni o'zlashtira oladi, deb hisoblagan. Olim inson haqiqatan mavjud narsalarni yoki ularning tasvirini idrok etishi tufayli unda obyektiv voqelikni to'g'ri aks ettiradigan tasavvur shakllanishini uqtirgan.

Sharqshunos olim Kindiyning fikricha ta'lim berishda asosiy diqqat bolaning aql kuchini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Buning uchun ilmiylilik va onglilik tamoiliga amal qilish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'qitish tamoillari yosh avlodga ta'lif va tarbiya berish maqsadlariga muvofiq o'qitishning harakterini belgilaydigan asosiy yetakchi qoidalardir.

Tamoillarni ifodalashga olib kelgan asosiy manba, o'qitish amaliyoti, o'qituvchilarning keyinchalik anglangan, umumlashtirilgan va tarqalgan tajribasi hamda topilmalaridir.

O'qitishning tamoillaridan uning qoidalari kelib chiqadi va ular u yoki bu tamoillarning hususiy qoidalarni aks ettiradi.

Y.A.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida didaktikaning asosiy tamoillarini yoritib berdi. K.M.Holikberdiyev «Pedagogika» darsligida yozganidek : «Hozirgi kunda tadqiqotchi didaktlar uchun umumiyl bo'lgan kuyidagi tamoillar mayjud:

- O'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi tamoili;
- Ilmiylilik tamoili;
- Tizimlilik va izchillik tamoili;
- Ko'rsatmalilik tamoili;
- Tushunararlilik tamoili;
- Puhtalik tamoili.»

Barcha predmet o'qituvchilarini hamma sinflarda ana shu tamoillarga rioya qilishlari kerak. Ammo predmetlarning mazmuniga, o'quvchilarning yosh, individual va kasallikdan kelib chiqqan hususiyatlariiga, o'qituv vositalarining mavjudligiga bog'liq holda tamoillarning nisbati, mazmuni hamda unga amal qilish yo'llari o'zgaradi. Masalan ko'rsatmalilik tamoili tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tajribalarni namoish etish bo'lsa, tilni o'qitishda grammatika jadvallarini ko'rsatish, doskaga yozish, s'hemalarni chizish, shartli belgilardan foydalanish, tarqatma materiallarni ishlatish va hokazolardan iborat bo'ladi.

Didaktikada ilmiylilik, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, o'quvchilarga individual va differensial yondoshish tamoillari, izchillik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoili, propedevtiklik tamoili va boshqalarga amal qilish talab etiladi.

Yordamchi mакtabda ona tili o'qitishda umumdidaktik tamoillardan tashqari, shu predmetni o'ziga hosligidan kelib chiqqan holda yana quyidagi tamoillarga amal qilish talab etiladi:

-tilga o'rgatishda nutqning funksional sistemasidagi barcha komponentlarga baravariga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan ishni amalga oshirish;

-nutq va tafakkurning bog'liqligini inobatga olib, nutq o'stirish borasida bolaning fikrlash qobiliyati, tafakkurini o'stirib borish;

- og'zaki nutq asosida yozma nutqni shakllanshtirish va yozma nutqni o'stirish asosida bog'langan og'zaki hamda yozma nutqni o'stirish.

-yordamchi mактабда она тили дарсларидаги системали юндошибиш, ривожлантірувчи та'лим, nutq va tafakkurning o'zaro bog'liqligi tamoillaridan iborat taHlil etish usuli asosida ishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir;

Aqli zaif bolalar bilan ishslash jarayonida tayyorgarlik ko'rish tamoili, ko'rgazmalilik, izchillik, individual yondoshish, differensial yondoshish va boshqa tamoillarga shu bolalarning jismoniy va ruHiy rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlarini Hisobga olgan Holda amal qilish tavsiya etiladi.

Yordamchi maktabdning maqsad va vazifalari, korreksion yo'nalishi va bunday maktabda o'qiydigan o'quvchilarning o'ziga hos hususiyatlari ona tilini o'qitishda ma'lum tamoillarga o'zgacha tayanib ish olib borishni talab etadi.

Yuqorida ko'rsatilgan tamoillardan tashqari yordamchi maktabda ona tili darslarida metodist Gnezdilov M.F. quyidagi tamoillarga amal qilishni tavsiya etadi:

1. Har qanday ishni boshlashdan avval, unga tayyorgarlik ko'rish tamoili. Asosiy mashqlarga o'tishdan avval, o'quvchilarni shunga tayyorlash kerak. Chunki mana shu tayyorgarlik natijasida mashqlarni bajarish uchun qulay sharoit yaratiladi. Masalan, yordamchi maktabda alifbeni o'qishdan avval alifbegacha bo'lgan davr o'tkaziladi. Ommaviy maktablarda tayyorlov ishlari asosan nulevoy sinflarda yoki maktabgacha tarbiya muassasalarining tayyorlov guruHlarida olib boriladi. Birinchi sinfda bir ikki Hafta tayyorgarlikka ajratiladi. yordamchi maktablarda esa bu ishlar bir ikki oy mobaynida o'tkaziladi. Birinchi chorakda o'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayoniga, maktab hayotiga kiritiladilar, ya'ni qirq minut bir joyda o'tirish, o'qituvchi va o'quvchilar nutqini diqqat bilan tinglay olish, savollarga to'g'ri javob bera olish, qalam, ruchka va boshqa o'quv qurollaridan to'g'ri foydalana olish kabi va boshqa malakalari tarbiyalanadi.

2. Materialni ma'lum qismlarga bo'lgan Holda izchillik bilan, hilma-hil metodlar orqali o'rgatish tamoili.

Aqli zaif o'quvchilar murakkab materialni katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradilar. Shuni Hisobga olib material kichik qismlarga bo'linib, sodda shaklda, izchillik bilan va aniq qilib o'rgatiladi. O'qituvchi o'rgatmoqchi bo'lgan tushunchalarning elementlarini bir-biriga bog'lab, shular asosida sodda mashqlar sistemasini ishlab chiqadi. Masalan, yangi Harf bilan tanishtirish ishlari tovush Haqida tushuncha berishdan boshlansa, so'ngra shu Harf bilan tovush o'rtasidagi aloqa tushuntiriladi. So'ngra Harfnini shakli, yozilishi va ishlatalishi ko'rsatiladi, tanish Harflar bilan taqqoslanadi.

3.O'quv jarayonida turli hil usullarni qo'llash tamoili asosiy tamoillaridan biri bo'lib Hisoblanadi. Aqli zaif bolalarda bir hildagi vazifalarini bajarishda mustahkam steriotip Hosil bo'ladi. Bunda bolalar bir sharoitda olgan bilimlarini ikkinchi sharoitda mustaqil qo'llay olmaydilar. Masalan, darsda o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan, mashqlar orqali mustahkamlangan, mustaqil ishlarda bir necha bor takrorlangan qoida yangi ish turida, hususan diktant yozishda yoki bo'lmasam kartochka orqali berilgan vazifalarda qo'llanilmaydi. Bundan ko'rindaniki, yordamchi maktablarda ona tili darslari turli hil metodlar orqali olib borilishi kerak. Biroq metodlar turi dars maqsadi, vazifasi va mazmuniga qarab belgilanadi. Ularni Haddan tashqari ko'p bo'lishi Ham yaramaydi.

4.Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga solib turish va ularning yosh Hamda individual. tipologik hususiyatlarini Hisobga olgan Holda tushunarli qilib o'qitish tamoilidir. Oligofren o'quvchilar o'z faoliyatini mustaqil ravishda tashkil eta olmaydilar. Shuning uchun bu soHada Ham o'qituvchining mahsus yordami va nazorati bo'lishi kerak. Bundan tashqari yordamchi maktab o'quvchilari bir-biridan nafaqat yosh va individual hususiyatlari bilan , balki kasallik oqibatida sodir bo'lgan o'zgarishlari bilan Ham bir-biridan ajralib turadilar. Shuni Hisobga olib, o'qituvchi darsda individual va differensial munosabatlarni to'g'ri amalga oshira bilishi kerak. Masalan, bir sinfda shizofreniya, epilepsiya, gidrotsefaliya, diqqati tarkoq, astenik, og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bo'lsa, dars o'tish paytida ularning Har birining o'ziga hos hususiyatlarini Hisobga olish kerak. Buning uchun ishni rejalashtirishda Har bir bolaning ish qobiliyatini, imkoniyatini, diqqatini, eshitish, ko'rish Holatlarini, matorikasini va nutqning boshqa tomonlarini yahshilab o'rganib, Hisobga olib borishi kerak. Shu bilan birga dars o'tish metodikasidagi umumiylilik albatta saqlanishi lozim, ya'ni o'qish

darsida Hamma o'qiydi, yozuv darsida Hamma yozadi. Ammo vazifalarning mazmuni va ularni bajarish yo'llari o'quvchiga qarab belgilanadi. Individual munosabatda bo'lish tamoilini to'g'ri amalga oshirish uchun berilgan topshirqlarning differensiatsiyasi, ya'ni ma'lum o'quvchilardan vazifani to'liq bajarish talab etilsa, boshqa o'quvchilardan huddi shu vazifani qisman bajarish talab etiladi. Ba'zi o'quvchilar ishni boshidan ohirigacha mustaqil ravishda bajarsalar, ba'zi bir o'quvchilarga shu vazifani bajarishda o'qituvchi yakindan yordam beradi.

5.Ko'rgazmalilik tamoili o'quvchilarning bilimini puhta va mustahkam bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarni aktivlashtiradi, faollashtiradi va o'qituvchining mehnatini samarali qilish vositalaridan biri bo'lib Hisoblanadi.

Metodist-olimlar ko'rgazmalilikning didaktik ahamiyatini ta'kidlab, shunday qiyosiy fakt keltirgan edilar: "Siz bolaga qandaydir beshta no'malum so'zni o'rgating, u bu so'zlarni bilib olguncha o'zoq vaqt ketadi va beHuda bosh qotiradi. Lekin suratlar vositasida o'rgatiladigan 20 so'zni o'quvchi hash-pash deguncha o'rganib oladi".(K.D.Ushinskiy) Ayniqsa yordamchi maktablarda ona tili darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish -darsning samaradorligini yanada oshiradi.

Yordamchi maktab o'quvchilari konkret fikrlash bilan harakterlanadilar. Shuning uchun Ham dars o'tishda turli o'qituv vositalaridan keng foydalanish talab etiladi. Darsda asl predmet, narsaning o'zini ko'rsatish imkonini bo'lmasa illustratsiya, s'hema, jadval, albomlar, orfografik va izohli lug'atlar, kartalar, rasim, foto materialllar, mulyaj, gerbariy, mакет diafilmlar, kinofilmilar va boshqalardan foydalanish mumkin.

Didaktika tarihida Ham ko'rgazmalilikning o'rni va mohiyati aloHida e'tirof etilgan. Buyuk pyodagag K.D.Ushinskiy ona tili o'qitishning bu tamoilini qattiq Himoya qilishdan tashqari, o'qituvchilarga ajoyib meros qoldirdi. Uning «Bolalar dunyosi» kitobi ona tili o'qitishni ko'rgazmali qurol vositasida uyuştirishning eng yahshi namunasidir.

Hozirgi kunda maktablarda o'qitishni ko'rgazmali o'tkazish uchun barcha shart sharoitlar mavjud: grafik, simvolik Hamda tasviriyan manbalar, ayniqsa tehnik vositalar, yangi pedagogik tehnologiyalar o'qitishning faol bo'lishi, bilimlami puhta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ko'rgazmalilik tamoili, inovatsion, yangi pedagogik tehnologiyalar, turli o'qituv vositalar

asosida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy va g'oyaviy tomondan yahshilanishida eng muhim omillardandir.

Ko'rgazmalarni qo'llash, yangi pedagogik tehnologiyalar asosida o'qitish-o'quvchilarda o'qishga qiziqishni uyg'otadi, ularni faol bo'lishini ta'minlaydi, grammatikadan ko'pgina mavHum tushunchalar moHiyati aniqroq ochiladi, o'quvchilar ularni puhta o'zlashtirib oladilar. Bundan tashqari ko'rgazmali qurollar yordamida konkret faktlardan umumlashgan hulosalar, qoida va ta'riflar yaratiladi. Shu asosda o'quvchilar ongida grammatika, orfografiya va punktuatsiya bo'yicha elementar tushuncha Hosil qilinadi.

Savol va topshiriqlar

- 1.Didaktik tamoil deganda nimani tushunasiz?
- 2.Pedagogika adabiyotlarida qaysi didaktik tamoillar o'rganiladi?
- 3.Oligofrenopedagogikada qaysi didaktik tamoillarni o'rgangansiz?
- 4.Tilni o'rganish jarayonida qaysi didaktik tamoillarga asoslanamiz?
- 5.Mehnat ta'limi məktəbida didaktik tamoillar qanday amalga oshiriladi?

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Aytmetova S.SH. Oligofrenopedagogika-T.,1984
- 2.AksyonovaA.K. Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole.-M.,Prosveteniye,2004
- 3.Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.-T.1985
- 4.V.V.Voronkova Obuchenije gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassax vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveshcheniye,1988
- 5.Obuchenije uchashchihsya 1-4 klassov vo vspomogatelnoy shkole Pod redakcijey Petrovoy V.G. Moskva, Prosveshcheniye, 1992.
- 6.Pulatova F.M. Oligofrenopedagogika T. 2006.
7. Rahmanova V.S.Mahsus pedagogika T.2005
- 8.Rahmanova V.S.Ona tili o'qitish mahsus uslubiyati.(ma'ruza matni) T.,2003
- 9.G'ulomova H., Yo'ldosheva SH. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. (ma'ruza matni T.,2003
- 10.Hasanbayeva O. Pedagogika ., Toshkent, 2006

1.4. Aqli zaif o'quvchilar nutqining rivojlanish hususiyatlari

Reja

1. Aqli zaif bolalar talaffuzi va idrokida kuzatiladigan qiyinchiliklar.
2. Aqli zaif bolalar lug'at boyligi, leksik komponet holati
3. Aqli zaif bolalarning gap tuzishida kuzatiladigan qiyinchiliklar.
4. Bog'langan nutqning rivojlanish hususiyatlari.
5. Nutqdagi kamchiliklarning boshqa psihik jarayonlarning tarkib topishiga ta'siri.

Nutkni o'z vaktida to'g'ri egallash bolaga atrofdagi odamlar bilan erkin muloqatda bo'lish imkonini beradi, o'z hulkini boshkarishga yordamlashadi, psihik faoliyatining rivojlanishiga ko'maklashadi va nihoyat, mактабда та'lim tarbiya berish jarayonini ancha yengillashtiradi.

Akli zaif bolalar o'zlarining me'yorda rivojlangan tengdoshlariga karaganda birmuncha kech tilga kiradilar, birinchi so'zni aytish muddati uch ba'zan esa besh yoshigacha kechikadi.

Gnedilov M.F., Petrova V.G., Kashe O.V., Orlova YE.V., Voronkova V.V., Rahmanova V.S. va boshqa olimlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra birinchi sinfga kelgan akli zaif bolalarning 66%ida talaffuz nuksонлари uchraydi. Aksariyat bolalarda fonematik eshitish kobiliyati buzilgan, nutk a'zolari va ularning harakatidagi nuksонлар ko'plab uchraydi. Lugat boyligini egallashda jiddiy kiyinchiliklar kuzatiladi. Impressiv-ichki nutk ekspressiv-tashqi nutk tarakkiyotidan ancha orkada koladi. Mavhum hususiyatdagи, umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalovchи ko'pgina so'zlarni tushunmaydilar, ko'chma ma'noda ko'llanilgan tushunchalarni anglashda kiynaladilar, ularni aynan idrok etadilar.

Akli zaif o'kuvchilarning gap tuzishida ham kiyinchiliklar kuzatiladi. Tuzgan gaplari sodda bo'lib, so'zlarning o'zaro moslashuvida ko'plab hatolar uchraydi, imurakkab bog'lанишli gaplar juda kam ko'llaniladi. Li zaif bolalar tovush va so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz eta olmaydilar, rasmga qarab gap tuzishda qiynaladi, o'qituvchi yordamidan to'g'ri foydalana olmaydilar. Ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushinish darajasi ham dastur talablariga javob berinaydi. Eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta so'zlab berishda ham ancha qiyaldilar. Ular alohida so'zlarni eslab, aytadilar. Biroq to'g'ri tuzilgan

gaplar asosida ertak mazmunini qayta so'zlab bera olmaydilar. Aqli zaif bolalar tevarak-atrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha so'zlab berishda ham qiyndildilar. O'qituvchi tavsiyasi bilan hayotiy mavzular bo'yicha qisqacha hikoya tuzish topshirig'ini ko'pchilik bolalar bajara olmaydilar. Yordamchi maktab o'quvchilarining ko'pchiligi kattalar va o'rtoqlari bilan suhbatda faol ishtirok etma dilar, savollarga ha, yo'q deb javob berib, suhbatda gaplardan deyarli foydalana olmaydilar. Alovida so'zlar, imo-ishora, anaqa kabi so'zlar ko'p ishlatildi. Berilgan savolga to'liq, to'g'ri tuzilgan gap orqali javob bera oladigan bolalar ular orasida kuzatilmadi.

Aqli zaif bolalarning tafakkuri, fonematik eshitishi, analiz va sintez kilish malakalari, kurish idroki, fazoviy idroki yahshi rivojlanmagan, tovushlar talaffuzida sirg'aluvchi, sanor tovushlarning noto'g'ri talaffuz etilishi yoki yo'qligi keng tarqalgan, nutqning leksik va grammatik tomonlari rivojlanmagan. Bog'langan nutqining rivojlanishida vaziyatli rasmga qarab gap tuzish, birlikdagi otlarni ko'plikdagi otlarga aylantirish, otning kichraytish-erkalatish shaklini hosil qilish, berilgan andozaga qarab gap tuzish qobiliyatları ham shakllanmagan. Mustaqil nutqini kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, ular sujetli rasm yordamida hikoya tuzishda, ko'rgan narsalarini gapirib berish, ular uchun o'qib berilgan matnni so'zlab berish, o'z ko'rgan-kechirganlarini izchillik bilan bayon etib berish kabi topshiriqlarni juda katta qiyinchiliklar bilan bajrar ekanlar.

Akli zaif bolalar og'zaki nutkidagi barcha nuksонлар уларни o'kitish jarayonida kiyinchilik tug'diradi.

Yordamchi maktabda ta'llim jarayoni akti zaif o'kuvchi shahsini har tomonlama shakllantirish, uni orkada kolishlikka olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi turli hil nuksонларни tuzatish, yengillashtirish, korreksiya kilishga yo'naltirilgan chora tadbilarni amalga oshirishga karatilgan. Turli sabablarga ko'ra sinfdagi frontal ishdan orkada kolgan, ulgurmovchi o'kuvchilarga logopedik yordam ko'rsatilishi tufayli, ular dastur talablariga mos ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Savol va topshiriqlar

- 1.Yordamchi maktab o'quvchilari nutqining fonetiko-fonematik komponentida qanday nuksонлар kuzatiladi?
- 2.Aqli zaif bola nutqining leksik komponenti holatini ta'riflab bering.

3. Aqli zaif bola nutqining grammatik komponenti holatini ta'riflab bering
4. Logopediya fanida o'rgangan nutq nuqsonlaridan qaysilari yordamchi maktab o'quvchilarida kuzatiladi?

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. G'oziyev E. Bolalar psihologiyasi. Toshkent, 2002
2. Ayupova M.YU., Muminova L.R. va boshqalar. Logopediya T., 1993
3. Doshkolnaya oligofrenopedagogika Moskva, «Vlados» 1998
4. Krutetskiy V.A. Psihologiya.-Moskva 1980
5. Leontyev A.A. Psiholingvistika «Nauka» Leningrad, 1987
6. Mamedov K. Shoumarov G. Akli zaif bolalar psihologiyasi. Toshkent. 1994
7. Muminova L.R. Kahramanova Logopediya terminlarining ruscha-uzbekcha izohli lugati. T. «Ukituvchi» - 1985 y.
8. Negnevitskaya YE.I., Shahnarovich A.M. Yazik i deti.- Izdatelstvo "Nauka"»Moskva 1981
9. Nurkeldiyeva D. A. Bolalarning maktabga tayyorgarligini aniqlash.- Nizomiy nomli TDPU, T., 1997
10. Lalayeva R.I. Narusheniye protessa ovladeniya chteniyem u detey. M., ProsveHeniye, 2000 .
11. Petrova V.G. Osobennosti razvitiya rechi umstvenno otstalix shkolnikov. Moskva. 1984
12. Rahmanova V.S. Mahsus pedagogika.- Gofur G'ulom, Toshkent. 2004
13. Sadovnikova I.N. Narusheniye pismennoy rechi u mladshix shkolnikov. M., Prosveshchyeniye. 2001.

2 bob Yordamchi mehnat ta'lifi maktabida savod o'rgatish va nutq o'stirish metodikasi

2.1. Savod o'rgatishning ilmiy asoslari

Reja

1. Savod o'rgatish masalalarining psihologik asoslari
2. Savod o'rgatish masalalarining pedagogik asoslari
3. Savod o'rgatish masalalarining lingvistik asoslari
4. Savod o'rgatishning tahlil-tarkib usuli
5. Savod o'rgatish usullari tarihi

Savodga o'rgatish masalalari oligofrenopedagogika, oligofrenopsihologiya, logopediya, yordamchi mehnat ta'lifi maktabida ona tili o'qitish metodikasi, boshlang'ich maktabda savod o'rgatish metodikasiga oid adabiyotlarda keng yoritilgan. Aqli zaif o'quvchilarga savod o'rgatish masalalarining psihologik asoslari aqli zaif bolalar psihologiyasi (oligofrenopsihologiya) darsliklarida ma'lum darajada o'z aksini topgan. Olimlardan Vigotskiy L.S., Rubinshteyn S.YA., Petrova V.G., Belyakova I.V., Pinskiy B.I., Shif J.I., Aytmetova S.SH., Shoumarov G.B., Mamedov K.K. va boshqalar o'z adabiyotlarda debil bolalar nutqining psihologik hususiyatlarini yoritib, ularda yozma nutqning o'ziga hos shakllanib borishini, unda disgrafiya va disleksiylar kuzatilishi mumkinligini ta'kidlab o'tganlar.

Petrova V.G. debil bolalarni nutqini eksperimental tadqiq etib, bola o'qish va yozishni o'zlashtirib olishi uchun uning og'zaki nutqi. kuzatuvchangligi, fazoviy idroki, rang va shakllarni ajrata olish qobiliyati; eshitish diqqati, fonematik idroki, eshitish hotirasi yahshi yo'lga qo'yilishi lozimligini ko'rsatgan. Uning fikricha, debil bolaning bilish faoliyatidagi nuqsonlari yozma nutq mehanizmlarini tarkib toptirish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarning kechikib shakllanishiga olib keladi. Hatosiz, to'g'ri o'qish va yozish malakalarini shakllantirish uchun o'qituvchi yordamchi mehnat ta'lifi maktabi o'quvchilari yozma nutqining o'ziga hos hususiyatlarini hisobga olishi muhim ahamiyatga ega.

Bolaning og'zaki nutki kanchalik yahshi bo'lsa, qanchalik u yahshi gapirsa, ta'lif jarayonida shunchalik to'g'ri, hatosiz o'kiydi va yozadi. O'qishga o'rgatish ishlari bolalarning og'zaki nutkini o'stirish, ko'rish, eshitish kobiliyatini rivojlantirish, bolaning fazoviy idrokini o'stirish. barcha psihik jarayonlar: dikkat, tafakkur, idrok, hotira, nutk, his-tuyg'ular, hisyot, analiz sintez kilish malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi.

O'qituvchi nutk o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, ritmika, ko'l mehnati, tasviriy san'at va boshka dastur bo'yicha o'tkaziladigan darslarda yuqorida kayd etilgan yozma nutkdagi kamchiliklarni oldini olish ishlarini izchillik bilan amalga oshiradi. Har bir dars o'zining samaradorligi va ijobiy natijalari bilan bir-biridan fark kiladi.

Mahsus ona tili metodikasiga doir adabiyotlarda Gnezdilov M.F., Smirnova Z.N., Aksyonova A.K., Voronkova V.V., G.I., Zankov L.V., Petrova V.G., Omirbekova K.K., Rahmanova V.S. va boshqalar fikricha o'quvchilarni savodga, yaa'ni o'qish va yozishga o'rgatish uchun ona tilidagi tovushlarga va ularni yozuvda ifoda etish sistemasiga muvofiq keladigan, mahsus muassasa o'quvchilarining psihik hususiyatlarini, shuningdek mакtabga yangi kelgan bolalarning o'zlashtirish qobiliyatlarini Hisobga oluvchi, mahsus muassasaning ta'lim va tarbiya vazifalariga to'liq javob bera oladigan usullar bo'lishi kerak. Bunday usul - taHlil -tarkib(analiz-sintez) tovush usulidir.

«Hozirgi zamon taHlil-tarkib asosidagi tovush usuli o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirib borish, dunyoqarashni kengaytirish, ma'rifatli-ma'naviyatli qilib tarbiyalab borishni Ham nazarda tutadi. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida savod o'rgatish ishlarini oligofrenopedagogikaning tamoil, metod, usullari, tashkiliy formalari asosida amalga oshirish zarurligi oligofrenopedagogikaga oid adabiyotlarda ta'kidlangan.

Oligofrenopedagogika faniда olimlardan Dulnev G.M., Zamskiy H.S., Graborov A.N. va boshqalar yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarini savodga o'rgatish uchun ularning psihologik hususiyatlari, ish qobiliyati, qiziqishi, imkoniyatlari kabi va boshqa ruHiy Holatlarini Hisobga olish zarurligini ko'rsatib, o'z ilmiy ishlarida, metodik qo'llanmalarida bu ishni tashkil etish shakllari, tamoillari, usullarini yoritib bergenlar.

Rahmanova V.S. fikricha yordamchi mehnat ta'limi maktabida savodga o'rgatish usullari o'zbek tilidagi tovushlarning fonetik hususiyatlarini, ularni Hosil bo'lish mehanizmlarini, bir-biri bilan qo'shib bo'g'in, so'z, gap yasash qonunlariga va tilda qabul qilingan Harf belgilari sistemasiga to'liq javob berishi lozim.

Savod o'rgatish usullari o'zoq yillik tarihga ega. O'qishga va yozishga o'rgatishda turli hil usullar ishlatilgan. Shular ichida eng qadimgi usul -bu Harflab o'qish usulidir. Bu usul ikki ming yil ilgari vujudga kelgan. Bu usul bilan o'qish va yozishga o'rgatish ishlari to'n bosqichda olib borilgan:

- 1.Harflarni, ularning nomini yodlash:
- 2.Bo‘g‘inlarni yod olish va ular ichidagi Harflarni nomlab, so‘ngra to‘liq bo‘g‘inni talaffuz etish, masalan: bo‘qi-az-- ba:
- 3.So‘zlarni kitobdan bo‘g‘inlab o‘qish; 4.Kitobni sidirg‘asiga o‘qish.

Bu usul yod olish, tushunmay esda saqlashlarga asoslangan bo‘lib, savod o‘rgatish ishlari 2-3 yilgacha cho‘zilib ketar edi.

(Az, Bo‘qi, vedi strashat nas kak medvedi degan maqol shu qiyinchiliklardan kelib chiqqan.)

18 asrda Harflarning nomi osonlashtirilsa Ham, ya’ni agarda oldin az, bo‘qi deb nomlangan Harflar endilikda a,b kabi nomlansa Ham, savod o‘rgatish ishlariga ko‘p vaqt sarflanar edi.

O‘zbekistonda eski maktablarda revolutsiyaga qadar I.Abdullayev ko‘rsatishicha, bo‘g‘in usuli bilan o‘qishga o‘rgatilgan. Bu usulda savod o‘rgatish uch bosqichga bo‘lingan:

1. Harflarning nomini yodlatish. Bunda barcha Harflar yod olinagan.Bunday arabcha 28 Harfning yolg‘iz yozilish shakli alfavit tartibida tahtachaga yozib berilgan. Bolalar shu Harflarni domлага taqlid etib, mehaniq ravishda ketidan alif, be, te deb takrorlaganlar. Lekin amalda ularni bir-biridan ajratib ko‘rsata olmaganlar.

2.Bo‘g‘in Hosil qilish. Bu bosqichda arabcha Harflarning belgilari, ya’ni “zebu-zabar” quruq yodlatilgan, masalan, be-zabar--ba, be-zer--bi, be-pesh--bu, te-zabar--ta, te-zer--ti va hakazo.

3.Bo‘g‘inlarni qo‘sish. Bo‘g‘in Hosil qilishni o‘rgangan bolalarning qo‘lidagi arabcha Harflar yozilgan tahtachaning ikkinchi tomoniga domla “abjadni” ya’ni arabcha 28 Harfni sakkizta so‘z tarkibida yozib bergen. Masalan, abjad so‘zi alifga zabar qo‘yib, be ga urishtirilsa, jimga zabar qo‘yib, dolga urishtirilsa, jad. Bularning ikkisidan abjad Hosil bo‘lgan. Bu sakkizta so‘z, ya’ni abjadni birin-ketin bolalarga yodlatilgach, “Haftiyak” (eski maktab o‘qish kitobi) ni bir ikki yil o‘qitilgan. Ammo “Haftiyak” qadimgi arab tilida yozilgan bo‘lib, mazmuniga bolalar tushunmas edilar, uni quruq yod olardilar. Haftiyak o‘qib bo‘lingach, “Qur‘on” “Chor kitob”, Hamda A.Navoiy. ho‘ja Hofiz, Fo‘zuly va So‘fi Olloyoming asarlari o‘qitilgan.

Yod olish metodi eski maktablarda asosiy usullardan biri bo‘lganligi tufayli, o‘qituvchi kitoblarning mazmunini tushuntirmsadan. quruq yod oldiradi, shu bilan birga, o‘quvchidan o‘qishda talaffuz va o‘hangga e’tibor berishni talab qiladi.

Kitob ikki usulda-yakka va kollektiv Holda baland ovoz bilan o'qitilgan. Bu ikki usul orqali bolalar so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, she'riy asarlarini ifodali o'qishga ritm, qofiya, radif va turoqlarga aloHida e'tibor berib o'qishga o'rganadilar. Eski maktablardan faqat ayrimlarlarida o'quvchilar o'qish bilan birga hat yozishga Ham o'rgatilgan. Bolalar oldin alisbeni katta qilib yozganlar va bunday yozuv mufarod (sarhat) deb atalgan. Yozish mashg'ulotidan keyin Harflarni bir-biriga qo'shib yozish boshlangan va unga murakkabod deb nom berilgan. Lekin o'qish va yozish bir-biriga bog'lab o'rgatilmagan.

Madrasalarda talabalarni gruppalarga bo'lib o'qitishgan.

Har bir guruHda ma'lum bir talaba kitobni o'qiydi, boshqalar tinglaydi. Kitob o'qigan talaba guruH "qorisi" deb ataladi. Qori o'qigan parchanering ma'nosini mudarris tushuntirib beradi. qulog'i bilan eshitadigan radio, magnit diskalaridan; audio-video-mutfilm, kinofilmldan foydalanadi. Lekin bu vositalar albatta o'rganilayetgan grammatik materialga mos bo'lishi, o'quv ishining samaradorligini oshirishga yordam berishi kerak.

Darslik o'qitishning eng asosiy o'qituv vositasi bo'lib hisoblanadi, chunki unda o'quvchilar uchun kerakli ma'lumotlar, mashq va topshiriqlar puhta ishlangan bo'ladi.

Turkistonning eski maktablarida quruq, dogmatik ta'lim Hukmronlik qildi. Ta'limdagi bu dogmatizm bolalarni savodsiz bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Jamiyat taraqqiy etishi bilan ilg'or kishilar ta'lim va tarbiya soHasida Hukm so'rgan formalizmga qarshi yangi fikrlar bilan maydonga chiqib, yosh avlodni tarbiyalashga e'tibor bera boshlaydilar. 19 asrning ikkinchi yarmi va 20 asr boshlarida yashab ijod etgan o'zbek va tojik ma'rifatparvarlari-Ahmad Donish, Muqimiyl, Zavqiy. Avaz O'tar. Furqat o'zlarinig ilmiy va badiiy asarlarida maktablardagi o'qitishning maqsad va vazifalari, mazmun va usullariga qarshi norozilik bildiradilar. Shu davrlarda rus-tuzem maktabining o'zbekcha sinflarida asta-syokin tovush metodida savod o'rgatishga o'tila boshlandi.

Savod o'rgatishda tovush metodining takomillashgan variantini K.D.Ushinskiy yaratgan. U bolani Har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, o'qish va yozishga o'rgatishda analiz va sintezni birga qo'shib olib borish zarurligini ta'kidlagan.

K.D.Ushinskiyning savod o'rgatish sistemasi Hozirda Ham o'z aHamiyatini yo'qotmagan, ayniqsa, uning:

- 1.So‘zdan ma’lum bir tovushni topish;
- 2.Berilgan tovush qatnashgan so‘z tanlash;
- 3.So‘zni bo‘g‘inga va tovushga ajratish;
- 4.Tovushlardan so‘z tuzish;
- 5.So‘zdagi bir unli yoki undosh tovushni boshqasi bilan almashtirish (don,non,ko‘z,ko‘z,aka,uka);
- 6.So‘zning boshi yoki ohiriga tovush qo‘sib yangi so‘z Hosil qilish (osmon-somon, ko‘z-ko‘za, tilak-kalit)kabi ish usullaridan Hozirda Ham keng foydalilanildi.

Analiz-sintez tovush metodi K.D. Ushinskiyning shog‘irdlari tomonidan takomillashtirildi. Metodistlardan A.V.Yankovskaya, S.P.Ryodozubov, Y.Abdullayevlarning ilmiy ishlarida savod o‘rgatish usullari mukammal o‘rganib chiqilgan. Ushbu metodikaga asoslangan Holda darsliklar, metodik qo‘llanmalar yaratildi.

O‘zbek tilida savod o‘rgatish ishlarini takomillashtirishda metodistlardan O.Sharafitdinov, Fahri Kamol, Y.Abdullayev, Zununov O., Omilhonov SH., Qumri Abdullayeva, H.G.ofurova, T.G’offorova va boshqalarning Hissasi katta. Hozirgi kunda savodga o‘rgatishda analiz-sintez tovush usuli keng qo‘llanmoqda. Analiz - taHlil, sintez tarkib, biriktirish jarayonlari dastlabki o‘qish va yozishga o‘rgatish usullarining asosidir.

Nutqdan va matndan gaplarni, gapdan so‘zlarni, so‘zdan bo‘g‘inlarni, bo‘g‘indan tovushlarni ajratib olish, taHlil va aksincha bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zlardan gap, gaplardan jumla, jumlalardan matn tuzish sintez asosida olib boriladi.

2.2. Yordamchi mehnat ta'limi mактабида савод о'ргатишга тайyorlash davri

Reja

1. Alifbegacha davrning asosiy vazifalari;
2. Yozma nutq mehanizmlarining psihologik asoslari;
3. Eshitish idrokini rivojlantirish yullari;
4. Ko'rish idrokini rivojlantirish yo'llari;
5. Mayda qo'l muskullari harakatini o'stirish yo'llari.

Yordamchi maktabda savod o'rgatish ishlari birinchi sinfda yil mobaynida olib boriladi. Birinchi sinf dasturi ikki bo'limdan iborat : alifbegacha bo'lgan tayyorgarlik davri va alifbe davri. Alifbegacha davr bir chorak mobaynida 24 soat hajmida o'tkaziladi. Bu davrning asosiy vazifalari - o'quvchilarni dastlabki o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirishga tayyorlash. Tayyorlash ishlari: bolada o'qishga qiziqish o'yg'otish, o'z kuchiga ishonch hosi qilish, har bir bolaning umumiy va nutqiy rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlarini aniqlash, og'zaki nutqini o'stirish, eshitish idrokini rivojlantirish, ko'rish idrokini o'stirish. mayda qo'l muskullarining harakatchangligini oshirish ishari kiradi. Alifbegacha davr tayyorlov yoki propedevtik davr deb Ham yuritiladi. Ushbu davrning asosiy vazifasi bolalarni hat savod o'rgatishga tayyorlash. Bu davrda olib boriladigan ishlarning mazmuni yozma nutq mehanizmlaridan kelib chiqadi.

Yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanadi. Bolaning eshitish analizatori, ko'rish analizatori faoliyati, mayda qo'l muskullarining Harakatchanligi yahshi bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bolani o'quv faoliyatiga kiritish, o'qishga qiziqish o'yg'otish, bolalarni yosh Hamda individual hususiyatlarini o'rganish muHim aHamiyatga ega. Tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan berilgan ma'lumotlardan tashqari, o'qituvchi bolalarni kuzatib, ularni har tomonlama o'rganadi, savod o'rganishga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi. Buning uchun har bir o'quvchining umumiy rivojlanganligi darjasini, talaffuzi, lug'ati, o'qish va yozish malakalarining holati aniqlanadi. Sentabr oyining birinchi kunlaridanoq o'quvchilar nutqini o'stirish ishlari ham boshlanib yuboriladi. Bunda nutqning fonetik tomoni, ya'ni tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish ishlari boshlab yuboriladi. Nutqida murakkab nuqsoni bor bolalar bilan logopedik ishlar olib boriladi. Nutq o'stirish jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini aniqlab, uni kengaytirish, boyitish, faollashtirish ishlari ham boshlab yuboriladi. Propedevtik davrda bolalarning bog'langan og'zaki nutqi

ham rivojlantirib boriladi. Tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar yuzasidan turli savollar berishga, muloqat nutqini o'stirish maqsadida suhbat, ekskursiya, kuzatishlar uyuşhtiriladi. O'quvchilar faoliyati asosida ular bajarayotgan ishlari, nima qilmoqchi bo'lganliklari, sinfda, maktabda va maktabdan tashqari joylarda ko'rgan, eshitganlari haqida gapirib berishga o'rgatib borish talab etiladi

Alifbegacha davrda og'zaki nutqning funksional sistemasi o'rghaniladi va takomillashtiriladi. Bolalar bilan sabzavot, meva, kiyim, o'quv qurollari, transport kabi va boshqa mavzular bo'yicha suHbatlar uyuşhtiriladi, analiz sintez malakalari rivojlantirib boriladi.

Eshitish analizatorini rivojlantirish ishlari ikki yo'nalishda: nutqdan tashqari tovushlar asosida va nutq tovushlari-fonemalar asosida eshitish diqqati, hotirasi, fonematik o'quvi rivojlantiriladi.

Ko'rish analizatori faoliyatini rivojlantirish ishlari rang, shakl Hajm, o'zoq-yaqinligi, katta-kichikligini ajratish, ko'rish diqqati, hotirasini o'stirish, kuzatuvchanligini rivojlantirish, fazoviy idrokni o'stirishlardan iborat bo'lishi kerak.

Bolaning umumiy motorikasi qanchalik yahshi bo'lsa, uning nutqiy motorikasi va mayda qo'l muskullarining Harakatchanligi shunchalik yahshi bo'ladi. Demak, alifbegacha davrda bolaning motorikasini yahshi yo'lga qo'yish, ayniqsa mayda qo'l muskullarining harakatchangligini o'stirish muhim ahamiyatga ega.

2.3. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida savod o'rgatishning alifbe davri

Reja

1.Tahlil-tarkib tovush usuli - savod o'rgatishning asosiy usuli sifatida.

2.Yordamchi mehnat ta'limi maktabida Alifbeni o'qitish bosqichlari

3. Barcha bosqichlarda tovush-harf ustida ishlash tartibi.

4.Alifbe davrida ishlatiladigan o'qituv vositalari.

Birinchi sinf dasturining ikkinchi bo'limini alifbe davri tashkil etadi. Bu davrda o'quvchilar tovush-Harflarni taHlil-tarkib asosidagi usul bilan o'zlashtiradilar. Yordamchi maktabda tovush -Harflarni, bo'g'in Hamda so'zlarni o'rgatish tartibi o'zbek tilidagi tovushlarning fonetik hususiyatlari, ya ni Hosil bo'lish o'rni, usuli, talaffuzi, bo'g'inga birikishi va boshqalar Hamda oligofren bolalarning rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlarini Hisobga olgan Holda belgilanadi.

Yordamchi mактаб 1 sinf o'qувчилари товушларни ешитиш yo'li bilan nutqdan ajrata oladigan, ularni aniq va to'g'ri talaffuz etadigan, boshqa tovushlardan farqlay oladigan bo'lishi kerak.

Har bir Harf yordamchi mактабда quyidagi тартibda o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir:

1.Gap tuzib, uning ichidan o'рганиладиган harf ishtirokidagi so'zni ajratib olish;

2. so'z ichidan tovushni ajratib olish va uning o'mini aniqlash;

3. tovushning artikulatsiyasi, ya'ni qanday talaffuz etilishi (Havo oqimi qanday chiqadi, lablar qay Holatda, til uchi qayerda turibdi, un paychalari tebranishi yoki tebranmasligi) aniqlanadi;

4.bir necha so'z, bo'g'in ichidan tovushni ajratib olish, o'mini aniqlash;

5.tovushning yozuvdagи belgisi -Harf shakli bilan tanishtirish;

6.tovush va Harfni solishtirish;

7.Harfni avval yopiq, so'ngra ochiq bo'g'lnlarda qo'shib, bir nafas chiqarishda o'qish.

Ongli bo'g'lnlab o'qishga o'rgatish maqsadida rasmlar ustida ishslash, alifbe darsligidagi Har bir betni to'g'ri o'qish ishlari olib boriladi. Savod o'rgatish qiyinligini inobatga olib. ishni soddadan murakkabga qarab tashkil etish muhimdir. Yozuv darslarida dastlab to'g'ri tayoqchalar, ilmoq, oval va shular ishtirokidagi Hoshiyalarni yozishga odat qilib, so'ngra Harf elementlari, bosh va kichik Harflar bilan tanishtiriladi.

Yordamchi mehnat ta'limi mактабida savod o'rgatish darslarida kesma Harflar, bo'g'lnlar, Harflar terish tahtasi, bo'g'in, so'z jadvalları, shartli belgilari doimiy ravishda ishlatilishi shart.

Nutq o'stirish jarayonida ertak, she'r, topishmoq, tez aytishlar ustida ishlab, o'qувчилarning hotirasini o'stirish, yod oldirish, kichik hajmdagi asarlarni sahnalashtirish mashg'ulotlari uyuştiriladi.

Yordamchi mактабда savod o'rgatish darslarida tilga oid materiallarni tahlil qilishga o'rgatish orqali o'qувчилarning aqliy va nutqi qobiliyati o'stiriladi. O'qувчilar so'zning fonetik tuzilishi, so'zni bo'g'lnlarga bo'lish, ma'noli qismlarga ajratish, ayrim so'z turkumlari va ulaming muhim belgilari bilan tanishadilar. gap va gap bo'lakliri haqida ma'lumot oladilar, mahsus mavzularga aloqador imlo va tinish belgilari qoidalarini o'рганадilar. Dasturda o'qувчиларни so'zning leksik ma'nosi, ko'p ma'noli, ma'no jihatidan bir-biriga yaqin ma'nodosh so'zlar bilan tanishtirishga alohida e'tibor beriladi. Shu bilan

birga o'quvchilarda nutqni tinglash iqtidori o'stiriladi, adabiy tilda muloqatda bo'lish ko'nikmalarini hosil qilinadi, tilning asosiy belgilariga -tovush, so'z, gapga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatiladi. Aqli zaiif o'quvchilarda kuzatiladigan fonetiko-fonematik harakterdagi nuqsonlar, nutqning umumiy rivojlanishi va grammatik komponentdagi nuqsonlar savodni o'zlashtirilishini ancha qiyinlashtiradi. Shuni hisobga olib, "Yordamchi maktablar uchun ona tili, o'qish va nutq o'stirish" dasturida barcha sinflarda tovush-harflarni tahlil qilish, lug'at ustida olib boriladigan ishlarga juda katta e'tibor berilgan. O'quvchilar tovushlarni idrok etish va talaffuz qilishga, bir biridan ajratish, analiz va sintez qilishga, ovozning kuchayishi va pasayishini nazorat qilishga, pauza qilishga urganadilar, unli va undosh, jarangli va jarangsiz tovushlarni farqlashga o'rganadilar. Dasturning savod o'rgatish bo'limida o'quvchilar nutq tovushlarini eshitib va talaffuz qilib, ularni bir biridan farq qiladigan holatlarni, adabiy til talaffuzi qoidalarini o'rganadilar. So'zni fonetik va morfologik tahlil qilishga asoslanuvchi imlo qoidalarini o'zlashtirgan holda hatosiz yozish ko'nikma va malakalarini hosil qilish ishlariiga ham dasturda alohida o'rinni ajratilgan. Amaliy mashqlar asosida o'quvchilar buyum va narsalarning nomi, harakati, sifatini bildiradigan so'zlarni o'zlashtirib oladilar. So'z voqelikdagi buyum yoki hodisani ifodalab, ma'no bildirishini, gap tarkibida, ayniqsa, bog'lanishli matnlarda yangi-yangi ma'no kasb etilishi mumkinligini, shakl jihatdan turlicha bo'lgan so'zlar bir hil yoki yaqin ma'no bildirishini, shuningdek, ba'zi so'zlarning ma'no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishini o'rganadilar, fikrni anniq ifodalash uchun ma'no jihatidan mos so'zni tanlash zarurligini anglab oladilar. Leksik mashqlar birinchi sinfdanoq boshlanib, muntazam ravishda izchillik bilan mantiqiy mashqlar bilan qo'shib olib boriladi. Yordamchi maktab o'quvchilarining bog'lanishli og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishlari debil bolaning o'ziga hos hususiyatlarini hisobga olgan holda belgilangan. Tovush va so'zlarni aniq, to'g'ri talaffuz etishga va yozishga, lug'atni boyitish, nutqni grammatik tomonidan to'g'ri ifodalash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda bayon etishga o'rgatishga alohida e'tibor berilgan. Buning uchun savolga javob qaytarish, rasmlar tagiga yozish, berilgan so'zlardan gap tuzish kabi va boshqa turdag'i ishlarni uyushtirilishi tavsiya etilgan.

Yordamchi maktabda alifbe davrida tovush va harflar soddadan murakkabga qarab to'rt bosqich bo'yicha o'rgatiladi.

1-bosqich

Oo, Aa, Ii, Uu, Ll, Nh tovush va harflarni o'rgatish. Tovushni to'g'ri va aniq talaffuz etish, uni so'z boshidan, ohiridan ajratib ko'rsatish. Tovush va harflardan yopiq (ol, il, un, ot) so'ngra ochiq (lo, li, no, ta kabi) bo'g'inlat tuzish va cho'zib, bir nafas chiqarishda o'qishga o'rgatish. Ikki tovushli yopiq va ochiq bo'g'in hamda so'zlarni bir-biri bilan taqqoslash. Ular ishtirokidagi so'z va gaplarni tuzish, kesma harflardan terish, o'qish. Yozuv darslarida o'tilgan harflarning bosh harfini yozma shaklida husnihat qoidalariga rioya qilgan holda yozishga o'rgatish.

2- bosqich

Tt, O 'o', Mm, Ss, Bb, Hh, Dd, Kk tovush va harflari bilan tanishtirish. Yangi o'rganilgan harflarni bo'g'in, so'z ichidan ajratib olish, o'rmini aniqlash (so'z boshida, o'rtasida, ohirida). Ikki tovush ishtirokidagi ochiq va yopiq bo'g'inlar tuzish. ularni cho'zib, qo'shib o'qish. Ikki tovushdan iborat ochiq va yopiq bo'g'inlardan so'z tuzish va uni o'qish. (bola, bino, bobo. Iola, Nabi, Soli, mana, to'ti).

Uch tovushli bo'g'in. so'zlar tuzish va o'qish (tun, tut, non, bosh, bol, tom).

Yangi o'rganilgan harflarning bosma va qo'l yozma shakllari bilan, oldin o'tilgan harflarning kichik qo'l yozma shakllari bilan tanishtirish, to'g'ri yozishga o'rgatish. Og'zaki tahlil etilgan va so'ngra kesma harflardan tuzib o'qilgan bo'g'in. so'zlarni diktovka ostida yozdirish.

3-bosqich

Sh. Rr, Ee, Yy, Qq, Vv, Pp, Zz, Gg tovush va h'arflari bilan tanishtirish. ularni bo'g'in, so'z va gaplarda to'g'ri o'qish va yozishga o'rgatish. Ma'lum tovush ishtirokidagi so'z topish (so'z boshida, o'rtasida, ohirida kelgan). Ochiq va yopiq bo'g'inli so'z tuzish, yangi o'rganilgan bo'g'inlar ishtirokida so'z va gaplar tuzish.

Ikki-uch so'zdan iborat gaplarni o'qish, tahlil etish, kesma harflardan tuzdirish. Tovush v harflarning bosma va yozma . bosh va kichik harflari bilan tanishtirish. bosh va kichik qo'l yozma shakldagi harflarni to'g'ri yozishga mashq qilish.

Doska va alisbe darsligidan. ya'ni bosmacha harf bilan yozilgan matnlarni qo'l yozma shaklga aylantirib, ko'chirib yozish.

Gap boshida bosh harf, ohirida nuqta qo'yilishini tushuntirish va to'g'ri yozishga mashq qildirish.

Kesma harflardan mustaqil ravishda ikki va uch tovushli ochiq hamda yopiq bo‘g‘inli so‘zlarni tuzish va so‘ngra yozish.

Nuqtalar o‘rniga kesma harflardan mosini qo‘yib, so‘zlami tiklash, ko‘chirib yozish. O‘tilgan harflar ishtirokidagi bo‘g‘in, so‘z va gaplarni husnihat qoidalariga rioya qilgan holda yeo‘chirib hamda diktovka ostida yozishga mashq qildirish.

4-bosqich

O‘tilganlarni takrorlash, mustahkamlash.

Yangi Ch, G‘g, Ff, Jj, Xx, (‘) tutuq belgisi harflari bilan tanishtirish, yozish vaqtida amaliy yo‘l bilan unli va undosh tovushlarni ajratish. Yangi tovush-harf ishtirokidagi yopiq va ochiq, avval ikki, so‘ngra uch tovushdan iborat bo‘lgan bo‘g‘in va so‘zlarni tuzish, o‘qish va yozish. Undosh tovushlari yonma-yon kelgan bo‘g‘inli so‘zlar bilan (mard, sirk, stol, stul, sharq) tanishtirish, ular ishtirokidagi so‘z va gaplarni kesma harflardan tuzish, o‘qish va yo‘zishga o‘rgatish. Alifbe darsligi hamda boshqa manbalardan olingan sodda matnlarni bo‘g‘inlab, ongli o‘qishga o‘rgatish.

Husnihat qoidalariga rioya qilgan holda kitob va doskadan bosmacha va qo‘l yozma shrift bilan yozilgan matnlarni ko‘chirib yozish. Amaliy mashqlar asosida kishilarning ismi va familiyasi bosh harf bilan yozilishini o‘rgatish. Tahlil qilingan sodda so‘z, gaplarni o‘qib turib, diktovka ostida yozdirish. Murakkab so‘zlarni mustaqil tahlil etib, kesma harflardan tuzib o‘qish hamda yozish. Nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib, doska va kitobdan ko‘chirib yozish. Savod o‘rgatishning alifbe davri ohirida to‘rt bosqichdan so‘ng o‘quvchilar:

Unli va undosh tovushlar. ularning talaffuziga xos farqlanish haqida ma‘lumot bera oladigan (Havo oqimi to‘singga uchraydi. uchramaydi);

Harf va tovush munosabatiga oid tushunchalar bilan tanishgan;

Kesma harf va bo‘g‘inlar asosida so‘z hosil qilish. tuzilgan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qiy oladigan:

So‘zlarni bo‘qinlab o‘qishga o‘rgangan;

O‘qish jarayonida ainal qilinishi lozim bo‘lgan gigiyena qoidalariga rioya qila oladigan :

Unli va undosh harflarning bosh va kichik shakllarini yoza oladigan bolichlari lozim. O‘quvchida yozuv sifatini, ya’ni:

- harflarni to‘g‘ri bog‘lab yozish;
- harflarni 650 qiyalikda yozish;
- har bir qatorda harflarning bir xil balandlikda bo‘lishiga erishish;
- harf unsurlari, harflar va so‘zlar orasidagi masofalarini bir xilda saqlash kabilarni shakllantirish dasturda talab etilgan.

Har bir harf yoki harflarning bog‘lanishi, og‘zaki yoki xattaxtada tushuntirish orqali, qo‘lni querga qo‘yish, querda bu harakatni burish yoki uzish kerakligi, harflarning yozuv chizig‘i bo‘ylab joylashishi haqida nazari va amaliy tushuncha va malakalarni rivojlantirish.

Avval nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo‘lni yurgizib, so‘ng namunaga qarab o‘qishga o‘rgatish.

Harflarning shaklini tasavvur orqali yozdirish asosida yozuvga o‘rgatish.

Bir va undan ortiq bo‘g‘inlardan tashkil topgan talaffuzi va yozilishi bir xil so‘zlarni, 2-3 so‘zdan tuzilgan gaplarni eshitib yozish.

So‘z va gapni to‘g‘ri yozish. (Gapning birinchi so‘zini bosh harf bilan yozish, so‘ngiga tinish belgisini (nuqta) qo‘yish).

Eshituv va ko‘ruv xotirasiga asoslangan kichik diktantlar yozish.

O‘qish ko‘nikmalari

O‘quv yilining ohirida 20-25 so‘zli matnni to‘g‘ri ongli, bo‘g‘inlab o‘qish;

Bir bo‘g‘inli va sodda tuzilishdagi ikki bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qish;

Notanish matnni o‘qish tezligi 10-15 so‘z

O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga oid ta’limiy ishlarni amalga oshirish.

O‘quvchilar bilan rasmlar asosida hikoya tuzish:

- Alifbe darsligi va sinfdan tashqari mashq‘ulotlarda o‘rganilgan o‘quv materiallarini qayta hikoyalash;
- Savollarga javob berish;
- Adabiy nutq me’yorlarini amaliy jihatdan o‘rgatishga e’tibor qaratish (bu sohada o‘qituvchi va logoped nutqi o‘quvchilar uchun namuna bo‘lishi kerak);
- Topishmoq, maqol, hikmatli so‘zlar ustida ishlash (darslik materiallari va sinfdan tashqari o‘qish uchun tanlangan o‘quv materiallari asosida);

- Kichik guruuhlar bilan ishlashda sinf o'quvchilarini aqliy-intellektual jihatdan yaxshi, orta, sust ozlashtiruvchilar guruuhlariga taqsimlash, guruhlarga bog'lanishli matn tuzishga oid muammoli topshiriqlar berish, guruuhlar javobini sharhlash, rag'batlantirish;
 - Yakka tartibda logopedik (individual) ishlarda o'quvchida o'z nuqtini rivojlanterib borishga ishtiyoq uyg'otish (lug'at daftari, yangi she'r, hikoya, ertak mutolaasi asosida); nuqsonlarni tuzatish.
- Oqituvchi yordami bilan 3- 4 sodda she'rlarni yod oldirish.

Lug'at ustida ishlash. O'quvchilar nutqini boyitish, ular nutqida kam qo'llaniladigan so'zlarni faol qo'llashiga erishish.

Alifbedan keyingi davr yordamchi mehnat tya'limi mактабида iкkinchi sinfda amalgalashadi. UshHbu davrning vazifasi- birinchi sinfda olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, takomillashtirish.

Shunday qilib, yordamchi mehnat ta'limi mактабида Savod o'rgatish ishlari alifbegacha, alifbe va alifbedan keyingi davrlar bo'yicha amalgalashadi. Savod o'rgatishning alifbe davrida harflar to'rt bosqich bo'yicha soddadan murakkabga qarab o'rgatiladi. Aqli zaif bolalar alifbe davridagi o'qish va yozuv darslarida o'zlashtirishi lozim bo'lgan barcha bilim, ko'nikma va malakalar nafaqat ta'limiy va tarbiyaviy, balki korreksion ahamiyatga ham ega. Har bir darsda bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklari izchillik bilan bartaraf etib boriladi.

2.4.Yordamchi mehnat ta'limi mактабида savod o'rgatish usullari

Reja

- 1.Yozma nutq mehanizmlari deganda nimani tushunasiz?
- 2.Savodli kishining o'qishi harflarni yangi o'rgangan bolaning o'qishidan nima bilan farq qiladi? Nima uchun?
- 3.Savod o'rgatish davrida qanday usullar ishlataladi?
- 4.Tahlil-tarkib usuli bilan ish qanday tashkil etiladi?

Yordamchi mehnat ta'limi mактабида savod o'rgatish usullari savod o'rgatish ishlarning mazmuni, mohiyati, aqli zaif bolalarning rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlardan, yozma nutqni hosil bo'lishi mezanizmlaridan va o'zbek tili tovushlarning fonetik hususiyatlardan kelib chiqadi.

Nutqning psihofiziologik mehanizmlari A.R. Luriya, A.N. Gvozdev, V.I. Jinkin, T.YE. Yegorov, V.G. Petrova, L.S. Vigotskiy, G'oziyev E.. R.I. Lalayeva, L.N. Yefimenkova, I.N. Sadovnikova va bosh?alar tomonidan o'rganilgan. T.YE. Yegorov fikricha savodni endigina

o'zlashtira boshlagan bolaning o'qishi, masalan, 2 -sinf o'quvchisining o'qishidan keskin farq qiladi. Savodli kishi asosan sidirg'asiga o'qiydi. Uning nigohi chiziqdandan chiziqa o'tadi. Bunda u butun so'zlarni yoki gaplarni bir qarashda ko'radi va o'qiydi, shu vaqtini o'zida uning ma'nosini anglab oladi, tinish belgilariga rioya qiladi. Matn ichidagi parchalarni, qismlarni ayrim harflar asosida idrok etadi va ajratadi.

Lekin bu harflarni o'qish jarayoni, endigina o'qiy boshlayotgan bolalarda o'zgacha kuzatiladi - so'zlarni harf tuzilishiga asoslangan o'qishdan keskin farq qiladi. Savodli kishi murakkab matnni o'qiganda o'qish sur'ati sekinlashadi, har bir harfni o'qishda to'htaydi. Matn ichida uchraydigan so'z va iboralarni ham natijada hatosiz, to'g'ri o'qiydi. Matn mazmuni o'qish tezligiga ta'sir ko'rsatadi. Matn mazmuniga ko'ra hali o'qilmagan so'zlar fahmlanadi. Shuning uchun alohida so'z va gaplarni o'qishdan ko'ra bog'langan matnni o'qish osonroq.

Savodni endigina o'zlashtirib kelayotgan bola matnga butunlay boshqacha munosabatda bo'ladi. U o'qilayotgan matnni sidirg'asiga yoki hattoki bo'g'inlab ham o'qiy olmaydi. Uning ko'ziga so'zlar emas, yonma - yon turgan belgilar(harflar) ko'rindi holos. Natijada har bir harf ustida to'htalib, ayrim hollarda esa, qayta takrorlab o'qiydi. Savodi endigina chiqarilayotgan va savodli kishilarning o'qishi quyidagilar bilan farqlanadi:

1. savodli kishi bir qarashda bir necha so'z va gaplarni o'qiy olsa, bиринчи синф о'кувчиси гар бир гарфни бирма- бир ко'здан кечиради.
2. Savodli kishi o'qish vaqtida turli usullarni qo'llay olsa, yangi o'qishni o'rganayotgan o'quvchining tajribasi kam, har hil usullarni qo'llay olmaydi va natijada yangi notanish so'z va iboralarni hato bilan o'qiydi
3. Savodli kishi harflarni ko'zi bilan idrok etib, o'qiganlarini talaffuz etmasdan oldin tushunib oladi, natijada o'qish tehnikasi, sifati kun sayin oshib boradi. o'qishni o'rganayotgan bola o'qib bo'lgach, nima haqida o'qiganligini farqlab oladi va tushunadi.

Savod o'rgatish usullari masalasi bo'yicha o'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki. ushbu masala nihoyatda murakkab bo'lgani uchun u keng tarzda psiholog, pedagog, oligofrenopedagog, logoped, metodistlar tomonidan o'rganilgan, ko'p qirrali muammo ekan. Ushbu muammo Rusiya olimlari, Pribaltika va Belorusiya mutahassisllari tomonidan keng o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida bu muammo bo'yicha Abdullayeva Q., G'affarova N., Gulomova H., Gulomov M. Rahmanova V.S., Ayupova M.YU., Muminova L.R. Kahramonova M.T., Saidazizova S. kabi va boshqa olimlar ishlaganlar.

Atrofdagi narsa va hodisalar yuzasidan turli savollar berishga o'rgatish, muloqat nutqini o'stirish maqsadida **suhbat**, **kuzatishlar**, **sayohat** singari usullar keng qo'llaniladi.

Savod o'rgatish davrida aqli zaif o'quvchilar berilgan savollarga Qisqa, to'liq bo'limgan javoblar beradilar. har bir mashg'ulotda to'g'ri, to'liq javoblar talab etiladi. Bolalar faoliyati asosida ular bajarayotgan ishlari, nima qilmoqchi bo'lganliklari, sinfda va sinfdan tashqari joylarda ko'rgan, eshitganlari haqida **bayon etishga** o'rgatish talab etiladi. Nutq o'stirishda ertak ustida ishlash, she'r, topishmoq, tez aytishlarni o'qituvchi **ovozidan yod oldirish**, **multiplikatsion filmni namoish etish**, **audioapparutura yordamida materialni eshittirish**, **kichik asarlarni sahnalashdirish**, **didaktik o'yin, yangi inovatsion** usullaridan ham keng foydalanish zarur.

Alifbegacha bo'lgan propedevтиk davrdan boshlab bolalarni eshituv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bola nutq tovushlarini eshitish yo'li bilan **tahlil qiladi**, o'zlashtiradi. Bu ishlar ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: 1. Fiziologik eshitishni o'stirish, 2. Fonematik eshitish, nutqiy idrokni rivojlantirish.

Fiziologik eshitish - bu nutqdan tashqari barcha tovush va shovqinlarni eshitish qobiliyati bo'lsa, fonematik eshitish - nutqdagi tovushlarni - fonemalarni eshita bilish, ularning sifatini aniqlay olish. gap, so'z, bo'g'in ichidan ajratib olish va aksincha, biriktirish - fonemalardan bo'g'in, so'z, gap tuzish qobiliyatidir. Fonematik idrok analiz va sintez yoki **tahlil va tarkib** usullari asosida tarkib topadi.

Eshitish idrokini rivojlantirishda o'quvchining eshitish diqqati, hotirasи mustahkamlanadi. Boalalar amaliy mashqlarda so'z, bo'g'in, tovush haqidagi tushunchalarni o'zlashtirib oladilar. Ular o'qituvchining savol, topshirig'i asosida gap tuzishga, uni tahlil qilishga - bo'g'lnlarga bo'lish. gapda nechta so'z borligini aniqlash. so'zni bo'g'lnlarga, bo'g'inni esa tovushlarga ajratish. so'z boshida. ohirida yoki o'rtasidagi tovushni ajratish, nechta tovushdan iborat ekanligini aniqlashga o'rganadilar. Barcha ishlar buyum, predmetli va sujetli. seriyali sujetli rasmlar asosida amalga oshiriladi. Analiz - sintez qilishga o'rgatishda shartli belgilari, kesma harf va bo'g'inlar ishlatiladi.

Savod o'rgatishda ko'rish idroki, fazoviy idrokaqli zaif bolada yaxshi rivojlanmaganlikni inobatga olib, rang va shakllarni ajrata olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bolalarning ko'rish nigohi tor bo'ladi. Shuning uchun bu borada ham ma'lum ishlar olib borilishi lozim. Geometrik figuralarni rang va shakli bilan ajrata olishga, ularni ma'lum

yo'nalishda, tartibda ko'rib, kuzatishga, hoshiyalar chizishga o'rghanadilar. Mashqlar berilgan **na'muna asosida, eslab qolgan holda va keyinchalik tushuntirish usullari** bilan bajartiriladi.

Yozishga o'rgatishda bolani qalam, ruchka bilan andaza (shablon), trafaret asosida geometrik shakllarni chizish va bo'yash, harf qismlariga o'xshash shakldagi hoshiyalar, rasmlar chizish, so'ngra esa harf shakllarini yozishga o'rgatish usullari keng ishlatiladi.

Shunday qilib, yordamchi mehnat ta'limi mакtabida savod o'rgatishda tahlil-tarkib, suhbat, savol-javob, amaliy ishlar, ekskursiya va kuzatish usullari, namunaga qarab ishni bajarish, shartli belgilari, kesma harflar, andozalar bilan ishlash, o'qituvchi ovozidan yod oldirish, kichik asarlarni sahnalashtirish, na'muna asosida, eslab qolgan holda va keyinchalik tushuntirish kabi va boshqa usullar ishlatiladi. Savod o'rgatish davrida bajariladigan barcha ishlar negizida nutqdan gapni, gapdan so'zni, so'z ichidan bo'g'inni, bo'g'in ichidan tovushni ajratish, va aksincha, tovushdan bo'g'in, bo'g'indan so'z, so'zdlardan gap, gaplardan jumla tuzish, yaa'ni tahlil-tarkib usullari yotishi maqsadga muvofiqdir.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

- 1.Abdullayeva Q. Savod o'rgatish. T.,1996
- 2.Aksyonova A.K. Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole.-M.,Prosveshcheniye,2004
- 3.Boshlang'ich mакtabning davlat ta'lim standartlari. RTM, T.,2006
- 4.Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.-T.1985
- 5.V. V. Voronkova Obucheniye gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassah vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveshcheniye,1988
- 6.Obucheniye uchashihhsya 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole Pod redaksiyey Petrovoy V.G. Moskva, Prosveshcheniye, 1992.
- 7.Yordamchi maktablar uchun ona tili, o'qish va nutq o'stirish dasturi. Tuzuvchi V.Rahmanova. T.,2003
- 8.Pulatova F.M. Oligofrenopedagogika T, 2006.
9. Rahmanova V.S.Mahsus pedagogika T.2005
- 10.Rahmanova V.S.Ona tili o'qitish mahsusus uslubiyati. T.,2003
- 11.G'ulomova H., Yo'ldosheva SH. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. (ma'ruza matni T.,2003
- 12.G'ulomova H.,Gofforova Savod o'rgatish T.,1996

3 bob. Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qishga o'rgatish va nutq o'stirish metodikası

3. 1. Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarining ta'limiy tarbiyaviy, korreksion vazifalari

Reja

1. Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarining ta'limiy vazifasi
2. Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarining mazmuni
3. Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarining tarbiyaviy vazifasi
4. Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarining korreksion vazifasi

Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarida bolalarни төгөри, оңгли, теz, ifodali o'qishga o'rgatish, ovoz bilan ovozsiz o'qish, o'qilgan matn mazmunini o'qituvchining savollari yordamida, rasmlar asosida so'ngra mustaqil bayon etishga o'rgatish talab etiladi.

O'qish uchun kichik hikoyalar, she'r, masal, maqol, o'zbek va chet el yozuvchilari asarlari, o'quvchilar ongiga mos keladigan ro'znama va oynomalardan matnlar ishlataladi.

O'qishga o'rgatish jarayonida bolalar tarbiyalanadilar, ma'naviyati oshadi, ijobji hislatlari, dunyoqarashi tarkib topadi, odob va axloqni o'rganadilar, ularning shaxsi shakllanib boradi. Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarining tarbiyaviy vazifasi - buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, o'quvchilarda istiqlol g'oyalarini tarkib toptirish, shakllantirish, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishini ta'minlash.

Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qishga o'rgatish jarayonida aqli zaif bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar keng tarzda amalga oshiriladi. Bu ishlar bola nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatib borishdan iborat. Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarida o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlari tuzatib boriladi, bartaraf etiladi, ko'zga ko'rinxaymaydigan darajagacha yumshatib boriladi.

Yordamchi mehnat ta'limi məktəbida o'qish darslarining ta'limiy vazifasi bilan birga tarbiyaviy vazifalari ham amalga oshiriladi.

O'qish darslari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish borasida eng qulay predmet bo'lib hisoblanadi. O'qish darsida ishlataladigan kichik xikoya,

she'r, masal, topishmoq, tez aytishlar, rivoyat, xadislardan namunalar, yirik badiiy asarlardan parchalar, ilmiy-ommabop ishga doir maqolalar o'quvchilar yoshi, ongiga mos keladigan badiiy asarlardan namunalar, bola shaxsini shakllantirib boradi, uni axloq va odobga o'rgatadi, ularning milliy mafkurasini, ma'naviyatini shakllantiradi. O'qishga o'rgatish jarayonida o'quvchilar tarbiyalanadi, ma'naviyati oshadi, dunyoqarashi kengayib, ijobiy hislatlari tarkib topadi. O'qish darslarida o'quvchilar inson qadrini, millat qadriyatlarini, o'zligini anglab, erkin va ozod jamiyatda yashash, o'z o'mini jamiyatda egallash uchun fidoiylik bilan kurashish, mehnat qilish lozimligini o'rganadilar.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida o'qish darslarida ta'limiy va tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda korreksion ishlar ham keng tarzda amalga oshiriladi. Bu ishlar o'quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish, bartaraf etish, kamaytirishdan iborat. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida o'qish darslarida o'quvchilar nutqidagi kamchiliklar bartaraf etiladi, nutqi o'stiriladi, tafakkuri rivojlantiriladi, diqqati, xotirasi, idroki, tasavvuri va boshqa psixik jarayonlaridagi o'ziga xos kamchiliklar tuzatiladi, bilish faoliyati takomillashtiriladi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida o'qish darslarida o'qishga o'rgatish ishlarini oligofrenopedagogikaning tamoyil, metod, usullari, tashkiliy formalari asosida amalga oshirish zarurligi oligofrenopedagogikaga oid adabiyotlarda ta'kidlangan. Olimlardan Dulnev G. M., Zamskiy X. S., Graborov A. N. va boshqalar yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarini to'g'ri o'qishga o'rgatish uchun ularning psixologik xususiyatlari, ish qobiliyati, qiziqishi, imkoniyatlari kabi va boshqa ruhiy holatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatib, o'z asarlarda bu ishni tashkil etish shakllari, tamoyillari, usullarini yoritib bergenlar.

3. 2. Yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarida o'qish malakalarini shakllantirish yo'llari.

Reja

1. Aqlan zaif o'quvchilarda o'qish malakalarini o'zlashtirishda kuzatiladigan qiyinchiliklar.
2. Yordamchi mehnat ta'limi maktabi dasturining «O'qishga o'rgatish va nutq o'stirish» bo'limida o'qish malakalariga qo'yiladigan talablar.
3. Aqlan zaif o'quvchilarni ongli o'qishga o'rgatish yo'llari.

4. O'quvchilarni to'g'ri o'qishga o'rgatish metodikasi.

5. Tez, ifodali o'qishga o'rgatish yo'llari, usullari.

To'laqonli o'qish malakalarini shakllantirish uchun bolani ongli, to'g'ri, tez va ifodali o'qishga o'rgatish talab etiladi. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ushbu ta'limi ishlar tarbiyaviy va korreksion vazifalarni bajarish bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Bolaning og'zaki nutki kanchalik yaxshi bo'lsa, qanchalik u yaxshi gapirsa, ta'lim jarayonida shunchalik to'g'ri, xatosiz o'kiydi va yozadi. O'qishga o'rgatish ishlari savod o'rgatishda boshlangan bolalarning og'zaki nutkini o'stirish, ko'rish, eshitish kobiliyatini rivojlantirish, fazoviy idrokini o'stirish, barcha psixik jarayonlar: dikkat, tafakkur, idrok, xotira, nutk, his-tuyg'ular, hisyot, analiz sintez kilish malakalarini tarkib toptirishga qaratiladigan ishlar davom ettiriladi. O'qituvchi nutk o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, ritmika, ko'l mehnati, tasviriy san'at va boshka o'quv reja bo'yicha o'tkaziladigan darslarda yukorida kayd etilgan yozma nutkdagi kamchiliklarni oldini olish ishlarini izchillik bilan amalga oshiradi. Xar bir dars o'zining samaradorligi va ijobiy natijalari bilan bir-biridan fark kiladi.

O'kish va yozuv buzilishlarining mexanizmi ko'p jixatdan bir-biriga o'xshashdir. Shuning uchun ularni oldini olish, bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan ishlari metodikasi ham o'xshash.

Logopediya fanida o'qish va yozishda kuzatiladigan nuqsonlar disgrafiya, agrafiya va disleksiya, aleksiya atamalari bilan nomlanadi. Yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilari orasida disgrafiya va disleksiya deyarli barcha bolalarda kuzatiladi. Olimlardan M. YE. Xvatsev, R. YE. Levina, F. A. Rau, R. I. Lalayeva, I. K. Sadovnikova, L. N. Yefimenkova, R. M. Boskis va boshkalar yozma nutkdagi kamchiliklarni ogzaki nutkning yaxshi rivojlanmaganligi natijasida yuzaga keladigan nukson deb bilib, artikulyator-akustik, optik, motor disleksiya va disgrafiyani oldini olish va bartaraf etishda eshitish diqqati, fonematik idrokni: ko'rish analizatorining faoliyatini va mayda qo'l muskulari motorikasini rivojllantirishni tavsiya etganlar. Tovushlarni bir-biridan farklash va mustaxkamlash bo'yicha olib boriladigan ishlar turli analizatorlar(nutkni harakatga keltiruvchi, eshituv, ko'ruv)ga tayangan xolda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Xuddi shu ishlar yordamchi mehnat ta'limi maktabining savod o'rgatish darslarida, o'qish va yozuv darslarida boshlang'ich va yuqori sinflarda ham olib boriladi.

Tahlil-tarkib usuli o'qish darsining xar bir bosqichida ishlataladi. Fonetik, morfologik, sintaktik tahlildan so'ng o'qish, matnni tahlil etish, so'zлами bir biridan ajratish, narsa nomi, harakati, belgisini bildiradigan so'zлами guruxlarga jamlash, gap tuzish va shu kabi dastur bo'yicha olib boriladigan ishlar o'quvchilarning nafaqat analiz-sintez qilish malakalarini, balki kuzatuvchangligi, diqqati, tafakkuri, idroki va boshqa psixik jarayonlarning rivojlanishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini korreksiyalash imkonini beradi.

Nutq va tafakkur bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar. Ularning biridagi nuqson ikkiinchisiga albatta ta'sir ko'rsatadi. Aqli zaif bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklar birlamchi hodisa sifatida kuzatiladi. Markaziy nerv sistemasidagi organik jaroxatlanishi natijasida bilish faoliyati turg'un buzilgan bo'ladi va uning oqibatida bolaning nutqida ikkilamchi hodisa sifatida nutq nuqsonlari kuzatiladi. Bolaning bilish faoliyatidagi nuqsonlari bartaraf etilgani sari, nutqidagi kamchiliklar ham kamayib boradi va aksincha.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilar bilish faoliyatining rivojlanish xususiyatlari oligofrenopsixologiya fanida mukammal o'r ganilgan. S. SH. Aytmetovaning «Yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari» nomli kitobida aqli zaif debil o'quvchilarning tafakkuri, idroki, xotirasi, diqqati, nutqi, tasavvuri va bilish faoliyatining boshqa tomonlari batatsil yoritib berilgan.

Muammoning psixologik asoslari D. N. Bogoyavlenskiy ,L. S. Vigotskiy, A. S. Davidov., F. Talizina, D. V. Elkonin, S. YA. Rubinshteyn, . L. R. Luriya kabi va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida uzining aniq ifodasini topgan. Ularning fikricha, aqliy rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda t'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, takomillashtirish mumkin. Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati o'zgacha bo'lsada, uning potensial imkoniyati baland. To'g'ri tashkil etilgan korreksion rivojlantiruvchi ta'lim tarbiya jarayonida yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilariga mustaqil hayotda zarur bo'lgan xajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatish mumkin. Maxsus sharoitda va maxsus usullar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini orqali debil bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklari bartaraf etiladi, psixofiziologik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklari korreksiyalanadi. Oligofrenopsixologlarning ta'kidlashicha. (Zankov L. V. Pinskiy B. I.. Petrova, V. G.. Belyakova I. A.. Rubinshteyn S. YA.,

Aytmetova S. SH. va boshqalar) debil bolalarning kuzatish, taqqoslash, idrok qilayotgan narsalarning, voqeа-hodisalarning muhim tomonlarini ajratib kuzatish, bular o'rtasidagi eng oddiy sabab-natiya bog'lanishlarini faxmlab olish qobiliyatları rivojlanmay qoladi. Debil bolalarning tafakkuri, diqqati, sezgi va idroklari, xotirasi, analiz va sintez qilish qobiliyatları ham yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Savod o'rgatishning dastlabki davridayoq bu bolalar tovush va xarf o'rtasidagi bog'lanishlarning farqiga yaxshi bormay, xarflarni eslab qolish, bo'g'inlab o'qish, ongli, to'g'ri, tez o'qish malakalarini o'zlashtirishda qiynaladilar, juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar.

Nerv jarayonlari muvozanati, bilish faoliyatining buzilganligi natijasida oligofren bolalarning xulq-atvorida ham bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Qo'zg'алиш va tormozlanish o'rtasidagi muvozanat buzilganligi tufayli ayrim bolalar xaddan tashqari jonsarak, serharakat, sho'x bo'ladilar va aksincha, tormozlash jarayoni ustun turgan bolalarda esa passivlik, bo'shanglik, beparvolik, xech narsaga qiziqmaslik kuzatiladi va xokazo.

Oligofren bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, xatti harakatlarini vaziyatga qarab, adekvat o'zgartira olmaydilar. Ularda o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. O'kish va yozuv buzilishlarining mexanizmi ko'p jixatdan bir-biriga o'xshashdir. Shuning uchun ularni oldini olish, bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan ishlari metodikasi ham o'xshash.

Logopediya fanida o'qish va yozishda kuzatiladigan nuqsonlar disgrafiya, agrafiya va disleksiya, aleksiya atamalari bilan nomlanadi. Yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilari orasida disgrafiya va disleksiya deyarli barcha bolalarda kuzatiladi. Olimlardan M. YE. Xvatsev, R. YE. Levina, F. A. Rau, R. I. Lalayeva, I. K. Sadovnikova, L. N. Yefimenkova, R. M. Boskis va boshkalar yozma nutkdagi kamchiliklarni ogzaki nutkning yaxshi rivojlanmaganligi natijasida yuzaga keladigan nukson deb bilib, artikulyator-akustik, optik, motor disleksiya va disgrifiyanı oldini olish va bartaraf etishda eshitish diqqati, fonematisk idrokni; ko'rish analizatorining faoliyatini va mayda qo'l muskulari motorikasini rivojllantirishni tavsiya etganlar. Tovushlarni bir-biridan farklash va mustaxkamlash bo'yicha olib boriladigan ishlar turli analizatorlar(nutkni harakatga keltiruvchi, eshituv, ko'ruv)ga tayangan xolda olib borilishi maqsadga muvofiqdır. Xuddi shu ishlar yordamchi mehnat ta'limi maktabining savod o'rgatish darslarida, o'qish va yozuv darslarida boshlang'ich va yuqori sinflarda ham olib boriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan bilish faoliyatidagi bir qator kamchiliklariiga qaramay, yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilari bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishlari natijasida ulami ongli, to'g'ri, z, ifodali o'qishga, hayotda zarur bo'lgan xajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni xosil qilish yo'li bilan mustaqil hayotga tayyorlash, kasbxunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishish mumkin.

O'qish murakkab malaka bo'lib, uning shakllanish jarayonini metodist Yegorov T. G. uch bosqichga bo'ladi:

1. Analitik bosqich. Bunda bolalar so'zлarni bo'g'inlab o'qish ko'nikmasini egallaydilar.
2. Sintetik bosqich. Bu bosqichda so'zni sidirg'asiga o'qish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bunda bir qarashda bir necha so'zni ko'ra olish, uning ma'nosini anglash va to'g'i talaffuz etish ko'nikmasi paydo bo'ladi.
3. Avtomatlashgan o'qish. Bunda faxmlab o'qish ko'nikmasi shakllangan bo'ladi. So'zning birinchi qismini ko'riboq, bola faxmlab, uning keyingi qismini matn mazmuniga ko'ra tushunib olaveradi. Asar mazmunini tahlil etish ishlari o'qish malakalarini takomillashtiradi. Bola uchun tanish bo'lgan mazmundagi matnni ongli, to'g'ri, tez, ifodali o'qish ancha oson.

Ongli o'qish - anglab. tushunib o'qish demakdir. Yordamchi maktabda ham ongli o'qishga o'rgatishda matnni o'zlashtirishga tayyorlash, lug'at ustidagi ishlari dastlab matnni o'qituvchi tomonidan namunali ifodali o'qish, o'quvchilarga matnni o'qitish, qayta o'qishdan so'ng o'qilgan parcha mazmunini tahlil etish, reja tuzish, qayta xikoyalash, ijobjiy va salbiy obrazlarni aniqlash, asar qahramonlarini ta'riflash kabi va boshqa boshlang'ich maktabda ishlataladigan usullar keng ishlataladi. Biroq bu usullar yanada ham soddalashtiriladi, ish turlari kengaytiriladi. ko'rgazmali qo'rollar ko'proq ishlataladi va x. k.

To'g'ri o'qish - xatosiz o'qishdir. Aqli zaif o'quvchilar o'qish vaqtida xarflarni tushurib, o'rnini almashtirib, so'z tuzilishini buzib, o'qigan joyini yo'qotib va boshqa shu kabi xatolarga yo'l qo'yib o'qiydilar. Ushbu xatolar ongli, to'g'ri o'qishni o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak to'g'ri o'qish -bu so'zning tovush tuzilishini buzmay o'qish demakdir. To'g'ri o'qishga o'rgatish ishlari 1-3 sinflarda ko'proq amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu davrda aqli zaif o'quvilar xarflarni idrok etib, avval bo'g'inlab, so'ngra sidirg'asiga o'qishga o'rganadilar. To'g'ri o'qishga o'rgatish uchun matn ichidagi qiyin

bo'g'in, so'z, iboralarni oldindan o'qishga odat qildirish uchun xar kuni maxsus mashqlarni o'tkazish talab etiladi. Mashqlarda bo'g'in va so'zlarni to'g'ri idrok etish, o'qishga o'rgatish orqali ko'rish va eshitish, nutqni harakatga keltiruvchi analizatorlar o'rtasidagi bog'lanish o'rnatiladi, mustaxkamlanadi. O'xshash bo'g'in, so'zlarni ajratish, farqlash, bo'g'in va so'z obrazlarini xotirada saqlash, idrok etish va anglashlarni bir butun jarayonga aylantirish ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun turli bo'g'in, so'z, gap jadvallari ishlataladi: paronim so'zlar jadvali (gul, kul, bosh, tosh, zina, sina) ; a, o,u,i,o', e unlisi ishtirokidagi ochik, yopiq bo'g'inlar; jadvaldagi ustunlarda bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli, uch bo'g'inli va x. k. so'zlar; o'zakdosh so'zlar jadvali; bo'g'in va so'zlarni bosqichma-bosqich o'qitishga mo'ljallangan jadval (o- to-sto-stol; u-stu-stul; a-ra-tra-tram-tramvay va x. k.) va shu kabilar.

Tez o'qish - bu jonli nutq sura'tidagi, anglash talaffuzdan oldin yuradigan o'qish. O'qish tezligi ongli va ravon o'qishni ta'minlaydi. O'qish tezligini oshirish uchun mumkin qadar ko'proq o'qishga mashq qilish; bir matnni turli yo'llar bilan o'qitish; matn boshida, o'rtasida, oxirida nima haqida yozilganligini aniqlay olish, ya'ni qayerda nima haqida gap ketayotganligini aniqlash hamda to'g'ri o'qishga o'rgatish usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar miqdori bilan belgilanadi. Davlat ta'lif standartlarida me'rda rivojlangan sog'lom bolalar o'qish tezligiga kuyidagi talablar qo'yilgan: 1 sinf o'quvchilari - yil oxirida bir daqiqada 20-25 so'zni o'qishi lozim.

2 sinf - 40-50

3 sinf – 65-70

4sinf - 80-90 so'z.

Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ushbu ko'rsatkichlarga 9 yil mobaynida erishish mumkin.

Ifodali o'qish – bu intonatsiyaning turli vositalari yordamida asar mazmuni va unda ifoda etilgan his-tuyg'ularni tushunib o'qish demakdir. Ifodali o'qishda ma'lum tezlik, mantiqiy pauza, tinish belgilariga rioya qilgan xolda o'qish muhim. Buning uchun so'zlarni aniq, ravon, to'g'ri talaffuz etib, asar mazmunini tushunib, ongli o'qish, unda ifoda etilgan qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini, ruxiy kayfiyatlarini
anglab o'qish demakdir.

Ifodali o'qishga o'rgatish ish turlariga kuyidagilarni kiritish mumkin: to'g'ri nutqiy nafas olishni tarbiyalash; diksiyani ishlab chiqish;

tovush, bo'g'in, so'z, gap, she'riy asar, tez aytishlar bilan artikulyatsion mashqlar o'tkazish; xor bo'lib o'qish; ko'rsatilgan ifodali o'qish namunasiga taqlid etish; rollar bilan o'qish; drammatizatsiya, saxnalashtirish usullaridan foydalanish; ayrim intonatsiya turlaridan ongli foydalana olishga o'rgatish mashqlari; ovoz ustida ishlash va boshqalar.

Savol va topshiriqlar

1. Aqlan zaif o'quvchilarda o'qish malakalarini o'zlashtirishda qanday qiyinchiliklar kuzatiladi?
2. Yordamchi mehnat ta'limi maktabi dasturining «O'qishga o'rgatish va nutq o'stirish» bo'limida o'qish malakalariga qanday talablar qo'yilgan?
3. Aqlan zaif o'quvchilarni ongli o'qishga o'rgatishda qanday usullar qo'llanadi?.
4. O'quvchilarni to'g'ri o'qishga o'rgatish metodikasini yoritib bering.
5. Tez, ifodali o'qishga o'rgatish yo'llari, usullari qanday?

3. 3 Aqli zaif o'quvchilarni ovoz bilan va ovozsiz (nchda) o'qishga o'ratish yo'llari.

Reja:

- 1.Ovoz bilan uqishga o'rgatish.
- 2.Ovozsiz (ichda) o'kishga o'rgatish.
- 3.Ovozsiz o'qishga o'rgatish
- 4.Ovozsiz o'qishga o'rgatish usullari.

O'qish jarayoni ikki asosiy yul bilai: ovoz chiqarib uqish va ichda o'qish yo'li bilai amalga oshiriladi. Ovoz bilan o'qish materialni to'liq va ongli uzlashtirishga yordam beradi. Ovoz chikarib ukishda ukuvchi asar mazmunidan zavhanadi, uni estetik jidotdan his qiladi, bu uz navbatida ifodali ukish malakasini mustaxdsamlashga imkon beradi.

Ovoz chikdrib uqishda ukuvchi uzini hamita nazorat kilib boradi, tinglovchilar tomonidan xato va kamchiliklari payqalanishi va tugilanishi mumkinligini xisis etib ukiganligi uchun, u matnni kuprok e'tibor bnlan ukishga intiladi. Ovoz chiqarib uqish matnni ukiyotgai u^uvchida ham siifdag'i ukuvchi boshka bolalarda ham xatosiz, tukri

ukish malakalarnni shakllantiradn, diqqatinn bir markazga tuplashga, xatolarni birgalashib tuzatishga o'rgatadi.

Ovoz chiqarib ukishda bir necha usullardan foydalanish mumkin: yakka-yakka ukish, xor bilan uqish, rollarga bulinib uqish, deklomaqiya k^igish va x. k.

Inson hayotida ovoz chiqarib uqishga nisbatan, ichda ukish turi kuprok qullaniladi Ichda ukish ovoz chiqarib u^ish zaminida xosil buladi. Akli zaif ukuvchilarни ichda ukishga urgatish zarur. Akli zaif ukuvchilar ongli ukishni mustakil ravishda uzlashtira olmaganligi tufayli ichda ukish turini katta kiyinchiliklar bilan o'zlashtiradilar.

Ovoz bilan ukish-yordamchi mактабда eng kup kулланиладиган ukish turidir. Chunki ovoz bilan ukish matnni yaxshiroq tushunishga, uzlashtirishga yordam beradi. Ma'lumki, o'zlashtirish jarayonida qanchalik kup analizator nshtirot etsa, u shunchalik mustaxkam buladi. Ovoz bilan o'qiganda bolalar uzini nazorat kiladi, ifodali ukish kunikmasi xosil buladi. Umuman ovoz bnlan o'qish xar tomonlama foydalidir. Lenin amaliyotda biz asosan ovozsiz o'qish turini qo'llaymiz. Shuning uchun akli zaif bolalarni ovozsiz ukishga urgatmok zarur. Anli zaif bolalarda ongli o'qish malakasini o'zlashtirishda turli qiyinchiliklar kuzatilishi tufayli ichda o'qish kunikmasini ham ular katta kiyinchiliklar bilan o'zlashtiradilar.

Yordamchi maktab ona tili dasturi buyncha 3-sinf ukuvchilarни sodda matnni ichda ukib uning mazmuniga mos keladigan rasmlarni tanlashga, savollariga javob bera bilihiga urganipsh kerak. 4-sinfdan boshlab bolalar kuyidagi vazifalarni bajara olishlari lozim: 1. Ovozsiz ukib chikilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish; 2. Bir necha savollarga javob tayyorlash; 3. Matnni bayon kilib berish; 4. Berilgan reja asosida matnni qnsmlarga bo'lish; 5. Matn kismalarini nomlash; 6. Matn ichidan notanish so'zlarni topib daftarga yozish; 7. Matnni mustaqil ravishda qismlarga bulish va ularni nomlash va boshqalar. Ovozsiz ukish kunikmasi akli zaif bolalarda qanday xosil bulishini M. F. Gnyozdilovning bergen matlumotlaridan kurib chikish mumkin.

2- sinf O'quvchilarни ovoz bilan o'qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga 42% to'g'ri javob berdilar. Xuddi shunday matnii ovozsiz o'qib, uning mazmuni yuzasidan berilgan savollarga o'quvchilarning 26% tugri javob berdilar.

3-sinf: ovoz bilan 60 % ovozsiz 33%,

4-sinf: ovoz bilan 53% ovozsiz 47%,

5-sinf: ovoz bilan 69% ovozsiz 73 %

Demak, aqli zaif bolalar ham asta-sekin ovozsiz o'qish ko'nikmasini egallab, xattoki 5 sinfga kelganda ovozsiz o'qilgan matn mazmunini yaxshiroq o'zlashtira oladigan bo'lar ekan.

M. F. Gnezdilov fikricha ovozsiz o'qish ongli bulishi uchun, o'qituvchi matnni o'qishda dastlabki topshiriqlar berishi lozim. Bola matnni ichda o'qigandan sung shu dastlabki topshirinlar tekshiriladi.

Masalan: ukuvchilarga 2 ta bir-biriga uxshash matnlar berilgan edi. Birinchi matnni dastlabki topshiriqlar bilan ovozsiz 1 marta ukish kerak edi. Ikkinchisini esa 2 marta, lekin maxsus topshiriqlarsiz ichda o'qish kerak edi. Birinchi hodisada 64 % to'g'ri javob berildi, 2 hodisada esa atigi 36% bolalar tomonidan to'g'ri javob berildi. Mana shu misol yuqoridagi usul samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Ovozsiz (ichda) uqishga urtashida quyidagi usullardan ham foydalanish mumkin: 1. Doskada yozilgan topshiriqlarni ichda o'qib. so'ngra bajarish (m daftarni ko'rsat, qo'lingni ko'tar va x. k.)

2. Ichda uqilgan matn mazmunini ukuvchilardan biri bayon qiladi boshqalari esa to'ldiradi.

3. Doskada o'qituvchi tomonndan yozilgai savollarni sinf o'quvchilari ovoz chiqarib o'qiydilar, so'ngra matnni ovozsiz uqib, yuqorndagi savollarga javob beradilar.

4. Ichda o'qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob qaytarish.

5. Matn qismlariga yoki butun matnga oid rasm solish usuli.

6. Videofilm ko'rish vaqtida kadrlar tagidagi yozuvlarini (titrlarni ichda o'qib. so'ngra uning mazmunini batafsil bayon qildirish.

Savol va topshiriqlar

1. Ovoz bilan uqishga o'rgatish deganda nimani tushunasiz?

5. Ovozsiz (ichda) o'kishga o'rgatishning ahamiyati nimada?

6. Ovozsiz o'qishga o'rgatish yo'nalishlarini yoritib bering.

7. Ovozsiz o'qishga o'rgatish usullarini ta'riflang.

3.4. Maxsus maktabda ilmiy ommabop maqolalarni o'qishga o'rgatish yo'llari.

Reja

1. Ilmiy ommabop maqolalarni o'rganish ishlarining ahamiyati ya turlari

2. Tabiatshunoslikka doir maqolalar ustida ishlash yo'llari.

3. Tarixiy xarakterga ega bo'lgan maqolalar va ular ustida ishlash yo'llari.

4. Instruktiv xarakterdagi maqolalar va ular ustida ishlash usullari

5. Obyektlar bilan tanishtiruvchi maqolalar va ular ustida ishlash metodikasi.

Yordamchi matabning boshlang'ich sinflarida tabiatshunoslik, tarix, geografiya kabi fanlar o'tilmaydi. Ushbu fanlarni o'zlashtirishga tayyorlash, ularga doir o'quvchilarda elementar ilmiy asoslangan tushunchalarni shakllantirish maqsadida o'qish darsliklariga ilmiy ommabop ishga doir maqolalar kiritiladi.

O'quvchilarda borlik haqida aniq misollar asosida to'g'ri tushuncha va tasavvur xosil qilishda, ularni buyum va hodisalar bilan tanishtirish maqsadida, tabiat va jamiyatni o'zgartiruvchi kuchlar haqida ilmiy asoslangan tushuncha berishda ilmiy ommabop makolalarning ahamiyatn katta. Vatan, uning tabiatini, undagi voqeasi hodisalar, ijtnmoiy hayot, fan va texnika taraqqiyotni haqidagi maqolalarni o'qish jarayonida uquvchilarning mantiqiy tafakkuri, taqqoslash, umumlishtirish, xulosa chiqarish qobiliyatları o'sadi, so'z boyligi oshadi.

Ilmiy ommabop maqolalarni o'qitishdan maqsad: o'quvchilarni tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar, voqeasi - xodisalar, kishilar mex. nati x. aqidagi ilmiy asoslangan bilimlar bilan tanishtirish; ilgari va x. ozirda mamlakatimizda ro'y bergan tarixiy, nijtimony, siyosiy voqealar haqida to'g'ri tushuncha berish; turli obyektlar bilan tanishtirish; instruksiyalarni o'qnb, bajara olishga o'rgatish.

I Shunga ko'ra bu maqolalar tabiatshunoslikka doir, tarixiy, obyektlar bilan tanishtiruvchi va instruktiv xarakterdagi turlarga bo'linib o'rgatiladi. Turiga qarab darsda x, ar xil ish usullari ishlatiladi. Ekskursiya va kuzatishlardan sung maqola ustida ishlash ayniksa qulay.

Bola tabiatda ko'rgan kuzatganlarini maqoladagilar bilan solishtiradi, umumlashtiradi, taqqoslaydi.

Ilmiy-ommabop maqolalar til jix, atdan o'ziga xos xususiyatlarga ega: ularda maxsus va ilmiy atamalar ko'proq qo'llanadi, so'zlar aniq ishlatiladi, gaplar puxta tuzilgan bo'ladi. ta'riflar beriladn. Ushbu maqolalarda o'quvchilar uchun butunlay yangi, notanish bnlimlar beriladi. Shuning uchun maqolani o'qishdan avval uning mazmunnni o'quvchilar ongli idrok etishlariga yordam beradigan tayyorgarlik mashqlari o'tkaznladi. Ilmiy

ommabop maqolalar iiduktiv va deduktiv usullar orqali o'rgatiladi. Odatda bunday maqolalar snnfda mazmunan tugallangan qismlarga bo'lib o'qitiladi va qayta x;ikoya qildirish yo'li bilan tushuntirib boriladi. Maqola o'qib bo'lingach, odatda umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida yangi so'z, tushuncha, atamalar aniqlanadi, mustaxkamlanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Ilmiy ommabop maqolalarni o'rganish ishlarining ahamiyati nimada?
2. Ilmiy ommabop maqolalar turlari
3. Tabiatshunoslikka doir maqolalar ustida ishslashda qaysi usul va yso'llar ishlatalidi?
- 4 Tarixiy xarakterga ega bo'lgan maqolalar va ular ustida ishslash yo'llarini ta'riflang.
5. Instruktiv xarakterdag'i maqolalar va ular ustida ishslash usullari.
6. Obyektlar bilan tanishtiruvchi maqolalar va ular ustida ishslash metodikasi.

3. 5. Yordamchi mehnat ta'limi muktabida sinfdan tashqari o'qish.

Reja

1. Yordamchi mehnat ta'limi muktabida sinfdan tashqari o'qish ishlarining ahamiyati, maqsadi .
2. Sinfdan tashqari ishlari va sinfdan tashqari o'qish.
3. Sinfdan tashqari o'qish ni tashkil etish yo'llari.
4. Sinfdan tashqari o'qish burchagi.
5. Sinfdan tashqari o'qishni nazorat qilish yo'llari.

Ta'lim-tarbiya jarayoni sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan iborat. Sinf va sinfdan tashqari o'qish ishlari mazmunan bnr-birini to'ldiradi va muktab oldidagi vazifalarni to'liq amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Yordamchi mehnat ta'limi muktabida sinfdan tashqari o'qish ishlari uchinchi sinfdan amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari o'qish ishlari o'qish va nutq o'stirish dasturida ko'rsatilgan xajmdagi

materiallaridan ancha kengrok bo'lib, o'quvchilarning duiyoqarashini kengaytirishga, darsda olgan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishda katta yordam beradi. Sinfdan tanqari ishlar bolalarda mustaqillikni, ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantiradi, ularning fikrlash qobiliyati, xotirasini o'stiradi va o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishini oshiradi, axloqiy va ijtimoiy foydali mehnat faoliyati malakalarini shakllantiradi.

Sinfdan tashqari o'qish aqli zaif bolalarni mакtabni tugatgandan so'ngi mustaqil xayyotida kerakli bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda kitob, gazeta va jurnallardan topib o'qishga o'rgatishi lozim. Aqli zaif o'quvchilarda bilimga qiziqishning sustligi, sekin o'qishi, o'qilgan matn mazmunini tushuna olmasligi sinfdan tashqari o'qishni tashkil etishda va o'tqazishda qator qiyinchiliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabining dasturida ona tili va ukish darslari ommaviy mакtab ona tili va uqish dasturiga nisbatan qisqaroq berilgan. Shuning uchun darsdan tashqari vaqtarda o'quvchilar bilimini qo'shimcha manbalar bilan boyitish, oshirishga harakat qilish talab etiladi.

Yordamchi maktabda sinfdan taphari ishlar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda bu ona tili va sinfdan tashqari o'qish to'garagi.

Yordamchi maktabda yuqori sinf o'kuvchilari qatnashadigan bitta adabiyot tugaragi bulishi ham mumkin. Tugarak mashguloti ikki xafaftada ikki soatdan utkaziladi..

Adabiyot to'garagi akdi zaif o'quvchilari ta'limi va tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Bu turdag'i tugaraklar adabiyot kechalari, kitobxonlar konferenqiyasi, KVN, mushoiralarni o'tkazishda tashabbuskor bo'lishi kerak.

Adabiy ukish buyicha sinfdan tashqari ishlarning boshlang'ich zvenosi-sinfdan tashqari o'qish x. isoblanadi.

Bu ishlar nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Ularning bajarilishi sinflar buyicha tekshiriladi. Uqituvchi bolalar nnmalarni va qanday qilib o'qiyotganliklarini kuzatib, tekshiribgina qolmay, balki o'qishni ma'lum yo'nalnshda o'tishini ta'minlashi kerak.

Yordamchi mакtab o'qituvchisi shuni unutmasligi kerakki, o'qish uchun materialni to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega.

Ukituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradigan, tevarak-atrofni, dunyonи yanada ham yaxshiroq o'rganishga yordam beradigan asarlarni tanlab, ukuvchilarni aynan shu materialni uqishga

qiziqtiradi. Kitoblar o'quvchilarni vatanparvar, xalqparvar inson sifatida tarbiyalamog'i kerak.

Sinfdan tashqari o'qish asosiy o'qish uchun adabiyotlar ro'yxatini tuzishdan boshlaladi. Ro'yxat maktab kutubxonachisi bilan birgalikda dastur asosida tuziladi. Kitoblar ro'yxati tantanali kunlar va yilning fasllarini hisobga olgan x. olda faqat bir chorakka tuziladi. Barcha o'quvchilar uchun majburiy bo'lganligi tufayli ro'yxat qisqa bo'lishi kerak. O'zlashtirmovchi o'quvchilarga ro'yxatdagi kitoblarning ayrimlari, ulardan olingan parchalami o'qish topshirig'i beriladi.

Har bir sinfda "Sinfdan tashqari o'qish" burchagi bulishi kerak. Burchak xar xil nomlar bilan atalishi mumkin: "Biz o'qiyapmiz", "Kitob-bizning do'stimiz", "Kitobni seving-u bilim bulog'i" kabi va boshqalar.

Bu turdag'i burchaklarning tashkiliy maqsadi - bolalarda kitobga muxabbat uyg'otish. Burchakda sinf o'quvchilariga majburiy o'qish uchun berilgan kitoblar ro'yxati bo'lishi kerak.

O'qilgan kitoblarni nazorat qilish va hisobga olish tizimi x.xil bo'ladi. Burchakda xar bir o'quvchi uchun tutilgan kartochka bo'ladi va unda o'quvchi uqigan kitobning nomi va muallifi, uni o'qish muddati kursatilgan bo'lishi kerak.

Burchakda ro'yxatdai tashkri tavsija qilingan kitob, gazeta va jurnallar muk. ovalarini ko'rgazmasi va o'qnigan kitoblarni xisobga olish bo'yicha yuritilgan eng yaxshi daftarlar namunalari bo'lishi mumkin.

Sinfdan tashqari o'qish uchun 5-sinfdan maxsus daftar tutish tavsija qilinadi. O'qilgan asarlarni yozish daftarinu yuritish shakli keyingi sinflarda o'zgarib boradi.

Sinfdan tashqari o'qish uchun daftar yuritishning bir necha variantni keltirish mumkin. Hamma sinf uchun bu daftarning shakli bir xil-umumiylashtirilgan. Uchunsa daftarni o'rjasidagi 22 varaqning yuqorisidan 3 sm o'irqiladi. qirkilgan joyga asosan kitobni o'qish muddati, kitob nomi vanuallifi. asarda ishtiroy etuvchni qahramonlar va 4- sinfda masalan sizga aynan nima yoqdi? (yoqqan parcha daftarga qisqacha ko'chirib yoziladi). 7- sinfda o'qilgan asarning qisqacha mazmuni, 8- sinfda sizga yoqqan qahramonga tavsifnomasi yozing kabi grafalarni yozish mumkin.

O'qituvchi sinfdan tashqari o'qish daftarin uchun yuritish qoidalari bilan tanishtirib o'tganidan so'ng, o'quvchilar ularni mustaqil ravishda o'qilgan kitob nominni yozib borishadi. Ona tili o'qituvchisi daftarlarni

tekshirib bax. olab, eng yaxshilarini sinf va maktab ko'rgazmasiga qo'yiladi. Sinfdan taphari o'qish daftari va burchakdagi o'qilgan kitoblarni hisobga olish bulimi, o'quvchilarni kitob o'qishini, qanday kitoblar tanlayotganini kuzatishda yordam beradi. Agar ko'pchilik o'quvchilar bitta asarni o'qisalar, uni mux. okama qilish va kitobxonlar konferetsiyasini o'tkazish xamda tematik adabiy kechalar tayyorlash qulayroq bo'ladi.

Adabiy o'qish to'garagi qatnashchilarni kecha va konferenqiya, mushoira va boshqa shu kabi tadbirlarni tashkil qiladi va tayyorlaydilar. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar tadbirlar tadbirlar tuzib, kerakli materiallarni to'playdilar va ularni sinflar bo'yicha taqsimlaydilar.

Savol va topshiriqlar

1. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida sinfdan tashqari o'qish ishlarning ahamiyati, maqsadi nimada?
2. Sinfdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari o'qishning farqi nimada?
3. Sinfdan tashqari o'qish qanday tashkil etiladi?
4. Sinfdan tashqari o'qish burchagi qanday tuziladi?
5. Sinfdan tashqari o'qishni nazorat qilish yo'llari.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi-T. ,1984
2. Aksyonova A. K. Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole. - M. , Prosveshyeniye. 2004
3. Boshlang'ich maktabning davlat ta'lim standartlari. RTM, T .2006
4. Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T. 1985
5. V. V. Voronkova Obuchenije gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassax vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveshyeniye,1988
6. Obuchenije uchashixsya 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole / Pod redaksiyey Petrovoy V. G. Moskva, Prosveshyeniye. 1992.
7. Yordamchi imaktablar uchun ona tili. o'qish va nutq o'stirish dasturi. tuzuvchi V. S. Raxmanova, T. ,2003
8. Pulatova F. M. Oligofrenopedagogika T. 2006.
9. Raxmanova V. S. Maxsus pedagogika T. 2005

3. 6. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish.

Reja:

1. Nutq o'stirish bo'yicha olib boriladigan ish turlari.
2. Lugat ustida ishlash. Leksiko-semantik, leksiko-stilik mashkular.
3. Gap ustida ishlash.
4. Dialogik va monologik nutqni o'stirish.
5. Bog'langan nutqni o'stirish yo'llari, usullari.

Yordamchi mehnat ta'llimi maktabida o'qish darslarida nutqni o'stirish ishlarini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Xar bir o'qituvchi bola nutqini xar tomonlama o'rganib chiqishi lozim. O'qish darslarida logoped boshlagan ish davom ettiriladi, bola talaffuziga katta e'tibor beriladi, nuqsonlari tuzatib boriladi. O'qish darslarida bolaning lug'at boyligi qay holatda ekanligi aniqlanadi, boyitiladi va faollashtiriladi. Grammatik jihatdan gapni to'g'ri tuzishga o'rgatish ishlari davom ettiriladi. Dialogik va monologik nutqni o'stirish, o'z fikrlarini izchillik bilan mantiqan to'g'ri bayon etishga o'rgatish ishlari ham dastur talablaridan asosiyлari bulib hisoblanadi. O'qituvchining savollariga javob qaytarish. o'qilgai matn mazmunini mustaqil gapirib berish, rasmga qarab oya tuzish kabi ish turlari barcha sniflarda amalga oshiriladi. O'quv yili vaqtiga qarab mashqlarni bajarishga qo'yiladigan talablar o'zgaradi: og'zaki bayoi hajmm ortib boradi, mustaqillik oshadi. ish turining sifati o'zgaradi. jumladan xuddi matndagidek bayon va qisqa bayon, uchinchi shaxs nomidan bayoi etish, vaqt va davmi o'zgartirib bayon etish va x. k.

Lugat ustidagi ishlar bolalarniig kurgan-kechirganlari, shaxsiy faoliyati, amaliy ishlariga, tajribasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun predmetni, uning belgisi yoki sifatini ko'rsatish, tatib ko'rish yo'li bilan amalga oshirilgan lugat ishlari eng samaralidir.

Amaliy faoliyatda predmetni kuzatish, o'rganish yanada ham faollashadi. Lugat ustidagi ishlar doim bir tartibda (so'zni tushuntirish, ran ichida ishlata olishga o'rgatish, kontekst ichida ishlatish) amalga oshiriladi. Ekskursiya, kuzatishlar, predmet darslari, kinofilm, rasmlar va boshqa o'qituv vositalari nutk ustirish

manbalaridir. Yangi urganilgan suzlar leksiko-semantik va leksiko-stilistik mashqlar yordamida mustahkamlanadi. Leksiko-semantik mashqlarga: belgisiga qarab so‘zni topish (rangi, shakli, nimadan qilinganligi); buyumlarni taqqoslash, analiz va sintez qilish, qismlarga bo‘lish, qismlardan bir butun nima ekanligini aniqlash (to‘rt oyoqli, taxtadnm yasalgan -stol); asosiy belgisiga kura buyumlarni tasniflash(meva-olma,nok, uzum).

Leksiko-stilistik mashklar suzlarni gap ichida to‘g‘ri qo‘llash va yozishga o‘rgatish maqsadida olib boriladi. Tilning grammatik vositalarini bola qay darajada o‘zlashtirganligiga qarab uning fikrlash qobiliyati, tafakkuri baholanadi. Aqli zaif bolalarning deyarli barchasida gap tuzishning leksiko-grammatik poydevori shakllanmagan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari muloqat vaqtida aytmoqchi bo‘lganini chalkashtirib, gap tuza olmaydilar, gap ichidagi so‘zlarni bir biri bilan to‘g‘ri bog‘lay olmaydilar, tushurib ketadilar. Natijada fikri buziladi, so‘zlari poyma-poy bo‘lib qoladi.

Aqli zaif bolalar bilan gap ustida ishlashning asosiy yo‘nalishlari kuyidagicha:

Gan tuzishga o‘rgatish, o‘z fikrlarini bayon etishda to‘g‘ri tuzilgan grammatik va leksik vositalardan urnnli foydalana olish, savollarga tugri javob kaytarish.

Gap tuzish mashqlarii quyidagi tartibda utkazish mumkin:
o‘yin faoliyati, kuzatish, amaliy ishlar, rasm asosida o‘qituvchining topshirig‘iga binoan mustaqil ravishda ran tuzish, matn ichidan kerakli gailarni ajratib olish, gan ichidagi so‘zlarii almashtirish; gapni tugallash (ma‘nosiga ko‘ra tartibsiz berilgan so‘zlardan ran tuzish va boshqalar).

Aqli zaif bolalar nutqining barcha tuzumlari (fonetiko-fonematik, leksik va grammatik) yaxshi rivojlanmaganligi natijasida bog‘langan nutqining shakllanishi ancha mushkul.

Bog‘langai nutq impressiv (atrofdagilar nutqini tushunish) va ekspressiv (tapira olish) nutqlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bog‘langan nutjni ustirish shplari dialogik nutjni o‘strish mashqlaridan boshlanadi.

Suhbat-dialogik nutjni rivojlantirishning asosiy usuli. Suhbat orqali bola to‘liq gaplarni tuzishga mashq qiladi. Yil sayin gaplar murakkablashib, bir vaqt ni o‘zida bola uch-to‘rt gap orqali javob berishga va shu yul bilan monologik nutq elementlarini egallahsha o‘rganadi. Bola nafaqat javob beradi, balki mustaqil savol berishga

ham o'rganib boradi. Suhbatdan so'ng, o'qish darslarida bola matn mazmunini bayon etishga harakat qiladi. Bog'langan nutqni o'stirishda quyidagi talablarga amal qilish lozim: gapirshni talab etadigan vaziyatni yaratish, gapirishga intilish-motiv, hohish, qiziqish uyg'otish; amaliy faoliyat asosida mantiqan to'g'ri gapira olishga o'rgatish (rasmli, sxematik so'z bilan ifodalangai reja asosida); bayon etishning maqsadini bolaga aniq qilib tushuntirish; mustakil bayon etishga o'rgatish. Bunda o'qituvchi iloji boricha gapirmaydi, imo-ishora yordamida rasmni ko'rsatish, rangni va shaklni ko'rsatish va boshqa yo'llar bilan yordam berib boradi. Bog'laigan nutqni o'stirish ishlari bayon etishga tayyorlash, o'rganilgan matnga reja tuzish, gaplarni leksik, morfologik, sintaktik jixatdan to'g'ri tuzishga o'rgatish bosqichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Savol va topshiriqlar.

1. Nutq turlarini ta'riflab bering.
2. Nutqning funksional tizimiga nialar kiradi?
3. Lugat ustida qanday ishlash lozim?.
4. Leksiko-semantik, leksiko-stilistik mashqlar.
5. O'qish darsida gap ustida qanday ishlar olib borilishi mumkin?
4. Dialogik va monologik nutqni o'stirish yo'llarini ta'riflab bering.
5. Bog'langan nutqni o'stirish yo'llari, usullari?

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Ashrapova T. , Odilova M. Ona tili metodikasi-T .1984
2. AksyonovaA. K. Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole. - M. , Prosveshcheniye. 2004
3. Boshlang'ich maktabning davlat ta'lim standartlari. RTM, T .,2006
4. Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T. 1985
5. V. V. Voronkova Obuchenije gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassax vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveshcheniye,1988
6. Obuchenije uchashixsy 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole /Pod redaksiyey Petrovoy V. G. Moskva, Prosveshcheniye. 1992.
7. Yordamchi maktablar uchun ona tili. o'qish va nutq o'stirish dasturi. tuzuvchi V. S. Raxmanova, T .,2003
8. Pusatova F. M. Oligofrenopedagogika T. 2006.
9. Raxmanova V. S. Maxsus pedagogika T. 2005
10. Raxmanova V. S. Ona tili o'qitish maxsus uslubiyati. (ma'ruza matni) T .,2003

3. 7. Yordamchi mehnat ta'limi mактабида о'qish дарсларидаги матн устидаги исхласси методикаси.

Reja

1. Matnni to'g'ri o'qishga o'rgatish
2. Ifodali o'qish bilan qayta ijodiy xikoyalash
3. Matn tuzilishi
4. Matn uстida olib boriladigan ish turlari

Yordamchi mehnat ta'limi mактабида о'qish дарсларидаги матн устидаги исхласси масалалари oligofrenopedagogika, oligofrenopsixologiya, logopediya, yordamchi mehnat ta'limi mактабида она тили о'qitish методикасига oid adabiyotlarda keng yoritilgan. Matn uстida исхласси масалаларининг psixologik асослари oligofrenopsixologiya, aqli zaif bolalar psixologiyasi darsliklarida ma'lum darajada o'z aksini topgan. Olimlardan Petrova V. G. , Belyakova I. V. , Pinskiy B. I. , Shif J. I. , Aytmetova S. SH. , Shoumarov G. B. , Mamedov K. K. va boshqalar o'z adabiyotlarda debil bolalar nutqining psixologik xususiyatlarini yoritib, ularda yozma nutqning, ya'ani o'qish va yozuvning o'ziga xos shakllanib borishini, unda disgrafiya va disleksiylar kuzatilishi mumkinligini ta'kidlab o'tganlar.

Matnni o'rganish avvalambor uni to'g'ri o'qish bilan boshlanadi.

O'quvchilar badiiy asarlarni yoki ulardan olingen parchalarni to'g'ri, ifodali o'qisalar, ularning ko'z oldilarida alohida yangi manzaralar, hodisa va voqealar namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchidan adabiy asarning badiiy xususiyatini aks ettirib emotsiнал zavq beradigan qilib o'qish talab qilinadi. Agarda o'qituvchi matnni yuqorida qo'yilgan talab asosida o'qiy olsa, unda asarning badiiy ta'sir kuchini, yozuvchining maqsad va ruxiy xolatini. tasvirlanayotgan hayot manzarasini tinglovchining ko'z o'ngida to'g'ri gavdalashtira oladi.

Shunga ko'ra o'quvchi ham xuddi o'z o'qituvchisi singari o'qishga harakat qiladi, unga taqlid qiladi, uning yo'lidan borgisi keladi.

Matnni to'g'ri o'qishning asosiy yo'llaridan biri, avval matn bilan tanishib chiqish zaruriyatini tug'diradi. O'quvchi matnni bir marta ichda o'qib, notanish so'zlarni aniqlab olgach, so'ngra matnni ovoz chiqarib ifodali o'qishga kirishsa qo'yilgan maqsadga tezroq erishishi mumkin.

Ifodali o'qish bilan qayta ijodiy xikoyalash bir-biriga juda yaqin turadi. Biror badiiy asarni yoki undan olingen parchani ifodali o'qigan vaqtda o'quvchi iloji boricha muallifning fikriga yaqinlashtirib so'zlab

berishga, yozuvchining uslubini, matnning sujet chizig‘ini va kompozitsiyasini saqlashga harakat qiladi. U tinglovchilarning asar mazmunini yaxshiroq tushunishlariga, undan ta’sirlanishlariga erishish uchun ifodali o‘qish vositalaridan biri bo‘lgan intonatsiya, mimika va imo-ishoralardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quvchi badiiy asar matnnini so‘zma-so‘z xikoya qilib bersa, qayta ijodiy xikoyalashda esa, u bilim qobiliyatini ishga solib, xikoya qilinadigan asarga nisbatan erkinroq munosabatda bo‘ladi. Asosiy e’tiborni asardagi biror voqeaga qaratmay, muayan g‘oyani birinchi o‘ringa qo‘yadi. Xikoya qilish jarayonida o‘quvchi matnni qisqartirishi, undagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarini o‘z so‘zlariga almashtirib gapirishi mumkin.

Matn nutqiy hodisa bo‘lib, u ikki yoki undan ortiq gaplarning mazmunan birikuvidan iborat bo‘ladi. Xar bir matn ma’lum bir narsa, voqe-a-hodisani tasvirlaydi, u xaqda xabar beradi, so‘zlovchi munosabatini ifodalaydi.

Matn tuzilishiga ko‘ra gap, murakkab sintaktik butunlik, xat boshi, paragraf, bo‘lim, qism, bobdan tashkil topishi mumkin. O‘quvchilar tomonidan yaratilgan matnlar asosan gap, xat boshi va qismdan iborat bo‘ladi. Bu birikmalar matn xosil qilishda ishtirot etadi va uni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Yordamchi mehnat ta’limi maktabida matnning tasvir, rivoyat va muxokama kabi turlaridan ko‘proq foydalananiladi. Metodist I. Saburov fikricha maktabda matn ustida ishlashning o‘ziga xos kuyidagi turlari bor:

- matndan zarur joylarni topib o‘qish.
- badiiy asar qahramonlari nutqidan zarur o‘rinnlarni topib o‘qish,
- matn mazmunini saqlagan xolda uning shaklini o‘zgartirish,
- she’riy asarlar mazmunini nasriy xikoyaga aylantirib bayon etish.
- matn mazmuni asosida reja tuzish.
- savol va topshirqlarga javob berish.
- matn mazmunini qisqartirib bayon etish,
- matn mazmunini kengaytirib bayon etish.
- ilmiy uslubda berilgan matnlarni badiiy uslubga aylantirib bayon etish va boshqalar.

O‘zbek metodistlaridan Abdullayeva G. , Kosimova K. ,G‘ulomova X. , Mirzayev M. , Ashrapova T. , Odilova M. , Pirnazarov M. , G‘ulomov M. va boshqalar o‘z ilmiy asarlarida mashg‘ulotlarda matn ustida ishlash yo‘llari, usullarini keng yoritganlar. Ularning fikricha

o'qish darslarida matn ustida ishslash jarayoni ancha murakkab. Ushbu jarayonni samarali bo'lishi juda ko'p turli xil omillarga bog'liq. Jumladan saylanma bayon usuli nutqiy tafakkur taraqqiyotida muhim o'rinni tutadi.

Yordamchi mактабда ham ona tili darslarida yuqorida qayd etilgan usullar qo'llanilishi mumkiin. Ko'chirib yozish davomida aqli zaif o'quvchilarining yozma nutqi takomillashtibgina qolmasdan, balki ularda badiiy asarni sinchkovlik bilan o'qish malakasi ham rivojlanib boradi.

Ko'chirib yozish ayni vaqtida nutq vositalarini mukammal egallashga yordam beradi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar badiiy asardan tabiat manzarasi va portret tasvirini, asar qahramonlari nutqidan zarur bo'lgan xalq maqollari va xikmatli so'zлами yodlash uchun zarur bo'lgan o'rinni ko'chirib yozishlari mumkin.

O'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasi asosida badiiy asar mutolaasi jarayonida tabiat manzarasi, portret tasviriga oid o'rinni daftarlari ko'chirib olishga odatlanishlari maqsadga muvofiq.

Matn ustidagi ishlar o'quvchilar yozma va og'zaki nutqini o'stirish, o'rganilayotgan til hodisasi moxiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi. Gap bo'laklari o'rganilayotgan mavzu o'tilganidan so'ng o'quvchilarda zarur bilim, ko'nikma va malakalar xosil qilish uchun asardan biror parcha ko'chirib yozishga berilishi mumkin.

O'quvchilar berilgan parchadan gap bo'laklari takror qo'llanilgan o'rinni ko'chrib oladilar va ularning ma'no va vazifalarini sharxlaydilar.

O'qish darslarida nutqni takomillashtirishning matn mazmunini saqlagan xolda uning shaklini o'zgartirish usulidan foydalanish mukin. Bu usul o'quvchilarni ijodiy fikrleshga, savodli. ixcham jumla tuzishga o'rgatadi. Matndan qo'shma gaplarni sodda gaplarga, sodda gaplarni qo'shma gaplarga, gap bo'laklarini kengaytirilgan birikmalarga aylantirish ishlari ham bir mazmunni turli shakllarda ifodalash orqali nutq o'stirishga yordam beradi.

O'qish darslarida matn ustida ishslash usullaridan yana biri-she'riy asarlar mazmunini xikoyaga aylantirib bayon etish. Ijodiy ishning bu turi o'quvchidan ma'lum darajada izlanishni talab etadi. O'quvchi she'riy mazmunli nasrga aylantirib yozar ekan. matn mazmunini saqlagan xolda uning shaklini o'zgartiradi. Bu bilan nazm tiliga xos sintaktik qurilmalarni (gap bo'laklarini o'zgargan tartibini)

nasriy nutqga xos ko'rinishlari (gap bo'laklarining oddiy tartibi) bilan almashtirishga o'rganadilar.

Mazmun asosida reja tuzish ham nutqni takomillashtirish usullaridan biridir. Reja tuzish uchun o'quvchi matn mazmunini to'la o'zlashtirishi, asosiy fikrni ajrata bilishi, uni mantiqiy izchillikda joylashtirish malakasini egallashi lozim. Yordamchi mehnat ta'limi mabtabida sodda reja tuzdirilishi mumkin.

O'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida savol va topshiriqlarga javob berish usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda o'quvchilardan tavsiya etilgan badiiy asar yoki berilgan matnni diqqat bilan o'qib, qo'yilgan savol va topshiriqlarga qisqa, ixcham va puxta javoblar qaytarish talab etiladi. Buning uchun savol va topshiriqlar puxta o'ylangan, mantiqiy tugal bo'lishi, matn mazmunini to'la qamrab olishi, o'quvchini o'ylashga, fikrlashga va izlanishga undashi lozim.

Matn mazmunini qisqartirib yozish usulini qo'llash uchun berilgan keng xajmdagi matnni qisqartirib yozish maqsadida matnni diqqat bilan o'qib chiqishi yoki tinglashi, muhim o'rinnarini belgilab olishi, uning rejasini tuzib, reja asosida fikrlarni izchillik bilan bayon etish talab etiladi.

Qisqartirib yozishda matn mazmunining asosiy o'rinnarini qamrab olinadi. Asosiy o'rinnarini fikrlarni matn mazmuni to'la o'zlashtirilgandan keyingina ma'lum bo'ladi.

Matn mazmunini kengaytirish usulida boshlanish qismi berilgan xikoyalar, sodda yig'iq gaplardan iborat matnlar, xalq maqollari, xikmatli so'zlardan foydalanish o'rinni. Boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish uni kengaytirish demakdir. Matnning davom ettirilgan qismi o'quvchining ijodiy ishi sanaladi, chunki bu usul o'quvchini izlanishga majbur qiladi.

Ilmiy uslubda berilgan matnlarni badiiy uslubga aylantirib yozish usuli nutqiy savodxonlikni takomillashtirishga qaratilgan ijodiy yozma ishlarining eng murakkab va zarur turlaridan biri. O'quvchi ilmiy tasvirni badiiy tasvirga aylantirishi uchun ilmiy nutqga xos bo'lgan ifodalarni badiiy ifodalar bilan almashtiradi. Bu esa undan azaliy nutq me'yorlaridan unumli foydalanishni talab qiladi.

Metodik adabiyotlarda yoritilgan matn ustida ishlashning turli xil usullari o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Savol va topshiriqlar

1. Matnni to'g'ri o'qishga o'rgatish yo'llari
2. Ifodali o'qish bilan qayta ijodiy xikoyalash

3. Matn qanday tuzilgan bo'lishi mumkin?
4. Matn ustida olib boriladigan ish turlari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Aksyonova A. K. Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole. Moskva. , 2004
2. Abdullayeva H. Birinchi sinfda o'qish darslari. T. O'qituvchi 1973
3. Oripov H. , Obidova M. Ifodali o'qish. T. ,O'qituvchi, 1994
4. Petrova V. G. Razvitiye rechi uchashchixsyu vspomogatelnoy shkoli. M. ,2004
5. Ikkinchisinfda o'qitish (Mavlyanova R. A. taxriri ostida T.,1977
6. Uchinchi sinfda o'qitish (Mavlyanova R. A. taxriri ostida T. , O'qituvchi,1979
7. Ibroximova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. T. ,O'qituvchi 1994
8. Gordiyenko YE. A. Nauchno-pedagogichnskiye osnovi obucheniya umstvenno otstalix shkolnikov svyaznou rechi. T. , Izdatelstvo «Fan» 1985

3. 8. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ertak ustida ishlash metodikasi.

Reja

1. Xalq og'zaki ijodida ertaklar o'mi. tarixi.
2. Yordamchi mакtabda ishlataladigan ertak turlari
3. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasida ertak ustidagi ishlarni tashkil etish yo'llari, usullari
4. Ertak ustida ishlashda turli o'qituv vositalarining ishlatalishi.

O'quvchilarga barcha fanlardan yaxshi bilim berish. ularni ma'naviy jixatdan mukammal qilib tarbiyalash bugungi pedagogikamizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu ulkan vazifani to'laqonli ravishda amalga oshirish uchun ta'lum-tarbiya ishining barcha metod va vositalaridan unumli foydalanish xar bir o'qituvchi, tarbiyachining birinchi navbatdagi ishidir.

Yosh inson shaxsini xar tomonlama rivojlantirishda adabiyot. xususan xalq og'zaki ijodining ahamiyati benixoya katta. Chunki axloq. odob, ilm olish, mehnatsevarlik va boshqa ijobiy fazilatlarga oid fikrlar ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalarda yaqqol aks ettirilgan. Darxaqiqat; xalqimiz madaniyati, san'atining ilk tarixini folklor materiallari orqali bilib olamiz.

Adabiyotning ilg'or vakillari va pedagoglar yoshlarni xalq og'zaki ijodidan baxramand qilish uchun hamisha harakat qilib kelganlar. A. Avloniy, S. Ayniy, R. Fitrat, F. Kamol, O. Sharafitdinov, K. D. Ushinskiy, Redozubov V. A. , H. Abdullayeva kabi marifatparvar, pedagog va metodistlar bolalar uchun darslik tuzishda xalq og'zaki ijodiga, shu jumladan ertakka alohida o'rin ajratdilar.

Oligofrenopedagogika va maxsus metodika mutaxassislari ham aqli zaif bolalarga ertak o'rgatish yo'llari, usullarini o'z ilmiy ishlarida keng yoritganlar.

Gnezdilov M. F. , Barskaya N. A. , Voronkova V. V. . Petrova V. G., Kolevatova YE. V. , Gordiyenko D. A. , o'zbek olimlaridan Aytmetova S. SH. , Maymor O. S. , Chebotaryova T. M. , Gordiyenko D. A. , Raxmanova V. S. , Sosedova N. V. va boshqalar o'z ilmiy ishlarida ertak ustida ishlashning ba'zi bir qirralarini yoritishga harakat qilganlar.

O'zbek olimlaridan Xasanov Soli, Suyumov A. , Jumaboyev M. , Jaxongirov O'. , Mo'minov O'. va boshqalar o'z ilmiy asarlarida ta'kidlaganidek:- «Maqol va matallar, ertak va afsonalar, latifa va dostonlariga xalqning aql-zakovati, orzu-xavasi, ruxi va irodasi singdirilgan».

Mehnatkash xalqning orzu-umidlari, baxt-saodat yo'lidagi intilishini, ilg'or progressiv g'oyalarni o'zida badiiy ifodalagan xalq ijodining bebaho gavxarlari xozirgi kunda ham o'z moxiyat-e'tibori bilan yangi komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishda tarbiyachi va o'qituvchilarimizga yaqindan yordam berib kelmoqda.

Xalq og'zaki ijodidagi eng boy va rangbarang janrlardan biri ertakdir. Ertakda xalqning urf-odati, tabiat va jamiyat hodisalariga bo'lgan munosabati, baxtli hayot haqidagi ezgu tilak va orzulari, qayg'u va shodlik hislari. ularning qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ulari, dushmanga nisbatan g'azab va nafrati, yengilmas irodasi, xaqiqat,adolat. baxt haqidagi o'y va tushunchalari aks ettiriladi. Ertaklar o'zining chuqur mazmundorligi va badiyiliği bilan xarakterlanadi. Shuning uchun maktab darsliklarida ushbu janordagi asarlar keng o'rin egallagan.

Turli yoshdagi bolalarga munosib xalq yaratgan minglab ertaklarimiz bor. Bu ertaklar hayvonlar, parrandalar, jodugar kampirlar haqidagi sexrli, afsonaviy hamda ijtimoiy-maishiy xarakterdadir.

Ertaklar o'zining ijtimoiy kelib chiqishi bilan uzoq o'tmishga, otabobolarimiz zamonasiga taqaladi. U davrdan davrga, avloddan avlodga

o‘tib, bizgacha yetib kelgan va bundan keyin ham insoniyatning bitmas-tuganmas madaniyati xazinasi sifatida yashayveradi.

Ertaklarda xalq hayoti, kurashi, ruxiyati, dunyoqarashi, urfatlari mujassam bo‘ladi. Ulardagi ijobiy qahramonlar o‘z maqsadlari yo‘lida harakat qilib, barcha to‘siq va g‘ovlarni mardlik bilan yengib, murodu maqsadlariga yetadilar.

Mehnat-yashash va xyotning asosi. Shuning uchun ertakda mehnatsevarlar taqdirlanadi, yalqovlar jazolanadi. Bunday ertaklar bolalarni mehnatsevar, qahramon qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ertaklarda mehnat va kasb-xunar o‘rgatish bola rivoji uchun zarur bo‘lgan muhim pedagogik masala sifatida oldinga suriladiki, bunda ertak qahramonlarining xech biri faqat mehnatsevar va ma’lum bir kasbni egallabgina kolmasdan, balki ilmli, savodli, jismoniy sog‘lom, baquvvat va ma’naviy kamolotga erishgan axloqiy pok kishilar sifatida tasvirlanadi.

Shunday ekan, yoshlarning aql-idrokli, faxm-farosatli, tadbirkor va moxir xunarmand bo‘lib yetishishlarining bosh omili ta’lim-tarbiya hamda xunar o‘rganishlari oqibatida tarkib topgan ma’naviy fazilatlar va jismoniy kamolotning majmuasi deb qaraladi.

Tabiat olami bilan bog‘liq ertaklar ham bolalarga katta quvonch bag‘ishlab keladi. Bolalar bepoyon, go‘zal, musaffo dalalar, sershovqin o‘rmonlar, baland-baland tog‘lar, tezoqar daryo-anxorlar bilan yaqindan tanishadilar, ulardan zavqlanadilar. Tabiat manzarasining tasvirlanishi asarning his-hayajon ta’sirini kuchaytiradi hamda bolalarda hayotga muxabbatni oshiradi, ularning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Ertaklar turli ijtimoiy sharoitlardagi sinfiy kurash zaminini, o‘shanga muvofiq mazmun va tushunchalarni ifodalaydi. Shuning uchun ham ertaklar orqali kishilarning turli sharoitdagi hayotini, sinfiy kurashini osonlik bilan tushunish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi va yordamchi mehnat ta’limi maktabining boshlang‘ich sinf bolalari uchun «Sholg‘om», «Bo‘g‘irsoq», «Bo‘ri va yetti uloq», «Qumursqa», «Chivinboy» kabi va boshqa ko‘pgina ertaklar mayjud.

O‘zbek xalk ertaklarida sof muxabbat va vafodorlik ham yorqin aks ettirilgan. Muxabbat yuksak insoniy tuyg‘u. U kishini ezgulikka, jasoratga, buyuk ishlarga chorlaydi. Ayni paytda u kishidan katta mas’uliyat talab qiladi. Masalan, «Toxir va Zuxra» ertaginining asosiy g‘oyasi-sevgiga vafodorlik, o‘z maqsadi yo‘lida Toxir kabi jasorat ko‘rsatish – insoniy fazilat ekani tushuntiriladi. Ertaklarda do‘stlik va

o'rtoqlik, inoqlik, axillik, totuvlik munosabatlari ulug'lanadi, do'stga vafodor, sadoqatli bo'lishga chaqiriladi.

Kamtarinlik, xalollik va rostgo'ylik, vatanparvarlik kabi mavzudagi ertaklar ko'p. Ular bolalarni tarbiyalashda juda qo'l keladi. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida o'qish darslarida o'zbek xalqi og'zaki ijodidan ertaklar ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion ishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ertak o'zining soddaligi, ravonligi, obrazliligi bilan bolalar uchun tushunarli, juda qiziqarlidir. Ertakda kuylanuvchi g'oyalar bola tomonidan oson va tez o'zlashtiriladi.

Ertak janrining asosiy xususiyatlaridan bri uning xalq hayoti, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan yaqin bog'langan bo'lishi va kishilarga axloqiy va ma'naviy yo'Idosh bo'lib kelishidir.

G'oyaviy mazmuni, badiiy xususiyatiga ko'ra xalq ertaklarining uch turi mavjud: hayvonlar haqidagi ertaklar, hayotiy ertaklar va satirik ertaklar.

Hayvonlar haqidagi ertaklarda insonning hayoti, mehnati, dunyoqarashi hayvonlar orqali yashirib beriladi.

Hayvonlar, qushlar haqidagi ertalarda sujet tez rivojlanadi. Obrazlar esa serharakat bo'lib, kulgili joylari ham tez-tez uchrab turadi. Ertakdagi bu xususiyatlar bolalarni o'ziga jalb etadi.

Hayotiy ertaklarda kambag'allar bilan boylar, donishmadlar bilan tentaklar o'rtasidagi voqeа-hodisalar, munosabatlар xikoya qilinadi.

Xalq ertaklari bolalar fantaziyasini o'stiradi, ularni fikrlashga undaydi.

Ertak o'qilganda ularning tuzilishi (kirish, xotima) haqida tushuncha beriladi. Ertakning mazmuni tahlil qilinganda uning g'oyasi (yomonlik ustidan yaxshilikning tantana qilishi)ga alohida e'tibor beriladi. Aqli zaif o'quvchilarning asarda ishtirot etuvchi shaxslar va voqealarga munosabatlari aniqlanadi.

Ertakni bayon qilish vaqtida o'qituvchi lozim bo'lgan o'rinnlarda voqeа va hodisalarni hayajon, g'azab bilan, sevinch alomatlari bilan ta'sirli ifodalashi, qahramон оvozini ham o'xshatib aks ettirishi; hayvonlar haqida so'z borganda, ularning tashqi qiyofasini o'quvchilar ko'z o'ngida yorqin gavdalantira olishi kerak. Ana shundagina ertak mazmuni o'quvchilar ongiga tez singadi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ona tili o'qitish metodikasida aqli zaif bolalar bilan Gnezdilov M. F. ertak ustidagi ishlarni kuyidagicha olib borishni tavsiya etadi:

1. O'quvchilarni ertakka qiziqishini uyg'otish maqsadida uning leksik va sintaktik xususiyatlarini saqlagan xolda og'zaki ifodali xikoya qilib berish.
2. Ertakni mustaqil o'quvchilarga o'qitish. Bu vaqtida o'qituvchi qiyin so'zlar izoxlab, tushuntirib o'tadi.
- Savol-javob yo'li bilan ertakning g'oyasi ochiladi, tahlil etiladi.
3. Ertak sujeti, mazmuni asosida rasmlar chizdiriladi.
4. Ertak qahramonlarining sifatlari hayotdagি ayrim kishilar bilan, ularning sifatlari bilan solishtiriladi.
5. O'quvchilardan o'z mustaqil chiqargan xulosalarini bayon etish talab etiladi.
6. Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish maqsadida ertak mazmuni asosida qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish, tahlil qilish kabi jarayonlar tashkil etiladi.
7. O'quvchilar tomonidan ertak mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'rtaga o'qituvchi tomonidan 5-6ta savol tashlanadi va yana savol-javob uyuştiriladi.

Ayrim o'quvchilar ertak mazmunini deyarli to'liq o'zlashtirgan bo'lsada, o'qituvchining savollariga javob berishda qiynaladilar. Shuni hisobga olib dars jarayonida turli o'qituv vositalari keng ishlataladi (Ertak mazmuniga mos keladigan rasm, qo'g'irchoq teatri, illustratsiya, o'yinchoqlar va x. k.) O'quvchi ushbu vositalar yordamida ertak mazmunini so'zlab berishga harakat qiladi.

Sodda va qisqa ertaklar boshidan oxirigacha o'quvchiga so'zlantiriladi. Mazmunan keng bo'lgan ertaklar esa mantiqan bog'langan qismlarga bo'linib bayon ettiriladi.

Savol va topshiriqlar

1. Xalq og'zaki ijodida ertaklar o'mi, tarixi.
2. Yordamchi mакtabda ishlataladigan ertak turlari
3. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida ona tili o'qitish metodikasida ertak ustidagi ishlarni tashkil etish yo'llari, usullari
4. Ertak ustida ishslashda tqanday o'qituv vositalari ishlatalishi mumkin?.

3. 9. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida she'r ustida ishlash metodikasi.

She'mi ifodali o'qishga o'rgatish muhimdir. Ifodali o'qish she'r mazmunini, unda ifodalangan his-tuyg'ularni chuqurroq anglab olishga yordam beradi.

She'r kishiga ayniqsa o'zining emotsiyal tomonlari bilan kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yordamchi mehnat ta'limi maktabining 4 sinfi uchun «O'qish kitobi» darsligida Abduraxmon Akbarning «Mart» nomli she'riy asari berilgan.

Qish tugadi, qor ketdi.

Ketdi qarg'a, zog'imiz.

Xademay barglar yozib,

Yashnab ketar bog'imiz.

Qarab gulga, sumbulga

Dilbar tortar xayollar.

Bog'imizga keladi

O'yntagani shamollar...

Darsning maqsadi:» Mart» nomli she'rnı ifodali o'qishga o'rgatish.

Bahor faslining birinchi oyi martda tabiat manzarasini kuzatish.

Ekologik tarbiyani amalga oshirish.

O'quvchilarning diqqati, kuzatuvchangligini o'stirish.

Darsning borishi

O'tgan darsda uya bajarish uchun berilgan topshiriqlarning qanday bajarilgani tekshiriladi va baholanadi.

So'ngra yangi mavzu e'lon qilinib, bahor faslining asosiy belgilari haqida **suhbat** o'tkaziladi. Suhbatda bahor faslining birinchi mart oyida qorlar erib, qish tugaganini haqida, daraxt, bog'larning gullashi, shamol esishi haqidagi fikrlar tahlil qilinadi. Bunda turli xil ko'rgazmali qurol va texnik vositalardan foydalanish mu'mkin.

So'ngra o'qituvchi «Mart» **she'rinı ifodali**, ko'tarinkи ruxda, tantanali o'qiydi.

Shoir she'nda nimalarni tasvirlagan? Degan **savolga javob** olingach, **lug'at ustidagi ishlar** olib boriladi. Bolalar e'tibori sumbul, dilbar tortar, keladi o'yntagani shamollar kabi va boshqa so'zlar va so'z iboralariga qaratiladi. Shu so'zlar o'rniga qaysi so'zlarni ishlatish mumkinligi tushuntiriladi va so'raladi.

So'ngra she'ning birinchi to'rt misrasini o'qiydi va savol-javob o'tkazadi. Bunda bolalar e'tibori she'nda qish tugaganligi qanday ifodalangan? mart oyi qanday oy?, «Yashnab ketar bog'imiz «dilbar

tortar xayollar» degani nima degani? Ushbu iborani qanday tushunasiz?
Kabi va boshqa savollar tahlil etiladi.

So'ngra she'ming ikkinchi misrasi o'qitiladi. Savol-javobdan so'ng rasminni nomlash mumkin. Ba'zan savol-javobdan so'ng bahor fasliga oid prozaik matn o'qilib, ular taqqoslanadi. Bu bilan o'quvchilar she'ming poetik tilini yanada ham yaxshiroq sezadilar.

So'ngra **she'r matni turli usullar bilan o'qiladi**. Masalan galmagal o'qish, savolga javobni topib o'qish, (bog'larda qanday o'zgarishlar ro'y beradi? kabi va boshqalar. Bunda bolalar diqqati intonatsiya, o'qish tezligi, to'g'ri o'qishga jalb etiladi.

She'r ustida ishslash vaqtida butun she'r yoki uning ma'lum parchasini yod oldirish mumkin.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

- 1.. Aytmetova S. SH. Oligofrenopedagogika T, 1994.
2. Ashrapova T. , Odilova M. Ona tili metodikasi-T. .1984
3. AksyonovaA. K. Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole. -M. ,Prosveshchyeniye,2004
4. Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T. 1985
5. V. V. Voronkova Obucheniye gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassax vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveshchyeniye,1988
6. Gnezdilov M. F. Metodika russkogo yazika vo vspomogatelnoy shkole. M. . 1990
7. Ertaklar olamiga sayoxat. (Tuzuvchi: Xasanov A. -T. O'qituvchi, 2001
8. Ikki oy, ikki yulduz. O'zbek xalq ertaklari. 1992
9. Ibroximova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. -T. :O'qituvchi, 1994
10. Obucheniye uchashixsyu 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole /Pod redaksiyey Petrovoy V. G. Moskva, Prosveshchyeniye. 1982.
- 11/Yordamchi makiablar uchun ona tili, o'qish va nutq o'stirish dasturi. tuzuvchilar V. Raxmanova. T. . 2003
- Mirzayev T. «O'zbek xalq ertaklari» T. .1988
12. Maqulova G. Saidova S. «Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari», T. . O'qituvchi, 1997
14. Raxmanova V. S. Ona tili o'qitish maxsus uslubiyati. (ma'ruza matni). TDPU T. .2003
15. SmimovaA. N. Korrekcionno-vospitatelnaya rabota uchitelya vspomogatelnoy shkoli. -M. :1985

«So'z» bo'lqidagi mavzular ham gramatik, ham leksik tomonidan o'rGANilib, 2 sinfda «So'zning tarkibi» mavzusi ichida o'zakdosh so'zlar, o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi (o'zak) haqida, so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi ko'shimchalar haqida umumiy ma'lumot beriladi.

3 sinfda «So'z tarkibi» mavzusi yuzasidan olingen bilimlar kengaytiriladi, murakkablashib boradi. «So'z turkumlari» mavzusini o'rGANISHDA 2 sinfda dastlabki tayyorgarlik boshlanadi. O'quvchilar narsa nomini bildiradigan so'zlar, Kim? Nima? so'rog'iga javob beradigan so'zlar bilan tanishib, narsa, belgi, harakat kabi tushunchalarni o'zlashtiradilar. Xuddi shu tushunchalar 3 sinfda murakkabroq shaklda mustaxkamlanadi, 4 sinfda kengroq tushunchalar mustaxkamlanadi, yuqori 5 sinfda esa birinchi bor «Ot», «Fe'l», «Sifat» so'z turkumlari haqida nazariy bilimlar beriladi, ushbu atamalar bola nutqiga kiritiladi, ularning ma'nosi va ayrim belgilari, ko'rsatkichlari o'rgatiladi. Jumladan, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi, atoqli va turdosh otlar, ot kelishiklari; bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.

Keyingi sinflarda gramatika va orfografiyadan beriladigan naazariy bilimlar murakkablashib boradi. Otning kelishik va egalik qo'shimchalari bilan turlanishi, fe'lning shaxs va son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamonlari o'rgatiladi; son, olmosh va bog'lovchi haqida ma'lumot beriladi, sonning ma'nosi (narsaning soni va tartibini bildirishi), so'roqlari; kishilik olmoshlari, ularning birlik va ko'plikda qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi; va, ammo, lekin, biroq, shuning uchun kabi bog'lovchilari bilan amaliy mashqlar asosida tanishadilar. Bu mavzularni o'rGANISH bilan bog'liq xolda egalik qo'shimchalarining aytilishi va yozilishi, qip-qizil, sap-sariq kabi sifatlarning yozilishi, sonlarning yozilishi, kelishik qo'shimchalari bilan turlangan kishilik olmoshlarining yozilishi, o'tgan zamon qo'shimchasi -di ning aytilishi va yozilishi, qo'shma fe'llarning yozilishi kabi va boshqa mavzular o'rgatiladi.

«Gap» mavzusi bo'yicha o'quvchilar nutqdan gaplarni ajrata olishga, o'qish vaqtida tinish belgilariiga, oxang va pauzaga rioya qilishga; gapni yozib, oxirida nuqta qo'yishga, gapni bosh xarf bilan yozilishiga, so'roq va undov belgilari, gap bo'laklari haqidagi nazariy bilimlariga amal qilishga o'rGANADILAR. Grammatika va orfografiya darslarida aqlan zaif o'quvchilar mustaqil hayot kechirishi davomida zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar bilan tanishib, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, uyushiq bo'laklarning bog'lovchilari, gapni uyushiq bo'laklari, soda va qo'shma gaplar kabi va boshqa bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. Shu tariqa xar bir sinfda olib

IV bob Yordamchi mehnat ta'limi maktabida « Grammatika imlo va nutq o'stirish metodikasi».

4. 1. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatika o'qitish va to'g'ri yozuvga o'rgatishning vazifalari, mazmuni va olib boriladigan ishlar tizimi.

Reja

1. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida «Grammatika va orfografiya» bo'limini o'qitish vazifasi va maqsadi.
2. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatika va orfografiya darslarining mazmuni.
3. Yordamchi mehnat ta'limi maktabining ona tili dasturida grammatika va orfografiya bo'yicha materialning sinflarga taqsimoti.
4. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatika va imlo o'qitish bosqichlari.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabi «Ona tili o'qish va nutq o'stirish» dasturining muhim ko'rsatmalaridan biri – nutq va tafakkurni o'stirishdir. Buning uchun o'quvchilarni faol mustaqil ishlash, nutqi va tafakkurini o'stirish, faol o'yash, fikr yuritish, tushuntira bilishga o'rgatish, muxokama-muloxaza yuritishga, xulosa chiqarish va umumlashtirish usullaridan foydalana olishga o'rgatish talab etiladi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida bolalarni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga, yangi o'rgangan tovush, so'z va gaplarni o'z nutqida to'g'ri ishlata olishga, gap va matn tuzishga o'rgatiladi. Og'gaki va yozma nutqni o'stirish maqsadida o'quvchilar ongiga ayrim grammatik ma'lumotlar singdirib boriladi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ona tili darslari amaliy xarakterga ega bo'lib, nutqiy ko'nikma va orfografik malakani xosil qilishga qaratiladi. Ta'limiy vazifalardan tashqari ona tili darslarida qorreksion vazifalar ham amalga oshiriladi. Og'zaki va yozma nutq taraqqiy etilishi bilan bir qatorda o'quvchilarning bilish faoliyati, mantiqiy tafakkuri kengayib boradi. Bolalar til materiallarini tahsil qilishga, farqlash, taqqoslash, umumlashtirish, asosiyalarini ajratishga o'rganadilar. Materialni analiz va sintez qilish, guruxlash va umumlashtirish, o'xshash va farqli tomonlarini topish, grammatik va orfografik bilimlarni amalda tatbiq etish kabi ongli aqliy jarayonlar bolaning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi. nutqiy va aqliy nuqsonlarini bartaraf etishga yordam beradi.

Ona tili va yozuv darslarida o'qituvchi bolalarni til hodisalarini kuzatish va tushunib yozish, ongli o'qish, kitob yoki doskadan, kartochkalardan ko'chirib yozish, nutqni diqqat bilan tinglash, eshitib turib diktovka ostida yozish, o'rgangan qoidaga amalda rioya qilish, aytilgan va yozganlarini tekshirish, ko'rgan-kechirganlarini, o'z taasurotlarini og'zaki va yozma shaklda bayon etishga o'rgatadi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ona tili dasturida «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limi o'z ichiga to'rtta kata mavzularni qamrab olgan: «Tovush va xarflar», «So'z», «Gap», «Bog'lanishli nutq». Shu qismlarda o'rganiladigan mavzular bilan bog'langan xolda xusnixatga doir ayrim ma'lumotlar va imlosi qiyin so'zlar ro'yxati beriladi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabining boshlang'ich sinflarida yozuv darslarida amaliy mashqlar asosida ma'lum grammatic bilimlar beriladi va ko'nikma hamda malakalar xosil qilinadi. Shu yo'l bilan yuqori sinfda ona tili darslarida nazariy bilim egallash uchun zamin xozirlanadi. 1-4 sinflarda o'quvchi so'zning fonetik qurilishi, tarkibi, ma'noli qismlari bilan, ayrim so'z turkumlari va ularning asosiy belgilari bilan tanishadilar, gap va gap bo'laklari haqida ma'lumot oladilar, mazkur mavzularga oid imlo va tinish belgilari qoidalarini o'rganadilar.

Dasturda so'zning leksik ma'nosini, ko'p ma'nolisi, ma'no jixatidan bir-biriga yaqin(sinonim), qarama-qarshi ma'noli(antonim) so'zlar bilan tanishtirishga alohida e'tibor beriladi, nutqni tinglash iqtidori o'stiriladi, adabiy tilda ko'nikma xosil qilinadi, tilning asosiy qismlari bo'lgan tovush, so'z va gapga ongli munosabatda bo'lish tarbiyalanadi.

Dastur materiallarning sinflar bo'yicha taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. To'g'ri taqsimlangan material bilimlarni izchillik bilan puxta va to'liq o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabining «Ona tili, o'qish va nutq o'stirish» dasturi konsentrik ravishda, bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilgan. Beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar birinchi sinfdan boshlab to 4 sinfning oxirigacha bosqichli izchillikda murakkablashib, kengayib boradi. Birinchi sinfda asosan savod o'rgatish ishlari tovush va xarflarni o'qish va yozishga o'rgatish, amaliy yo'l bilan fonetikani o'rganish: tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, bir-biridan farqlash, unli va undoshchlarni ajratish, jarangli va jarangsiz tovushlar o'rtasidagi farqni bilib olishga qaratilgan. Xuddi shu ishlarni keyingi sinflarda yangi leksik materiallar asosida davom ettiriladi.

16. Suyumov A. , Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -Toshkent, o'qituvchi, 1995
17. O'zbek va jaxon bolalar adabiyoti. Majmua. Tuzuvchi - muallif Jumaboyev M. Toshkent, O'qituvchi 1996
18. Mo'minov O. Xalq og'zaki ijodi va axloqiy tarbiya. -T. :
19. Murodov M. «Oltin sandiq ochildi », Fan nashriyoti, 1994
20. Jaxongirov /. O'zbek bolalar folklori. O'qituvchi, T. , 1995
21. Xo'jayeva M. «O'qish kitobi» yordamchi maktablar 2 sinf uchun Toshkent O'qituvchi 1999
22. Xo'jayeva M. «O'qish kitobi» yordamchi maktabning 3 sinfi uchun. Toshkent - O'qituvchi, 2001
23. Xo'jayeva M. «O'qish kitobi»-yordamchi maktablar uchun 4 sinf. -T. , O'qituvchi, 2004

borilgan ishlar o'zbek tili grammatikasi va orfografiyasini butun bir xolda o'rganib, takrorlab, mustaxkamlab borish imkonini beradi. Xar bir sinfda ma'lum bir bo'limga ko'proq e'tibor berilishi ko'zda tutilgan bo'lsada, umumiylit, yaxlitlik ona tili dasturida saqlangan. Dasturning tushuntirish xatida «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bulimi ustida olib boriladigan ishlarga qo'yilgan talablar va ularni amalga oshirish tamoyillari, shart-sharoitlari, usullari ko'rsatilgan.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabining «Ona tili, o'qish va nutq o'stirish» dasturi tahlili shuni ko'rsatdiki boshlang'ich sinf yozuv darslarida grammatika va orfografiyadan beriladigan bilimlar elementar-amaliy xarakterda bo'lishiga qaramay, ushbu bilimlar yuqori sinfda o'zbek tili grammatikasi va imlodan nazariy bilimlarni o'zlashtirishga puxta zamin xozirlaydi.

Shunday qilib, yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatika va imlo darslari ikki bosqich bo'yicha o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqichda 1-4 sinflarda amaliy bilimlar deyarli berilmaydi. Amaliy mashqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari keyinchalik yuqori sinflarda grammatika va imlodan nazariy bilim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib oladilar, ularning nutqi va tafakkuridagi bilish faoliyatidagi nuqsonlari kamaytiriladi, korreksiyalanadi.

Ikkinci bosqichda o'quvchilarga Grammatika va imlodan mustaqil hayot kechirishda zarur bo'lgan xajmdagi nazariy bilim va ular asosida orfografik ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, o'quvchilarning og'zaki va yozma bog'langan nutqi rivojlantiriladi.

Savol va topshiriqlar

1. Yordamchi mehnat ta'limi maktabining «ona tili, o'qi shva nutq o'stirish» dasturidagi «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limini tahlil qilib, xar bir sinfda Tovush va xarflar, So'z, Gap mavzulari bo'yicha xar bir sinfda o'rganiladigan bilimlar xajmini aniqlang.
2. Nima uchun dastur konsentrik bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilgan?
3. Dasturdagi «Grammatika. imlo va nutq o'stirish» bo'limining tushuntirish xatida qanday talablar ilgari surilgan?
4. Yordamchi mehnat ta'limi maktabining boshlang'ich sinflarida o'tiladigan yozuv va yuqori sinflarda o'tiladigan ona tili darslari o'rtaida qanday bog'lanish mavjud?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Yordamchi mehnat ta'limi maktabining 1-9 sinflari uchun «Ona tili,

o'qish va nutq o'stirish» dasturi. Tuzuvchi Raxmanova V. S. XTV RTM ,2002 yil.

2. Aksyonova A. K. Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole. Moskva, 2000
3. Raxmanova V. S. Ona tili o'qitish maxsus uslubiyati. (ma'ruza matni), Nizomiy nomli TDPU, Toshkent 2001 y.
4. Ona tili, matematika, tabiatshunoslikdan daftar tutish va yuritish, yozma ishlarni o'tkazish va baholashning yagona talablari. 1-4 sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini baholash meyorlari (uslubiy tavsiyanoma) Toshkent shaxar MOI, 1998
5. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O'qituvchi va ota-onalar uchun metodik qo'llanma. Tuzuvchi Shomaxmudova R., Muzaffarova F. Jumaboyeva N., Boltayeva SH. Toshkent 2005

4. 2. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida grammatika va imloga о'rgatish usullari.

Reja

1. Grammatik mashg'ulotlarni o'tkazishda ishlatiladigan usullar.
2. Yozuv va ona tili darslarida tahlil va tarkib usulining ishlatilishi.
3. Induksiya va deduksiya usullari .
4. Grammatik tushunchaning asosiy belgilari ustida ishlash usullari.

Ona tili o'qituvchisi o'quvchilarga bilim berishda o'z mehnatini samarali, zavqli va yengil qiladigan ish usullarini qo'llaydi, o'quvchilarning bilim va malakalarini mustaxkam o'zlashtirishlari hamda amalda qo'llay olishlariga ko'maklashadigan mashqlar tanlaydi. Mana shular bir butun xolda o'qitish metodi hisoblanib, yunoncha metod-yo'l, usul ma'nosini anglatadi. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabi ona tili o'qituvchisi, mutaxassis sifatida lingvistikani mukammal bilishi va dastur talablari bo'yicha ishlash maxoratini - maxsus ona tili metodikasini egallagan bo'lishi lozim.

O'qitish metodini tanlashda ikki muhim narsa nazarda tutiladi: a) o'quvchilarning bilim olish faoliyati; b) turli mashqlar vositasida ongli o'zlashtirib, amalda qo'llay olishlari.

Usul, metod tanlashda kuyidagi omillarga asoslanish talab etiladi: a) o'quvchilar bilimni qaysi manbadan (o'qituvchidan, jonli tildan yoki kitobdan) oladilar; b)o'quvchilarni mashg'ulotga jalb qilish jarayoni (moyillik, qiziqishi va boshqalar); v) o'quvchilarning mustaqil ishlash shakllari (yozma va og'zaki) hamda o'rni (sinfd yoki o'yda).

Metod tanlashda nazariy ma'lumot va unga mos keladigan mashqlar, sinfning tayyorgarligi, o'quvchilarning yoshi, individual xususiyatlari va mavzuning xajmi kabilar hisobga olinadi. Shunga ko'ra, mashq, grammatik tahlil, ko'rgazmali qurollar, suhbat, o'qituvchining bayoni kabi usullar deyarli xar bir darsda qo'llanishi mumkin.

Usul tanlashda grammatika va orfografiya darslarida o'rganiladigan mavzularning o'ziga xos xususiyatlariga ham ahamiyat beriladi: lug'at ustidagi ishlarda notanish so'zlar ma'nosini izoxlash, gap ustida ishslashda stilistik xatolarni tuzatish kabi usullardan ko'proq foydalilanadi.

Grammatikadan o'quvchilarga yangi bilim berishda suhbat, bayon, ta'rif va qoidalar ustida ishslash kabi metodlar, o'tilganlarni qaytarish, mustaxkamlash va umumlashtirishda esa amaliy ishlar, mashq, grammatik tahlil, ko'chirib yozish, diktant, bayon va boshqalar ko'llaniladi.

Demak, grammatika va imlo o'qitish davrida o'qituvchi bilan o'quvchining birga ishslashini tashkil etish usullari asosan uch xil bo'ladi: o'qituvchining bayoni, o'qituvchining o'quvchilar bilan suhbat, o'quvchilarning mustaqil ishlari. Bayon yordamida murakkabroq, ayniqsa o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'laman mavzular izoxlanadi. Grammatik ta'rif moxiyatini tushuntirish, o'quvchilarga qo'shimcha ma'lumot berish, ularning savollariga javob berishda ham bayon usuli ishlatilishi mumkin.

O'qituvchining bayoni usulida o'qituvchi zarur grammatik ma'lumotlarni ma'lum vositalar yordamida bayon etadi, tushuntiradi, o'quvchilar o'qituvchi fikrini kuzatib, tinglab boradilar.

O'quvchilarning grammatik material haqidagi bilimlarini aniqlab, shularga tayangan holda grammatik mavzuni, uning belgilarini aniq va izchil ochib berish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida ularni kuzatish, xulosalar chiqarish, o'xshash va farqli tomonlarni taqqoslash, umumlashtirishga o'rgatish foydalidir. Yordamchi mehnat ta'limi mакtabida o'qituvchining bayoni 3-5 minutdan oshmasligi kerak, chunki aqlan zaif bolalar uzoq davom etgan nutqni eslab qola olmaydilar. Shuning uchun bu usul sof xolda ona tili darslarida deyarli ishlatilmaydi.

Suhbat usuli grammatika o'qitish va orfografiyaga, to'g'ri yozishga o'rgatishda yordamchi mehnat ta'limi mакtabida keng ishlatiladigan usullardan biridir.

Ona tilidan o'rganiladigan material o'quvchilarga qisman oldingi sinfdan tanish bo'lsa yoki yangi mavzu biror tomoni bilan oldin o'tilgan materialga bog'lansa, darsda suhbat usulidan foydalanish mumkin. Suhbat o'quvchilarning faolligini oshiradi. Ular o'qituvchi raxbarligida berilgan faktlarni kuzatadilar, o'zaro qiyoslaydilar va muxokama qiladilar, so'ng umumlashgan xulosa chiqaradilar. Suhbat o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirishda muhim omillardan biridir.

Suhbat uch xil bo'ladi: axborot xarakteridagi suhbat, evristik suhbat, o'tilgan mavzuni mustaxkamlash maqsadida o'tkaziladigan suhbat. Bu usul avval savol-javob usuli deb nomlangan. Bunda o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar o'z kuzatishlari asosida darslik ustida ishlab, muxokama yuritib savolga javob topadilar va xulosa chiqaradilar, shu yo'l bilan yangi bilim oladilar. Bu usul o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni fikrleshga undaydi., mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Evristik suhbat usuli ba'zan yangi mavzu o'tilayotganda qo'llanadi. So'z yasash usullari, so'z turkumlari, ot yasovchi qo'shimchalar, fe'l nisbatlari. so'zlarning o'zaro bog'lanishi kabi va boshqa mavzularni o'rganish vaqtida o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib bir necha yordamchi, yetaklovchi savollar tuzadi, topshiriq beradi. Topshiriqni o'quvchilar o'zları oajarishga urinadilar. O'qituvchi bevosita raxbarlik qiladi. Masalan «Sifat haqida ma'lumot» mavzuini tushintirishda metodist Ashrapov M. evristik suhbat usulidan foydalanishni tavsiya etib, ishni kuyidagicha tashkil etishni ko'rsatgan.

O'qituvchi darsga qadar doskaga anor haqidagi topishmoqni kuyidagicha yozib qo'yadi:

..., ..., ...	mayda, yoqutday. qizil,
..., ..., ...	shirin, nordon. xilma-xil
..., ..., ...	hamma yerda do'sti bor.

Suhbat uchun kuyidagi savol va topshiriqlardan foydalaniladi: chap tomonda berilgan gaplarni o'qing (O'ng tomondagi yozuv berkitib qo'yiladi.)

Nimani tushundingiz? Bunda siz gap qaysi meva haqida borayotganini bila oldingizmi? Javobini topa olasizmi? Endi o'ng tomondagi topishmoqni o'qing. Topishmoqning javobini aniqlashingizga yordam bergen so'zlarga savol bering.

O'quvchilar so'roqni aniqlaganlardidan so'ng o'qituvchi «qanday»? yoki «qanaqa?» so'rog'iga javob beradigan so'zlar nimani bildirayapti. savolini beradi. O'quvchilar anor(narsaning) rangini (qizil), imzasini

(shirin, nordon), shaklini (mayda, qalin) va xususiyatini (xilma-xil) bildirishini o'zлari o'qituvchining yordami bilan topadilar. Shundan so'ng o'quvchilar «Belgi deganda nimani tushunasiz?» so'rog'iga javob topadilar. O'qituvchi o'quvchilar javobini umumlashtirib, qo'yilgan muammoni quyidagicha hal qilib beradi: Demak, sifat deb narsa belgisini bildiradigan qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob beradigan so'zlarga aytildi. Narsa belgisi deganda uning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini tushunar ekanmiz. Chiqarilgan xulosaning to'g'riliги darslikdagi qoidani o'qib, tasdiqlanadi.

Yordamchi mактабда yangi pedagogik texnologiyalar, muammolarni xal etish usullaridan aqli zaif o'quvchilarning yoshi, bilimi, tayyorgarligi, tajribasi, o'zlashtirish qobiliyati, va boshqa shu kabi dastur talabi, vaqt masalalari va boshqa shu kabilarni hisobga olgan xolda foydalilanadi.

Suhbat ko'п xolda o'quvchilarga ma'lum bo'lgan grammatik material yuzasidan o'tkazilib, ular bilganlari asosida o'qituvchining savol va topshiriqlari yordamida o'tkazilsa o'quvchilar zarur xulosa chiqarishga, umumlashtirishga harakat qiladilar. Beriladigan savollar puxta o'ylab tuzilishi, yaxlit javob berishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ish usulida o'qituvchi o'quvchilarga grammatika yoki imlodan mashq beradi va o'quvchilar deyarli mustaqil uni bajaradilar. Topshiriq o'tilganlar asosida o'quvchilarning bilim saviyasiga mos ravishda tushuntirilib berilishi lozim. Uni o'quvchilar bajarib bo'lgach, albatta, o'zлari tekshira olishlari va o'qituvchi oldida javob bera olishlari shart. Mustaqil ish katta xajmli ya. O'ta bola uchun murakkab, ko'п vaqt talab etadigan bo'lmasligi kerak. Bunday ish 2 sinfda 5-10 daqiqa, 3 sinfda 10-15 daqiqa, 4 sinfda 15-20 daqiqaga mo'ljallanishi maqsadga muvofiqdir. Ayrim xollarda, agarda moshq murakkablik qilsa, uni qismrlarga bo'lib, izchillik bilan bajartirish va nazorat qilish mumkin.

Mustaqil ish usulidan nafaqat mustaxkamlash, balki yangi bilim berish davrida ham foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar mustaqil fikrleshishga, xulosalar chiqarishga, ta'rif va qoidalarni amalda tatbiq eta olishga odatlanadilar.

Grammatika va imlo darslarida **tahlil-tarkib usuli** keng ishlataladi. O'rgatilgan grammatik ta'rif va qoidalarni asosan ushbu usul bilan mustaxkamlanadi. O'rganiladigan grammatik tushunchalar turiga qarab barcha sinflarda fonetik, ya'ni tovush-xarf tomonidan tahlil, morfologik, sintaktik, orfografik, punktuatsion tahlillar o'tkaziladi. Masalan,

berilgan so'zlardan gap, gaplardan jumla tuzish; berilgan so'zga mos keladigan bir xil o'zakli so'zlar topish va x. k. Sintez usuli ma'lum bilimlarni umumlashtirishda ham ishlataladi. Masalan, otning belgilari: **buyum yoki kishilar nomini bildirishi, kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lishi, birlik va ko'plikda qo'llanishi, egalik va kelishik qo'shimchalar bilan turlanishi alohida o'rganilanidan so'ng, umumiyl quyidagi xulosa chiqarish:** Ot so'z turkumi - kishilar va buyumlar nomini bildiradi, kim? yoki nima? so'rog'iga javob beradi; birlik va ko'plikda qo'llanadi; egalik va kelishik qo'shimchalar bilan turlanadi. Tahlil va tarkib usullari deyarli bir vaqtin o'zida yoki galma-gal ishlataladi. Ushbu usul o'quvchilarni faol fikrashga o'rgatadi, nutq materiallarini tahlil qilish, misollar topish, gaplar tuzish, tilning ma'lum bir hodisasini boshqasi bilan qiyoslash, til hodisalari yuzasidan umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini o'stiradi.

Ayrim grammatik materiallarni o'rgatishda o'quvchilar avval nutqning ma'lum bir xususiyatlarini keltirilgan misollarda kuzatib, so'ngra ta'riflash yoki xulosa chiqarishga o'rganadilar. Masalan, o'quvchilar sifatning qanday?, qanaqa? so'rog'iga javob berib, buyumning belgisini bildirishini, otga bog'lanishini misollarda kuzatgach, «buyum belgisini bildiradigan so'zlar sifat deyiladi, sifat qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga favob beradi, doim otga bog'lanib keladi»-degan xulosani chiqaradilar. Bu turdag'i ishlar **induktiv usul** deb yuritiladi. Agarda o'qituvchi avval qoidani bayon qilib, o'quvchilar diqqatini shu qoidaga jalb etib, mustaqil shu qoidaga muvofiq misollar keltirishga o'rgatsa - **deduktiv usuldan** foydalangan bo'ladi. Masalan, gaplarning ma'nosiga ko'ra so'roq gap bo'lishi va uning oxiriga so'roq belgisining qo'yilishi haqidagi qoida gapning ta'rifi bilan bayon qilingach, misollarni mustaqil toptiradi yoki biron matn o'qilib, uning ichidan so'roq gaplar ajratib olinadi.

O'qituvchining bayonida ham induktiv, ham deduktiv usul ishlatalishi mumkin. Grammatik materialni tushuntirishda odatda induktiv usul ko'proq ishlataladi.

Grammatika va orfografiyadan yangi mavzu bir necha **tushunchalarni yoritish** yo'li bilan tushuntiriladi. Masalan morfologiyanidan «So'z tarkibi» bo'limi ichida «O'zak», «So'z yasovchi qo'shimchalar». «So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar» mavzulari o'rganiladi. Tushunchani yoritish uchun uning asosiy belgilari, ya'ni ushbu tushunchanining mazmunini yoritadigan, tilning asosiy tarkibiy

qismi sifatida boshqa tushunchalardan farqini yoritib berdigan belgilarini ko'rsatish zarur.

«Sifat» tushunchasining mazmunini yoritishda o'qituvchi uning belgilarini, otga bog'lanib kelishini shuday tushuntirishi kerakki, bu belgilar sifatni boshqa so'z turkumlaridan farqlashga imkon bersin. Ushbu usul o'quvchilarni so'z turkumlarini bir biridan nafaqat ma'nosiga ko'ra, balki belgisiga ko'ra ham ajrata olishga o'rghanadilar. Masalan, aqli zaif bolalar otni sifatdan farqlashda uning birlik va ko'plikda qo'llanishi, egalik va kelishik bilan turlanishini; sifat esa turlanmasligini anglab oladilar. Otni fe'lidan farqlashda uning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l esa zamon bildirishini tushunib oladilar.

Aqlan zaif bolalar tovush, so'z, kelishik, zamon kabi va boshqa grammatik tushunsqchalar haqida asosan amaliy mashg'ulot davomida bilim oladilar. Amalda xar bir o'quvchi tovush, so'zning nimaligini biladi, o'qituvchi masalan, feql zamonlarini tushuntirayotganda «hozirgi zamon», «o'tgan zamon», «kelasi zamon»larni voqelikka bog'lab tushuntiradi. O'quvchilar zamon haqidagi tushunchalarni eglab oladilar va voqelik gapirish vaqtida, gapirib bo'lgandan so'ng, gapirishdan oldin bo'lishi mumkinligini anglab oladilar. Shu uch zamonda kelgan fe'llarga o'qituvchi o'zi misollar keltiradi va o'quvchilarga o'z misollarini toptiradi. So'ngra «fe'llar uch zamonni bildiradi», degan xulosa chiqariladi.

Shunday qilib, yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatika va imloga o'rgatishda umum qabul etilgan o'qituvchining bayoni, suhbat, amaliy ishlar kabi usullar ishlatalidi. Ma'lum bir usulni qo'llashda turli o'qituv vositalari, pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. O'qituv vositalarining ko'zi bilan ko'rib - video, qulog'i bilan eshitib - audio, ko'rib va eshitib - audio-video idrok etadiganlari mavjud. Grammatika va imlo darslarida ko'rib idrok etish uchun mo'ljallangan o'qituv vositalariga darslik, rasm, jadval, doskaga yozilgan yozuvlar, tarqatma materiallar, kartochkalar va boshqalar kiradi. Quloq bilan eshitib idrok etishga mo'ljallangan radio, magnit diskalariga yozilgan audio materiallari kiradi. Xozirgi kunda keng ishlataladigan audio-video apparaturalar grammatika va imlo darslarida keng ishlatalishi mumkin. Biroq barcha turdag'i o'qituv vositalari grammatik materialga mos kelib, darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan, uning mavzusi. maqsadiga mos ravishda ishlatalishi shart.

Savol va topshiriqlar.

1. Grammatik mashg'ulotlarni o'tkazishda qanday usullardan foydalanish mumkin?
2. Yozuv va ona tili darslarida tahlil va tarkib usuli qanday ishlataladi?
3. Induksiya va deduksiya usullarini ta'riflab bering. Ular qanday ishlataladi?
4. Grammatik tushunchaning asosiy belgilarini yoritish usullari.

4. 3. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatik mashqlar va ularning turlari, uyuştırılışları.

Reja:

1. Fonetik mashqlar va ularni o'tkazish yo'llari.
2. Morfologik mashqlar
3. Sintaktik mashqlar
4. Lug'aviy mashqlar
5. Grammatik mashqlarga qo'yiladigan talablar.

Yordamchi maktabda ona tili o'qitish metodikasida olimlardan Gnezdilov M. F. , Smirnova Z. N. , Aksyonova A. K. , Voronkova V. V., Ko'do'kbayeva S. , Kolevatova L. I., Raxmanova V. S. va boshqalar fikricha grammatika va orfografiyaga o'rgatish samarali bo'lishi bolaning analiz va sintez qilish kobiliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'likdir.

Bu ishlarni ular ikki boskich bo'yicha tashkil kilishni tavsiya etadilar: 1. tayyorgarlik; 2. almashtirilayotgan tovushlarni eshitish yo'li bilan va talaffuz jixatdan farklash.

Birinchi boskichda og'zaki nutqni o'stirish, almashtirilayotgan xar bir tovushning talaffuzini aniqlash va uni eshitish yo'li bilan ajratish, idrok etish, tovushlar ketma-ketligini aniklashga o'rgatiladi. Bu boskichda olib boriladigan ishlar kuyidagilardir:

-ko'rish, eshitish, taktil (sezish yo'li bilan) idrokini rivojlantirish, talaffuz etish yo'li bilan so'zni bo'g'inlarga, tovushlarga ajratish; so'z ichida tovushlar o'rmini aniqlash, so'zdag'i tovushlarning ketma-ketligini aniklash.

Ikkinci boskichda almashtirilayotgan tovushlarning talaffuz kilinishi aniklanadi va eshitish jixatdan o'xshash tovush, bo'g'in, so'zlarini kiyoslash ishlari olib boriladi. (unli, undosh, jarangli, jarangsiz) Bu boskichning asosiy maksadi - tovushlarni bir-biridan farklashdir.

Grammatik tahlil-tarkib usuli yozuv darsining xar bir bosqichida ishlataladi. Fonetik, morfologik, sintaktik tahlil ketidan yozish, yozilgan matnni tahlil etish, nuqtalar o'miga kerakli xarflarni yozish, so'zlarini bir

biridan ajratish, buyum nomi, harakati, belgisini bildiradigan so'zлами guruxlarga jamlash, gap tuzish va shu kabi dastur bo'yicha olib boriladigan ishlar o'quvchilarning nafaqat analiz-sintez qilish malakalarini, balki kuzatuvchangligi, diqqati, tafakkuri, idroki va boshqa psixik jarayonlarning rivojlanishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini korreksiyalash imkonini beradi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ona tili va yoquv darslarida grammatik tahlil usuli muhim ahamiyatga ega bo'lgan va eng ko'p ishlataladigan usullardan biridir. Grammatik tahlil orqali o'quvchilarning grammatika va imlodan olgan nazariy bilimlarini nutqiy amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aqli zaif bolalar nazariy bilimga ega bo'la turib. qoidalarni yod olib, biroq ularga amal qilmasligi mumkin. Bunday kamchilik nazariyaning amaliyotdan ajralib qolishi natijasida vujudga keladi. Aqli zaif bolalar egallab olgan bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotga tadbiq eta olmaydilar. Grammatik qoidadan mashqka o'tish – grammatik nazariyani grammatik amaliyot bilan bog'lash demakdir. Grammatik tahlil usuli xarakteriga ko'ra analitik mashq bo'lib, o'tilganlarni qaytarish va mustahkamlash, grammatika va imlodan o'quvchilar bilimini nazorat etish va baholash maqsadida o'tkaziladi.

Yordamchi maktabda mazmuniga ko'ra grammatik tahlilning to'rt xili qo'llanadi: **fonetik, morfologik, sintaktik va aralash**. Fonetik tahlilda so'z ichidagi bo'g'in. tovush va xarflar ajratiladi, ularning turlari (unli, undosh, jarangli, jarangsiz) aniqlanadi. Ushbu turdag'i tahlilda tovush artikulatsiyasi, qanday talaffuz etilishi va yozuvdagi uning belgisi - harf shakliga ham alohida e'tibor beriladi.

Morfologik tahlil ikki yo'nalishda o'tkaziladi: so'z tuzilishi va so'z turkumlariga ko'ra. So'z tuzilishi tahlilida o'zak, so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar, o'zakdosh so'zlar farqlanadi. So'z turkumlariga ko'ra tahlilda o'quvchilar so'zga svol berib, qaysi so'z turkumi ekanligini aniqlaydilar, ma'nosi(nimani bildirishi)ni. ayrim grammatik belgilarini aytib o'tadilar. Masalan paxtakor so'zi kim? so'rog'iga javob bo'lishi, so'z turkumlaridan otga kirishi. birlikda kelishi aniqlanadi. Ot so'z turkumini tahlil etishda avval so'roq beriladi, narsa nomini bildirishini, bosh kelishik shaklida ekanligi, birlik yoki ko'plikda kelishi tahlil etiladi. Agar egalik qo'shimchasi bo'lsa shaxsi aniqlanadi.

Grammatik tahlil xajmiga ko'ra to'liq yoki qisman bo'lishi mumkin. To'liq tahlilda nafaqat o'rganilayotgan grammatik hodisa, balki ilgari o'rganiganlari ham tahlil etiladi. Masalan, yordamchi matabning oltinchi sinfida «o'qidim», so'zini tahlil etganda, so'roq berish bilan fe'l ekanligi, uning bosh shakli (o'qi), bo'lishli yoki bo'lishsizligi (bo'lishli), shaxsi (1 shaxs), soni (birlik), zamoni (o'tgan zamon) aytildi.

To'liq bo'limagan, qisman tahlilda esa faqat o'rganilayotgan grammatik hodisagina tekshiriladi.

Shakliga ko'ra grammatik tahlil og'zaki, shartli belgilar bilan, yozmalarga bo'linadi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq shartli belgilar yordamida og'zaki tahlil o'tkaziladi va ba'zan yozuvga tushiriladi. Og'zaki tahlilni sintetik mashq bilan bog'lab o'tkazish qulay bo'lib, unda o'quvchilardan o'z fikrlarini tushuntirish, isbotlash va bog'lanishli bayon qilish talab etiladi.

Yozma tahlil, ko'p vaqt talab etishiga, yozuvdagagi texnik qiyinchiliklarga qaramay, turli yozuvlar va sxemalar vositasi bilan quyidagicha bajariladi:

1. So'z ustiga yoki yoniga (qavs ichida) so'z turkumi, uning shakli qisqartirib masalan ot-o. , sifat-s. , fe'l-f. , lshaxs-lsh. kabi yozib qo'yiladi.
2. Ot tagiga bir to'g'ri chiziq, sifatga to'lqinli, fe'lga ikki to'g'ri chiziq chiziladi. Gap bo'laklari ham xuddi shunday belgilanishi mumkin.
3. So'zning morfologik tarkibini turli belgilar bilan ko'rsatish mumkin. Masalan, gul-zor-ning, pax-ta-kor-lar kabi yoki kuyidagi sxemaga solib yozish:

So'z	O'zak	So'z yasovchi qo'shimcha	So'z o'zgartuvchi qo'shimcha
Gulchi	Gul	Chi	
Paxtazorga	paxta	zor	ga
Bog'bonchilik	Bog'	bon	chilik

Grammatik tahlil mavzuni o'rganish izchilligiga qarab ma'lum tartibda o'tkaziladi. Masalan, so'zning tarkibi yuzasidan og'zaki hamda yozma tahlilda ham avval o'zak, so'z yasovchi, so'ngra so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar ajratiladi. So'z turkumlarini tahlil qilishda esa mavzuni o'rganishdagi izchillikga asoslanadi. Masalan, har bir so'zga so'roq

berib, nimani bildirishi, so'z turkumining nomi, birlik va ko'plik - otta; fe'lning bo'lishli yoki bo'lisizlikni bildirishiga aytildi. Keyingi sinflarda esa qo'shimcha, masalan otning kelishigi, agar egalik qo'shimchasi bilan kelgan bo'lsa, shaxsini ham; fe'lning esa shaxs-soni, zamoni ham aytildi.

4. Gap bo'laklari jixatidan tahlilda so'zga so'roq berib, avval ikki bosh bo'lak (avval ega, so'ngra kesim) keyin esa ikkinchi darajali bo'laklar (avval ega va kesimga bog'lanib kelgan, so'ngra ikkinchi darajali bo'laklarga bog'lanib kelgan, ikkinchi darajali bo'laklar).

Savol va topshiriqlar

1. Grammatik tahlil turlarini izoxlang.
2. Grammatik tahlilga ko'yilgan talablar.
3. Fonetik mashqlar va ularni o'tkazish yo'llari.
5. Morfologik mashqlarni misollar bilan ta'riflang
6. Sintaktik mashqlar
7. Lug'aviy mashqlar
8. Grammatik mashqlarga qo'yiladigan talablar.

4. 4. To'g'ri yozuvni o'rgatishga oid ishlarni tashkil etish yo'llari, usullari.

Reja:

1. To'g'ri yozuvni o'zlashtirishning shart sharoitlari.
2. To'g'ri yozuv malakalarini xosil qilish mexanizmlari.
3. Savodxonlikni ta'minlovchi shartlar.
4. To'g'ri yozuvni o'rgatishga oid ish turlari.

Yozma nutq og'zaki nutq negizida shakllanadi. So'zlarini to'g'ri talaffuz qilish va idrok etish savodli yozuvning eng zarur omillaridan biridir. Psixolog va metodistlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra to'g'ri yozuv malakalari-orfografiyanı xosil qilishda ko'rish idroki, sezgisi va yozganlarini esda saqlash asosiy o'rinnegi egallaydi. Ularning fikricha, orfografik malakanı shakllantirish uchun, uning psixologo-fiziologik kelib kelib chiqqan holda. idrok va tasavvurga katta e'tibor berilishi lozim.

Hozirgi zamon ona tili metodikalarida ham imloni o'zlashtirishda ko'rish o'quvining ahamiyati nixoyatda katta ekanligi ta'kidlangan. Kuzatuvchan, ko'rish idroki yaxshi rivojlangan, ko'p o'qiydigan bolalar yaxshi, xatosiz yozadilar. Diqqat bilan o'qish so'zning shaklini eslab qolishga imkon yaratib, keyingi o'rganiladigan grammatik va orfografik

tushunchalarini umumlashtirishga yordam beradi. Ko'rish orqali esda saqlash, o'z yozganini tekshirish ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa yozuvga o'rgatishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilarning ko'ru uquvi, xotirasi, kuzatuvchangligi, diqqatini tarbiyalash juda muhimdir. Ko'rib esda saqlash yo'li bilan o'quvchilar imlo qoidalariga bo'ysunmaydigan, qiyin so'zlarning yozilishini bilib oladilar. O'qituvchi ushbu turdag'i so'zlarga alohida to'xtalib, ularning ro'yxatini doskaga osib qo'yadi, o'quvchilarning lug'at daftariga yozdiradi. Biroq orfografiya nafaqat ko'rib idrok etish yo'li bilan, balki boshqa usul va vositalar bilan ham o'zlashtiriladi. Ko'zi ojiz bolalar ham imloni yaxshi o'zlashtiradilar.

Savodli yozuv to'g'ri yozishga qaratilgan turli xil mashqlar asosida shakllanadi. To'g'ri yozuvga o'rganishda yaxshi eshitita olish, to'g'ri o'qish, yozuv qoidalariga rioya qilish, qo'l va barmoqlarni to'g'ri harakatga keltirish kabilarning ham ahamiyati katta. Shuning uchun so'zlarni yozganda qo'lni uzmasdan alohida xarflar emas, balki butun so'zni yoki uning bo'g'inlarini ajratib yozishga o'rgatish talab etiladi. Ko'rur uquvi va qo'l harakatlari birgalikda bajarilganda so'zlarning grafik obrazlari tasviri yaxshiroq esda saqlanib qoladi. Demak, to'g'ri yozuvni o'rgatishda barcha analizatorlarning faoliyati: ko'rur, eshituv, nutqni harakatga keltiruvchi hamda mayda qo'l muskullari harakati muhim ahamiyatga ega. Ularning birgalikdagi faoliyati orfografik sezgirlikni yaratadi, grammatik qoidalarini o'rganish hamda ularga amal qilish orqali savodxonlikni ta'minlaydi.

Maxsus metodikada to'g'ri yozuvni ta'minlovchi kuyidagi shartlarga amal qilish talab etiladi:

1. Yoziladigan matn, gap, so'z ma'nosi bolaga tushunarli bo'lishi kerak. Ko'chirib yozish yoki diktovka ostida yozish uchun beriladigan xar qanday so'z, gap ma'nosi oldindan tushuntirilgan bo'lsagina, o'quvchini ongli yozishga o'rgatish mumkin. Aks xolda bola gap yoki so'zni emas, xarf belgilarini rasm solayotganday chizadi xalos.
2. So'zning talaffuzi va yozilishiga, grammatic shaklga nisbatan e'tiborli bo'lish, ongli yozish va yodda saqlash. xatolarni payqab, ularni mustaqil tuzatish.
3. O'rganilgan materialni puxta o'zlashtirish. o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirish uchun so'z va gaplarni muntazam tahlil qildirib borish. bir xil o'zakli so'zlarni ajratib, ayrim o'xshash so'z va gaplarning o'qishash va farqli tomonlarini aniqlash.

4. Nutq faoliyatining barcha turlari ustida ishlash, so‘z va gaplarni fonetik, morfologik va sintaktik tomonidan tahlil etish, bog‘langan nutqni o‘stirish. Nutqning ayrim tomoni ustida ishlab, boshqa tomonlariga e’tibor susaysa bola savodxonligi pasayadi. Bu xol yuz bermasligi uchun orfografik mashqlar (ko‘chirib yozish, diktant) bog‘lanishli nutqni o‘stirish (bayon, insho) mashqlari bilan galma-gal o‘tkazilishi lozim.
5. Grammatik tushunchalar asosida olib boriladigan orfografik mashqlarni lo‘g‘aviy orfografik ishlar bilan almashtirib turish. Maktabda ko‘pgina so‘zlarning yozilishi lug‘atga suyangan xolda lug‘aviy-orfografik mashqlar yordamida o‘tkaziladi.
6. Barcha turdag'i xatolarni oldini olish, tekshirish, o‘z-o‘ziga nazorat qilish, baholash. Savodli yozuvni orfografik, morfologik, sintaktik va boshqa turdag'i xatolarni oldini olish ishlari ta'minlaydi. Yozishga doir topshiriqlarni xatosiz bajarish, bajarilishi lozim bo‘lgan, bajarilgan vazifalarning to‘g‘riligini o‘quvchilarning o‘zlarini tekshirishi (o‘z-o‘zini tekshirish), yo‘l qo‘yilgan xatolar ustida faol ishlash, bayon va insho turidagi mustaqil ishlarni bajarishga asta-sekin (bir necha darslar mobaynida) tayyorlab borish ijodiy xarakterdagi yozma ishlarni bajarish uchun sharoit yaratadi.
7. Izchilllik-bilim, ko‘nikma va malakalarning puxta bo‘lishini ta’minlaydigan tamoyillardan biridir. Ushbu tamoyil bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zaro bog‘liq xolda shakllanishini talab etadi. Masalan, qo‘s himchalarni o‘rganish vaqtida so‘z yasovchi qo‘s himchalarni so‘z o‘zgartuvchi qo‘s himchalar bilan qiyoslash va so‘z tarkibi haqida yaxlit tushuncha hosil qilish; sifat va uning belgilarini tushuntirishda otva uning m’nolarini takrorlab qiyoslash; tushum va qaratqich kelishigi qo‘s himchalarning yozilishini puxta o‘zlashtirish uchun shu kelishikdagi so‘zlar gap ichida qaysi so‘zlar bilan bog‘lanishini aniqlab, o‘zaro qiyoslash orqali qaratqich kelishikdagi ot va boshqa ot bilan. tushum kelishigidagi ot fe’l bilan bog‘lanishini tushuntirish va h. k.

Har qanday malaka uzoq vaqt o‘tkaziladigan mashqlar tufayli shakllanadi. Orfografik malakalar uzoq vaqt ichida xilma-xil usullar bilan turli mashqlarda shakllanadi. Masalan, o‘rganiladigan so‘z yoki gapni avval o‘qituvchi o‘zi so‘ngra o‘quvchi adabiy til normalariga rioya qilgan xolda aniq talaffuz etadir. O‘quvchilar tarqatma material, kartochka, doska yoki darslikdagi topshiriqni o‘qiydilar. Natijada ular ongida so‘zning yozilishi va eshitilishi saqlanib qoladi. So‘ngra

mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi, tushuntiriladi. Orfografik qoidani tushuntirishda avval shu qoida qaysi grammatik hodisaga asoslanganligi qayd etiladi. Masalan, fe'llardagi bo'litsizlik ma'nosi –ma qo'shimchasini qo'shish bilan ifodalanishi haqidagi grammatik hodisaga suyaniladi va qanday talaffuz qilinishidan kat'iy nazar, bo'lishsizlik qo'shimchasi –ma shaklida yozilishi tushuntiriladi bo'lmaydi, yozmaydi, aytmaydi.

Ayrim xollarda o'quvchi qoidani biladi, biroq yozuvda xatoga yo'l qo'yadi. Xato qoidani tushunib yetmaslikdan kelib chiqadi. Buni tuzatish uchun o'qituvchi raxbarligida o'quvchilar til hodisalarini kuzatadilar, tahlil etadi, solishtiradi, o'z muloxazalari asosida xulosa chiqaradilar va nixoyat, qoida chiqarishga erishadilar. Oldingi misollarni o'qib, kuzati va qiyoslab, o'quvchi bo'lishsizlik qo'shimchasi –ma ayrim so'zlarda –mi shaklida talaffuz qiligar, ammo xar vaqtida –ma shaklida yozilar ekan degan xulosaga keladi, o'qituvchi qoidani to'ldirishga yordam beradi so'ngra qoida kitobdan o'qiladi. Shu darsning o'zida o'rganilgan qoida mashqlarda mustaxkamlanadi. Navbatdagi mashqlar orqali o'quvchilar tushungan tushunmaganlari aniqlanadi; O'qituvchi qoidaga mos so'zlarni aytadi, o'quvchilar qoidani qaytaradilar, misol bilan bog'laydilar. Endi o'rganilayotgan nutq hodisasi gap ichida beriladi, o'quvchilar o'rganilayotgan qoidaga muvofiq so'zlarni topib, asosiy belgilarni aytadilar va qoidani konkret so'zlar bilan bog'laydilar. Natijada qoida ravshanlashadi, to'liq o'zlashtiriladi.

Qoidaga oid bilim qo'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanib boradi. Bu ish xilma-xil mashqlarni bajartirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mashq turlari rang-barang. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Grammatik tahlil asosidagi orfografik mashqlar. Bunda grammatik va orfografik hodisalar orasidagi munosabatni o'rganish yuzasidan ko'nikma xosil qilinadi. Orfografik qiyinchiliklar, yozishda ikkilaniladigan o'rirlari aniqlanadi. Mashqdagagi kerakli so'z, so'z birikmasini o'quvchi o'zi topib, tahlil qilib berishi, tushuntirishi. isbotlab berishi, solishtirishi zarur. Masalan, otlardagi kelishik qo'shimchalarining yozilishini tushuntirishda, o'qituvchi otlarni topish, kelishik qo'shimchalarini aniqlash. nima uchun u yoki bu kelishik qo'shimchasi yozilganini tushuntirish, shunga o'xshash boshqa misol topish vazifasini beradi. O'quvchilar topshiriqni mustaqil, zarur bo'lganda o'qituvchining yordami bilan bajaradilar. Orfografik

mashqlar matnni tahlil qilishdan boshlanishi foydali. Masalan, matnni ko'chirib yozishdan oldin so'z ichidagi unli va undosh tovushlarni topadilar, undoshlarning jarangli va jarangsizlarini anitqlab, qaysi xarf yozilishi kerakligini ani qlaydilar so'ngra matnni ko'chirib, tahlil vaqtida an iqlangan xarflaming tagiga chizadilar.

Tahlil ikki xil o'tkaziladi. Matnni ovozsiz ko'rib turib o'qish; ovoz bilan o'qish. Bularning xar ikkalasi ham ahamiyatli bo'lib, ko'ru uquviga, ikinchisi esa eshituv uquviga asoslanadi.

O'quvchilar diqqatini faollashtirishmaqsadida tarqatma materiallar, kartochkalar bilan yangi pedagogik texnologiyalar asosida ishlanadi. Masalan, d, t xarflari tushirib qoldirilgan kartochkalar tarqatiladi. O'qituvchi shu qoidaga oid boshqa so'zlarini aytib, oxirida qaysi xarf yozilishini so'raydi, o'quvchilar qo'llaridagi so'zlar ichida qaysi xarf yozilishi kerakligini aytadilar. So'zlar yozilgach, shu xarflar tagiga chiziqcha chiziladi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida kartochkalar bilan ishslash o'quvchilar diqqatini faollashtiradi, o'quvchilar bilim saviyasini, o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Ko'chirib yozuv. Ko'chirib yozish turli xil bo'ladi. Qo'l yozma xarf bilan yozilgan matnni ko'chirish, bosmacha xarfli matnni ko'chirib yozish; ko'chirib yozishni o'zi, qisman ko'chirish, aytgan joylarini topib ko'chirish; turli topshiriqlarni bajarib, ko'chirish va x. k.

Ta'limning dastlabki davrida ko'rib turib yozish talab etiladi. Keyinchalik ish murakkablashib boradi. So'zlar berilgan rasmlar tartibida; gap ichida so'z o'mi almashtirilib berilgan matnni to'g'ri ko'chirish; matn ichidan kerakli so'z va gaplarni topib ko'chirish, namunaga qarab yozish va boshqalar. Bunda so'zning talaffuzi, shakli ustida ishslash, yoddan yozishga o'rgatish ishlari amalga oshiriladi. Ayrim xollarda ko'chirib yozish ayrim grammatik-orfografik topshiriqlarni bajarishdan boshlanadi. Masalan zarur xarf yoki xarf birikmasini topish. ko'chirib bo'lgandan so'ng tagiga chizish; so'z turkumlarini (ot, sifat, fe'l, olmosh) yoki ularning belgilarini (otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi, bo'lislashi va bo'lislisiz fe'llar; otlarning egalik va kelishik bilan turlanishi; fe'larning shaxs-son va zamonini) aniqlash va yozuvda shu so'z oldiga yoki qavs ichiga, ba'zan so'z ustiga yozib belgilanadi.

Ko'chirib yozuvni orfografik mashq sifatida o'tkazishda kuyidagi shartlarga rioya qilish tavsiya etiladi: 1. o'quvchilar ongiga mos keladigan, qiziqarli material tanlash va tahlil etib, so'ngra ko'chirish.

2.- Kitob va doskadan ko'chirib yozish texnikasini o'quvchilarga o'rgatish – avval o'qi, o'ylab ko'r, tushunarlimi?, nimani yozasan? Shu so'zning yozilishini esda saqla. Endi yozib tekshir. Asta-sekin o'quvchi nafaqat so'zlarni, balki gap va matnlarni ko'chirib yozishga, uni kitob yoki doskadagilar bilan solishtirib tekshirishga o'rganadi. Buning uchun matnni diqqat bilan o'qiydilar, so'zlarni bo'g'inlab o'qib, xatolarini tuzatadilar.

Tanlab ko'chirish -yozishning faol turi bo'lib hisoblanadi. Bunda matn ichidan ma'lum so'z, gap, iboralar, grammatic formalar topib yoziladi. Masalan, matn ichidan bir xil o'zakli so'zlarni ko'chirib yozish, so'z yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizish, matndagi birlik va ko'plikdagi so'zlarni ikki ustun shaklida yozish; hayvonlar, o'simliklar, kiyimlar nomini ko'chirib yozish kabi va boshqa mashqlardan ham foydalanish mumkin.

Yoddan yozish – o'quvchilarning orfografik ziyrakligini o'stirishga mo'ljallangan mustaqil mashq turi hisoblanadi. Yoddan yozish uchun doskaga yozilgan yoki kitobdag'i matn orfografik tahlil qilinganidan so'ng yodlatiladi va berkitib qo'yiladi. O'quvchilar yodlagan she'riy yoki prozaik asarni yoddan yozadilar. Yordamchi matabda diktovka qilib yozdirish ham mumkin. O'quvchilar yozib bo'lgach, matn ochiladi va ular yozganlarini tekshiradilar.

Ayrim vaqtarda matn bir kun oldin chuqur tahlil etilgach, u uuda ko'chirib yozishga topshiriladi, keyingi darsda diktovka asosida yozdiriladi, so'ng kitobdagiga solishtirib tekshiriladi. Bunday ish turi ko'rvu diktanti deb ham yuritiladi.

Yoddan yozish imlosi qiyin so'zlarni o'rgatishda ham juda qulay ish turidan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda ishlar grammatic va orfografik mavzularni o'rganish bilan birga qo'shib olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga imlosi qiyin so'zlearning yozilishini esda saqlab qolishini ta'kidlaydi va buning uchun kuyidagi ish turlarini bajartiradi: 1. so'zni vval ichda ovozsiz, so'ngra diqqat bilan ovoz chiqarib o'qish; 2. so'z ma'nosini tushunib olish; 3. So'zlarni bo'g'inlab o'qish va yozish; 4. so'zning esda saqlash lozim bo'lgan o'rni tagiga yozish; 5. yozganlarni lug'atdan tekshirish; 6. shunga o'xhash boshqa so'z topib, uni yozish.

Erkin ko'chirib yozish. Matnni o'qib, tahlil etib. Kitobni berkitib qo'yib, o'quvchilar eslab qolganlarini erkin yozadilar.

Grammatik topshiriqli ko'chirib yozish. Bunday ko'chirib yozishda o'quvchilar mashq ichida berilgan kuyidagi kabi topshiriqlarni

- bajargan xolda ko'chiradilar: 1. tushirib qoldirilgan xarfdan mosini qo'yib ko'chirish; 2. tushirib qoldirilgan so'zlardan mosini o'z o'miga qo'yib gaplarni ko'chirish;
3. berilgan gap va so'zning shaklini o'zgartirib ko'chirish. Bunday ko'chirib yozuvni nazorat ko'chirib yozish deb ham yuritiladi.

Ko'chirib yozishni bog'lanishli nutqni o'stirish maqsadida ham o'tkazish mumkin. Buning uchun matnda berilgan savollarga javob yozdirish mumkin. O'quvchilar matnni kitobdan o'qiydilar, savollarga avval og'zaki, so'ngra yozma ravishda javob beradilar.

Savol va topshiriqlar

1. Yordamchi matabda grammatik tushunchalarni mustaxkamlashda qaysi turdag'i mashqlar ishlataladi?
2. To'g'ri yozuvni o'zlashtirishning shart-sharoitlariga nimalar kiradi?
3. Savodxonlikni ta'minlash shartlarini aytib bering.
4. To'g'ri yozuvga o'rgatish turlaridan qaysilarini bilasiz?

4.5. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida yozma ishlari va ularni o'tkazish metodikasi.

Reja

- 1.Yozma ishlarning turlari
- 2.Mehnat ta'limi maktabida ko'chirib yozish
- 3.Diktant turlari va ulami o'tkazish metodikasi
- 4.Ko'rsatish diktanti.
- 5.Eshitish diktanti
- 7.O'z diktant yoki yoddan yozish
- 8.Erkin va ijodiy diktant
- 6.Nazorat diktanti

Yozma ishlari turlicha bulishi o'quvchilarda yozuvga bo'lgan muhabbatni orttiradi va taraqqiy ettiradi. Har turdag'i yozma ishlarning tafakkurini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, uning biliminn mustaxkamlaydi, takomillashtiradi. Yozma ishlarning kuyidagi turlari mavjud: 1.Kuchirib yozish 2.Diktant 3. bayon 4.Insho.

Maxsus matabda olib boriladigan yozma ishlarning barcha turlari orfografik malakalarni shakllantirishga, mustaxkamlashga, o'quvchilarning ongli yozishlarini ta'minlashga va ishl qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan. Matnni kuchirib yozishni bolalarga orfografik,

grammatik, stilistik topshiriqlarni bajartirish bilan birligida qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir. Bunday kuchirib yozishga kuyidagilar kiradi:

- 1.Gapdag'i tushirib qoldirilgan so'z yoki bo'g'inni qo'yib kuchirish.
- 2.Mazmun talabi bilan matnda berilgan so'zni o'zgartirish.
- 3.Berilgan namuna yoki grammatik toppshriq asosida matn yoki so'z shaklini o'zgartirish.
- 4.So'zlardan (betartib berilgal) ran tuzish.
- 5.Berilgan so'zlar ishtirokida ran tuzish va uni kengaytirish.
- 6.Berilgan namunaga o'xhash gap tuzish.
- 7.Savollarga javob berish va uni yozish
- 8.8. So'zlarga savol berish.
9. So'zlar ustiga qaysi grammatik shaklda ekanligini yozish.
10. Berilgan gaplarni kengaytirish.
- 11.O'qilgan va tahlil qilingan matn bo'yicha savollarga javob berish.
- 12.Berilgan matnni hech qanday o'zgartirishsiz yaxlit kuchirib yozish ham mumkin.

Ammo bunday ish davrida albatta undagi so'zlarni grammatik taxlil qilib, orfografik qiyinchiliklarni ta'kidlab borish, ularni ajratish foydalidir. So'zlarni ajratib yozish yoki tasniflash ishlari birga olib borilishi lozim.

Maxsus mакtabda kuchirib yozish turi 2 shaklda buladi: doskadan, jadvaldan yozish; kitobdan ko'chirib yozish. (Bosmacha harfli yoki qo'l yozma harfli matnni)

Diktant turlari va ularni o'tkazish metodikasi.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida o'quvchilarning nutqini shu jumladan ularning yozma nuggini ustirishga katta ahamiyat beriladi. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirish, ularni savodxon qilish maqsadida yozma ishlarning bir necha turidan frydalaniadi. Ana shu yozma ish turlaridan biri- **diktantdir**.

1-9 sinflarda diktantlar asosan ikki maqsadda o'tkaziladi:

a) Grammatika, orfografiya va punktuaqiyadan o'tilgan qoidalarni puxta bilib olishga yordam beradigan, ularni mustaxkamlaydigan. takomillashtiradigan ta'limi **diktant**.

b) Grammatika, orfografiya va punktuatsiyadan o'tilgai qoidalarni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini **nazorat** qilish sinash, tekshirishga imkon beradigan **kontrol** diktant.

Yordamchi mehnat ta'lifi maktabida dastur buyicha o'tkaziladigan material asosida alovida diktantlar to'plami mavjud. Ushbu to'plamda kuyidagi diktant turlari tavsiya etilgan:

1. Eslatish diktanti,
- 2.O'z diktant yoki yoddan yozish.
3. Saylanma diktant.
4. Erkin diktant.
5. Ogoxlantiruvchi diktant.
- 6.Tushuntiruvchi diktant.
- 7.Ijodiy diktant.

Eslatish diktanti o'tkazilish usuliga qarab 2 xil buladi: 1.Kurish diktanti. 2.Eshittirish diktanti

Kirish diktantini mehnat ta'lifi maktabining 1-9 sinflarda qo'llash mumkin. Diktantning bu turi uch xil variantda o'tkaziladi.

1-Variant: o'qituvchi o'tilgan mavzuga mos biror matnni diktantlar tuplamidan tanlaydi va uni chiroyli yozish qoidalariiga katyiy rioya qilgan xolda doskaga yozadi. Masalan: 3- sinfda «Darak ran» mavzusi o'tilganda darak gapning oxiriga yozuvda nuqta kuyilishi va har bir darak ganning bosh harf bilan boshlanishi ukuvchilarga tushuntiriladi. Buning uchun o'qituvchi doskaga yozilgan matnni shoshmay ukiydi, so'ngra bolalar matn mazmunini tushunganyoki tushunmaganini aniklash maqsadida savollar beradi. Savol- javobdan keyin matnni ukituvchi ikkinchi marotaba o'qiydi. So'ngra darak gaplar oxiriga nuqta qo'yilishini va nuqtadan keyin bosh harf bilan yozilishini eslatib utadi. Shundan keyin matn berkitiladi: o'qituvchi har bir ganni alovida diktovka qiladi. Nuqta qo'yilishini aytmaydi. Matn yozib tugatilgandan keyin doskadagi matn ochiladi. O'quvchilar yozganlarini doskadan tekshiradilar.

2-Variant: kursatish diktantining bu turi birinchi variantdan ozgina fark kqladi. Doskada matn tuliq yozilmaydi, balki orfografiyasi ukuvchilarga tushuntirilishi kerak bulgan so'zlargina yoziladi xalos. Masalan 4 yoki 5 sinfda "So'z oxirida ba'zi undoshlarning aytilishi va yozilishi" mavzusi utiladi. Bu mavzu o'tilganda so'z oxirida jarangli undoshlar jarangsizlanib eshitilsa ham, ammo yozuvda har doim b va d yozilishi haqida ma'lumot beriladi, bu ma'lumotni o'quvchilarning

xotirasida yaxshi qoldirish, ularda orfografik malaka hosil qilish uchun ko'rsatish diktantining 3 variantidan foydalanish mumkin. Masalan, O'qituvchi "Yulda" matnni bir marta o'qib beradi.

Matnning mazmunini bir ikki o'quvchidan so'ragach, o'qituvchi doskaga Maxmud, Axmad, maktab, ushlab, oldi, quvonib ketdi, yetishdi so'zlarini yozadi. Doskaga yozilgan so'zлarni 3-4 o'quvchiga, uqitadi. Maktab, ketdi kabi so'zlar uqilganda -b urnida -p, -d urnida -t eshitilsa ham, yozuvda har doim -b va -d yozilishini yana eslatadi. Savol javobdan keyin doskadagi so'zlar berkitiladi. O'qituvchi matnni diktovka qila boshlaydi. O'quvchilar yozishga kirishadilar, so'ng yozganlarini tekshiradilar. Oradan bir necha minut o'tgach, o'qituvchi daftarlarni yig'ib oladi va dars yakunlanadi.

Ikkinci variantda diktant uchun matn ukuvchilar qo'lidagi "Ona tili» darsligi yoki "O'qish kitobi"dan tanlanadi. O'qituvchi uzi matnni sinfda bir marta o'qib beradi, ukuvchilar tinglaydilar. Matn o'qib bulingach, uning mazmuni bir ikki o'quvchidan suralishi ham mumkin. Agar matnda anglash kiyin bulgan so'zlar uchrasa, ularpi o'qituvchi doskada qanday yozilishini tushuntiradi.

Shu so'zlar ikki uch o'quvchiga uqitiladi. O'quvchilar uz kitoblarini berkitib kqyadilar. Doskaga yozilgan so'zlar ham berkitiladi. O'qituvchi matnni diktovka qiladi, o'quvchilar yozishga kirishadilar. Kurish diktantining uch xil variantidan qaysi biri kuproq foyda bersa, ish jarayonida kulaylik tug'dirsa. shu variant qullanilishi kerak. Yuqoridagi variantlar uchun beriladigan matn mazmuni sinfdagi barcha ukuvchilarga tushuntiriladi. Shu bilan birga diktantdagi so'zlar soni har darsda oshib borishi kerak.

Diktantning bu turini kurish diktanti deb atalishining sababi shundaki bu diktantda asosan ukuvchining kuruv idroki katnashadi, o'quvchilarning ba'zilarida eshituv idroki vositasi bilan so'zлarni to'g'ri yoza olish malakasi usmay qolgan bo'lishi mumknn.

Eshitish diktantida o'quvchining asosan nutqiy idroki. eshitish analizatori katta rol uynaydi. Eshitish diktantida odatda matnni yozishga kirishishdan oldin ba'zi so'zlar tahlil qilinadi. O'tilgan qoidalar eslatiladi. O'quvchilarning orfografik malakasini oshirish maksadida diktant utkazishdan 2-3 kun ilgari (o'tkazilishi lozim bulgan) matnni o'qituvchi kitobdan o'qib kelishni topshiriq qilib beradi. Eshitish diktanti o'quvchilarga o'rgatilgan koidalarni puxta anglab olishlariga yordam beradi. Bundan tashqari uning uzoq esda saklab kolish, eishtgan gapni tezda yoza olish malakasini xosil qiladi.

o'quvchilarning nutqinn ustirishga yordam beradi. Ukituvchi o'tilgan mavzularni qanchalik o'zlashtirganliklarini bir soatlik eshitish diktanti yordamida osonlik bilan bilib oladi.

Eshitish diktanlarida matnni yozishga kirishishdan oldin orfogrammalar, o'tilgan qoidalar eslatiladi, ularga og'zaki izox beriladi; kontrol diktantda esa bu bo'lmaydi. O'qituvchi eshitish diktanti uchun o'tilgan qoidalarga mos keladigan gap va so'zlar tuzish, xikoya yoki bir necha terma gap bilan diktant utkazishi mumkin.

Eshitish diktanti o'tilgan grammatika, orfografiya koidalarini tinish belgilarini ukuvchilarga singdirishda, mustax.kamlashda katta ax;amiyatga ega. O'qituvchi matndagi gapning sodda-murakkabligiga, gapdagi so'zlarning soniga ham e'tibor berishi keraq. Diktant uchun tanlangan matnda izoh berishni talab qiladigan so'zlar bo'lmasligi kerak. Aks xolda diktant yozayotgan vaqtida ayrim sqzlarini tushuntirishga bir necha minut vaqt sarf etilib, belgilangan vaqt ichida matnni yozib tugatib bo'lmaydi.

Kontrol diktant.

O'qituvchi yo'qlama qilib o'quvchilarning darsga xozirligini ko'zdan kechirgandan keyin diktant o'tkazishni eslatadi. O'quvchilarning diqqatini o'ziga to'la jalb etib, diktant uchun tanlangan matnni shoshmasdan, gaplarning oxangiga kat'iy rioya qilgan holda bir marta o'qib beradi. Matn o'qilayotganida o'quvchilarning turli ishlar bilan shug'ullanishlariga mutlaqo yul qo'ymasligi shart. Matnda ma'no jixatdan qiyin so'zlar uchrasa, o'qituvchi bu so'zlarini doskaga yozadi va ularning ma'nosini tushuntiradi yoki yozilishiga qisqacha izoh beradi. Shundan keyin diktantning sarlavxasi va sanani doskaga yozadi. Bu ishlarning hammasi uchun taxminan 10-12 minut vaqt sarf etilishi kerak. O'qituvchi diktovka kilib turadi, o'quvchilar esa o'z daftarlariga yoki berilgan qog'ozga yozadilar. Diktovka vaqtida har bir gapning intonaqiyasiga to'liq rioya qilishi zarur. Lekin o'qituvchi hech vaqt so'zni bo'g'lnlarga bo'lib yoki so'zma-so'z diktovka qilmasligi zarur. Har bir gan yoki so'z birikmasi ikki-uch martadan ortiq takrorlanmasligi lozim. O'qituvchining diktovka qilish sur'ati esa sinf o'quvchilarining matnni me'yorda yozib ulgura olishlarini hisobga olgan holda bo'lishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi ma'lum materialni o'tib bo'lganidan keyin, shy mavzu usgida o'quvchilarni

mashq qildirish maqsadida eshitish diktantidan foydalansa (faqt o‘z vaqtida), o‘quvchilarning yozma nutqi yanada rivojlanadi.

Kontrol diktant o‘quvchilarning o‘tilgan mavzularini qay darajada qzlashtirganliklarini, orfografiya qoidalariga qay darajada rioya qilishini nazorat qilish, tekshirish, sinash hamda ularning savodxon bo‘lishini ta‘minlash maqsadida o‘tkaziladi. Kontrol diktantni har uch turt xafizada bir marta dasturdagi biror bulim yoki katta mavzu utib bulingandan keyin utkazish ma’kuldir.

O‘qituvchi kontrol diktant utkazishdan bir necha kun avval matn tanlaydi, tanlangan matn o‘quvchilarni tarbiyalash uchun xizmat qiladigan, ularni qizikтирадиган, ruhiy oziq berадиган bo‘lishi kerak. Tanlangan matnning mazmuni, so‘z boyligi va xajmi, sintaktik tuzilishi diktant o‘tkaziladigan sinf o‘quvchilariniig bilim saviyasiga qiziqishiga mos bo‘lishi l ozim. Bundan tashqari, tanlangan matn o‘tilgan qoida va orfogrammalarini, tinish belgilarini mumkin qadar o‘z ichiga ko‘proq olgan bo‘liish kerak.

O‘tilgan qoidalarni uz ichiga qamrab olgan aloxida-aloxida gaplar tanlash mumkin. Lekin ularda orfografnyasi o‘tilmagan va notanish so‘zlar bo‘lmasligi kerak.

O‘quvchilar kontrol diktant yozganda, ularning butun diqqati har bir qoidaga jalb etiladi. Kontrol diktantni o‘tkazishdan avval o‘tilgan materiallarni takrorlab olish haqida o‘quvchilarni ogoxlantirib qo‘ygan yaxshi.

Bu topshiriq har bir o‘quvchini o‘tilgan qoidalarni qayta-kayta o‘qib chiqishga majbur etadi. Kontrol diktantda ta‘limiy diktantdagi kabi, so‘zlar soni asta-sekin ko‘payib boradi. Yil boshida o‘tkaziladigan diktantdagi so‘zlar soni oldingi sinf yil oxirida o‘tkazilgan diktantdagi so‘zlar soniga barobar bo‘lishi kerak. 1 va 2 chorak boshiga kelib matndagi so‘zlar soni shu sinf uchun belgilangan miqdorga yetishi zarur. Davlat ta‘lim standartlari talablaridan kelib chiqqan xolda yordamchi mehnat ta‘limi maktabida o‘quv yili oxirida 1-9 sinflarda har bir kontrol diktantdagi so‘zlarning soni taxminan quyidagicha bo‘lishi kerak:

1-sinfda savod urgatishning 2-bosqichida 6-12 so‘z; 4-bosqichning oxirida 10-14 so‘z;

2-sinfda o‘quv yilining birinchi yarmida 10-14 so‘z. O‘quv yilining ikkinchi yarmida 17-20 so‘z;

3-sinfda O‘quv yilining ikkinchi yarmida 20-30 so‘z;

- 4- sinfning ikkinchi yarmida 30-40 so‘z;
- 4- sinfda 40-50 so‘z va x.k.

O‘quvchilar diktant yozayotgan vaktda o‘qituvchining sinfda noo‘rin harakat qilishi man etiladi. Bolalarni bir-biri bilan gaplashishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Kontrol diktant yozib bulingach, o‘qituvchi 1-2 minutdan so‘ng matnni shoshilmasdan boshidan bir marta o‘qiydi. Hamma o‘quvchilar o‘z yozganlarini tekshiradi. O‘qituvchi matnni o‘qib bo‘lganidan keyin o‘quvchilarga uz ishlarini mustaqil tekshirishlariga ham imkon berish kerak va bunga 3-5 minut vaqt ajratish kifoyadir. O‘quvchilar diktantni tekshirib bo‘lganlaridan so‘ng o‘qituvchi daftarlarni yig‘ib olishi zarur.

Kontrol diktantni oxirgi soatda, fizkultura va mehnat darslaridan keyin o‘tkazish tavsiya etilmaydi.

O‘z diktant yoki yoddan yozish.

O‘z diktant 4-7 sinflarda o‘tkaziladi. Bu turdagи diktant o‘quvchilarga grammatika va orfografiyadan olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam berishi bilan birga og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda ham katta ahamiyatga ega. O‘z diktant o‘tkazish uchun o‘tilgan qoidaga va sinf o‘quvchilarining saviyasiga mos keladigan kichik bir parcha (agar she‘riy asar bo‘lsa, bir to‘rtlik) tanlanadi. Tanlangan parchani o‘qituvchining o‘zi bir necha marta o‘qib beradi. O‘quvchilar matnni yodlab olgach, matn bekitiladi. O‘quvchilar yodlab olganlarini daftarga yozadilar. Shuniig uchun ham diktantning bu turi o‘z diktant yoki yoddan yozish deb yuritiladi. O‘quvchilar diktantni yozib bo‘lganlaridan so‘ng, doskadagi matn ochiladi. O‘quvchilar yozganlarini doskadagi yozuv bilan solishtiradilar va o‘z xatolarini tuzatadilar. O‘qituvchi parta oralab o‘quvchilar ishini tekshiradi.

So‘ngra daftarlarni yig‘ib oladi. O‘z diktantda o‘tilgan mavzularni mustaxkamlash maqsadida qo‘srimcha topshiriqlar ham berish mumkin. Masalan, qo‘shtiqdagi buyumni bildiradigan so‘zlarni tagiga chizish va ularning bosh harf bilan yozilish sababini aniqlash kabi va boshqalar. Bunday qo‘srimcha topshiriqlar o‘quvchilarni yanada qiziqtiradi, ularning faolligini oshiradi. 5-7 sinflarda vaqt – vaqt bilan o‘z diktant o‘tkazib turish kerak.

Saylanma diktant.

Saylanma diktantda matn to‘liq diktovka qilinadi, o‘quvchilar esa ayrim so‘z va gaplarin yozadilar xolos. Grammatika va orfografiyadan biror mavzu o‘tilgandan keyin shu mavzuni

mustahkamlash maqsadida saylanma diktant o'tkaziladi. Masalan, 6-sinfda kelishiklar o'tilganda, qaratqich kelishigi qushimchasini yozilishini o'quvchilarga chuchurroq singdirish uchun "Bir dehqonning oilasi" matni olinadi. O'qituvchi matnni doskaga yozib bir marta o'qib beradi. Jonli tilda qaratqich kelishigining qo'shimchasi ko'pincha -ni eshitilsa ham, yozuvda -ning yozilishini ta'kidlaydi va matndan misollar keltiradi.

Shundan keyin matnnn o'quvchilarga o'qitib, ularning diqqatini orfogrammalarga jalb qiladi. So'ngra doskaga yozilgan matnni berkitadida, tushuntirishdan keyin, o'qituvchi matndagi gaplarni asta-sekin diktovka qila boshlaydi. O'quvchilar diktant matnidan qaratqich kelishigidagi so'z bilan egalik qo'shimchali so'zni yozadilar.

Saylanma diktant matni yozib bo'lingach ish o'qituvchi boshchiligidagi jamoa bo'lib tekshiriladi. Doskadagi matn ochiladi. Ukituvchn doskada yozilgan matndagi qaratqich kelishikdagi so'z bilan egalik qo'shimchali so'z tagiga chizadi. O'quvchilar yozganlarini doskadagiga solishtiradilar. O'qituvchi parta oralab yurib, o'quvchilardagi xatolarni qizil siyoh bilan tuzatadi, ayrim o'quvchilarga chiroyli yezish kerakligi g'aqida ko'rsatma beradi. Saylanma diktantda ma'lum qoida mustahkamlanishi bilan birga o'quvchilar har bir gap, so'z birikmasiga diqqat bilan qarashga o'rghanadilar. Bundan tashqari, matndagi gaplardan kerakli so'z, grammatik shakl, co'z birikmasini tezroq topa olishga o'rghanadilar.

Erkin diktant.

Erkin diktant bayonnng soddarroq bir ko'rinishn bo'lib, odatda yordamchi mehnat ta'limi matabining 3-4 sinflarida o'tkaziladi.

Erkin diktantda o'quvchilar so'z va grammatik formalarni o'zgacha, zrkin ishlata oladilar. Erkin diktant o'tkazish metodi kuyidagichadir: O'quvchi tanlangan matn sarlavhasini doskaga yozadi va matnni bir marta o'qiydi. Agarda matnda o'tilmagan orfogramma va notanish so'zlar bo'lsa, doskaga yozib ko'rsatiladi, tushuntiriladi. O'quvchilarning qanchalik tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Shundan so'ng o'qituvchi matnni bir martta o'qib eshittiradi. Co'ngpa bo'limlarga bo'lib o'qiydi. Agar o'qituvchi 3 ta gan o'qisa, o'quvchi xuddi shu fikrni ko'proq gaplar orqali ifoda etishi mumkin. Bir bo'limni bolalar yozib bo'lgach, o'qituvchi keningi bo'limni o'qiydi. Ish shu yo'sinda davom etadi. Erkin diktant o'quvchilarni o'qilgan matnni yaxshiroq esda saqlab

qolishda , atrofdagilar nutqini diqqat bilan tinglashda, og'zaki va yozma nutqni o'stirishda, muxim ahamiyatga ega. O'quvchi erkin diktant matnidagi sujetni tushunib olganlarini yozish bilan birga undagi so'z va so'z birkimlarini mustaqil nutkda ishlatalishga, ularni to'g'ri yozishga harakat qiladi. O'tilgan tinish belgilarining ishlatalishini o'zlashtirish, mustaxkamlashda ham erkin diktantning ahamiyati katta. Sinfdag'i uo'quvchilarining bilim saviyasi, o'zlashtirishiga qarab, erkin diktant matni ham murakkablasha boradi, undagi so'zlarning soni ham orta boradi.

Erkin diktant dars tarkibida bir bosqich sifatida mashq tarzida o'tkaziladi. Shuning uchun ta'limiy diktantdagi so'zlar soni kontrol diktantlardagi so'zdardan oz bo'ladi.

Erkin diktantni o'qituvchi parta oralab tekshiradi yoki daftarlarni yig'ib oladi. O'qituvchi erkin diktant o'tkazishda o'quvchilardan matnni aynan o'zidek, o'zgartirmasdan yozishnn talab qilmaydn. O'quvchi yozma ishda so'zlarни almashtirib, gaplarni kengaytrib yoki qisqartirib yozishi mumkii.

Shunday qilib, erkin diktant bir tomondan o'quvchilarining orfografik, punktuatsion va stilistik xatolarining kamayib borishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan ularni bayon, insholar yozishga o'rgatadi, yozma nutqlarida boshqalarning gapini o'zgartirib, o'zgacha ishlatalishga urgatib boradi, bog'langan yozma nutqini rivojlantiradi.

Ijodny diktant.

Barcha turdag'i diktantlar kabi, ijodiy diktant ham o'quvchilarga o'tilgan qoidalarni puxta o'zlashtirishga, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga yordam beradi. Ijodiy diktantda matn diktovka qilinmaydi. O'quvchilar o'zlarini berilgan so'zlar bilan mustaqil ishlaydilar. Shunga ko'ra ijodiy diktantni berilgan so'zlar asosida bayon yozish deb nomlash ham mumkin. O'quvchilar diktantning bu turida so'zlarini o'z o'mida, to'g'ri ishlata olishga, ran va kichik, sodda xikoya tuzishga, ya'ani ijod qilishga o'rganadilar. Bu turdag'i diktant bayon yozishga zamin hozirlaydi. Ijodiy diktant uch xil variantda o'tqazilishi mumkin.

1 Variant: O'qituvchi ma'lum mavzuga doir savollarni doskaga yozadi. O'quvchilar avval og'zaki, keyin yozma javob beradilar.

Masalan: 6 sinfdagi "Turdosh va atoqli otlar» mavzusini mustahkamlash uchun quyidagi savollar vositasida ijodiy diktant o'tqazsa bo'ladi.

1.Kaysi shaharlarning nomini bilasiz?

2.O'rtoqlaringizning ismi va familiyasini yozing va x.k.

Boshqa vriantda masalan, 8 sinflarda ijodiy diktant quyidagicha o'tkaziladi: o'quvchilar gapdag'i tushirib qoldirilgan biror so'zni o'zlar o'ylab topib-ijod kilib, gaplarni to'ldirib ko'chiradilar yoki biror mavzuda yaxlit xikoya tuziladi. Matn yozishda qiyalsalar, u vaqtida bir-biriga mazmunan bog'lanmagan gaplar tuzish ustida o'quvchilarni mashq kildirish zarur. Bunday mashq o'quvchilarni ran tuzishga o'rgatadi. Shundan keyin ulardan yaxlit matnni yozish talab qilinishi mumkin.

O'qituvchi ijodiy diktantga puxta tayyorlanishi, qanday mavzuda ijodiy diktant o'tkazilishini va qaysi so'zлarni doskaga yozib berishini oldindan aniklab olgan bulishi lozim. Matnning hajmi va undagi gaplar soni ham oldindan taxminan belgilab kuyilgan bulishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan diktant turlari mehnat ta'limi maktabida aqli zaif o'quvchilarga o'tilgan grammatika, orfografiya va punktuasiya qoidalarini mustaxkamlash, takrorlashga yordam berish maqsadida ta'limiy ish turi sifatida amalga oshiriladi.

4.6. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida yozma ishlarni tekshirish va baxolash. Xatolar ustida ishlash metodikasi

Reja

1. Maxsus muktab o'quvchilarining yozma ishlarni tekshirish.
2. Aqli zaif o'quvchilarning yozma ishlaridagi xatolarning turlari.
3. Maxsus muktablarda yozma ishlardagi xatolar ustida ishlash.
4. Yozma ishlarni baholash.

Yordamchi mehnat ta'limi maktabida yozuv darslarida o'quvchilar bilan olib boriladigan yozma ishlar, ularni takomillashtirish yo'llari va usullari xilma xildir. Shular jumlasiga ona tili darslarida o'quvchilar bilimini tekshirish va baxolash ishlari ham kiradi. O'zbekistonda o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baxolash bo'yicha ilg'or o'qituvchilar ish tajribalari ommalashtirilgan. M.Mavlyanova, O.Turayeva, K.Xalikberdiyevlarning «Pedagogika» darsligida shunday deyiladi: «T'lim usullarini klassifikasiyalash (turlash), o'quvchilar bilimini tekshirish va baxolashdan maqsad-o'quvchilar bilimining sifatini, darajasini ta'minlash va ularni raxbatlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishga qiziqishini takomillashtirishdir.» Bolalaming bilimlari nazorat qilinmasa ular sistemali, izchil, mustaxkam bilim ololmaydilar.

Tekshirishning ko'p qo'llanadigan ikki xili mavjud: bular joriy va yakuniydir. Joriy tekshirishning og'zaki va yozma turi mavjud.

O'quvchilarning bilimlari kundaliq har bir dars davomida, dasturdagi ma'lum mavzular o'tilganidan so'ng, har bir choraq o'quv yili oxirida tekshiriladi. Kundalik baxolashda o'qituvchi kuzatish, yuzaki so'rashdan foydalansa, joriy va yakuniy baxolashda og'zaki so'rash, sinov ishlaridan foydalanadi. Biroq bunday an'anaviy shakllar bilan bir qatorda turli perfokartalar yordamida tekshirish, test savollaridan ham foydalanish mumkin. Yakuniy yozma ishlarga aloxida talab bilan qarash zarurdir. Ularni o'qituvchi o'quv materilini ko'pchilik o'quvchilar o'zlashtirib olganiga ishonch xosil qilganidan so'ng o'tkazishi mumkin. O'quvchilar bilimini baxolashda qancha xolis munosabatda bo'linsa, u o'quvchilarni shuncha raxbatlantiradi. Yordamchi mактабда o'quvchilarning individual xususiyatlarini, bilish faoliyatidagi kamchiliklarini e'tiborga olish lozim.

Ayrim hollarda aqlan zaif bolalarning eng oddiy yutuqlari ham ijobjiy baxolanishi mumkin. Yordamchi mактаб o'qituvchisi har bir bolaning imkoniyatlarini yaxshi bilishi lozim. Topshiriqlar har bir bola uchun a'loxida, individuallashtirilgan bo'lishi talab etiladi. Aks xolda bo'sh o'zlashtiradigan bolalar sistemali ravishda past baxo olib yuradilar. Buning oqibatida esa aqlan zaif bolalarda darsga nisbatan yomon munosabat shakllana boshlaydi. Bu xol ularning imkoniyatlarini yanada chegaralab boradi.

O'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarini aniqlash, mustaxkamlash, takomillashtirish uchun yozma ishlardan ko'chirib yozish. diktant. bayon, kichik xajmli insho, reja tuzish kabi va boshqalardan foydalaniladi.

Yozma ishdan oldin o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. Aqli zaif o'quvchilarning amaliy topshiriqlarni bajarishlari o'ziga xos ravishda tekshiriladi. Chunki bunday tekshirishlar orqali o'quvchilarning qanchalik xayotga tayyorlanganligi ko'rindi.

O'qituvchi doimiy ravishda bolalarning yozma ishlarini tekshirib, baholab borishi zarrur. Chunki o'quvchi o'zining har bir bajargan ishi nazorat ostida ekanligini xis qilmasa, xatolarga beparvo bo'ladi, mas'uliyatni xis etmaydi.

Sinfda bajarilgan yozma ishlar ko'pincha sinfning o'zida o'qituvchi raxbarligida tekshiriladi. Bunda o'quvchi o'z yozganlarini o'zi tekshiradi, xatolarini tuzatadi. Yozma ishlarning harakteriga qarab xatolarni tuzatishga o'quvchilarning o'zini ham jalb qilish mumkin.

Yozuv darslari uchun ikta daftar tutiladi. Har kuni bitta daftar yig'ib olinadi. Tekshirib kelgingan ikkinchi daftar o'quvchilarga tarqaladi. Yig'ib

olingen daftalar o'qituvchi tomonidan darsdan tashqari vaqtida batavsil tekshiriladi, xatolari tuzatiladi, ishlar baxolanadi.

Kontrol harakterdagi yozma ishlar aloxida to'tilgan daftarda yoziladi.

Yozma ishlarni baxolashda ularda qilingan xatolarning turi, miqdori, qay tarzda xato ekanligi hisobga olinadi. O'qituvchi qo'pol va qo'pol bo'limgan xatolarni belgilaydi. Odatda, o'tilgan qoidalarda, o'quvchilarga taanish bo'lgan so'zlarda qilingan xatolar -qo'pol xato bo'lib xisoblanadi. O'quvchilarga tanish bo'limgan so'zlarda qilingan, xali o'tilmagan qoidalarga doir xatolar, satrdan-satrga ko'chirishda yuz beradigan, bir so'zni ikki xil yozish, ba'zi tasodifiy xatolar qo'pol bo'limgan xatolar jumlasiga kiritiladi. Bir so'z bir necha o'rinda kelib bir xil xato qilingan bo'lsa bir xato xisoblanadi.

Yozma ishlarni baxolashda topshiriqlarning sodda va murakkabligi ham xisobga olinadi. Masalan, matnni xech qanday o'zgarishsiz ko'chirib yozish topshiring'i berilgan bo'lsa-yu shunda ham xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ba'zi bir o'quvchiga bitta xato uchun ham qoniqarli baho qo'yilishi mumkin. Matn o'zgartirilib ko'chirib yozilganda uni baxolash boshqacha bo'ladi.

Yozma ishni baxolashga o'qituvchi ijodiy yondashadi. Bunda o'quvchining bilim saviyasi, darslikning mavjudligi, yozma ishning sodda-murakkabligi, uni bajarish uchun o'quvchi vaqtining yetarli, yetarli emasligi va boshqalarni ham xisobga olish kerak bo'ladi.

O'quvchilar bir birlarining ishlarni solishtirishga qiziqadilar. Har qanday adolatsizlik ularning ruxiga ta'sir qiladi. Shuning uchun ham o'qituvchi yozma ishlarni baxolashda har bir xolatni xisobga olishi zarur.

Yozma ishlarni baxolashda yordamchi mакtab o'qituvchisi O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Baho normalari»ga katqiy rioya qilish kerak Ushbu xujjatda davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan xolda, har bir sinfda yilning boshida va oxirida nechta so'zdan iborat bo'lgan matn ko'chirib va diktovka ostida yozilishi kerakligi kursatilgan.

Xatolarni tuzatish ham ijodiy harakterdagi ishlar jumlasiga kiradi. Xato yozilgan harflar ustidan qizil siyox chizib, tepasiga to'g'risini yozib qo'yish usuli keng tarqalgan. Lekin bu usulni hamma vaqt ham samarador deb bo'lmaydi. Agarda boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zda xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, harfni o'chirib, to'g'risini ustiga yozish usulidan foydalanish mumkin.

Imlosi qiyin so'zlarda xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, xato yozilgan so'zni qizil rang bilan o'chirib, ustiga to'g'ri so'z to'liq yoziladi.

Xato grammatic shaklda bo'lsa, harf emas, shakl o'chiriladi yoki tagiga chiziladi. O'quvchi o'z qilgan xatosini anglashi kerak B'zan xatoni to'g'rilamasdan, tagiga chizib qo'yish ham kifoya. O'quvchi o'zi xatosini topib, tuzatishi kerak bo'ladi.

Yozuv darslarida yozma nazorat ishi tekshirilgandan so'ng xatolar ustida ishslash darsini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'qituvchi oldindan eng ko'p tarqalgan, yozma ishlardagi tipik xatolarni, ya'ni ko'pchilik o'quvchilarining yozma ishlarida kuzatilgan xatolarni ajratib olib, ularni oldini olish ishlarini o'tkazadi. Ushbu xatolar mavzuni yaxshi tushunmaganligidan, uning murakkabligidan kelib chiqqan bo'lsa, demak bu mavzu yana bir bor tushuntiriladi, mustaxkamlanadi, takrorlanadi va h.k.

O'quvchilar bilan ishslashni ayrim qoidalarni so'rashdan boshlagan ma'qul. Ma'lum bir qoidaning mustaxkam o'zlashtirganligi xaqida ishonch xosil qilingach, navbatdagisiga o'tiladi. Shu asosda mashg'ulot asta sekin murakkablashib boradi. Ish jarayonida o'quvchining bu soxada erishgan yutuqlarini uning o'ziga sezdirish, buning sabablarini birga muxokama qilish ham muximdir.

Yordamchi mehnat ta'llimi maktabida o'tkaziladigan barcha turdag'i yozma ishlar o'quvchilarining bilim saviyasi, savodxonligini aniqlash vositasidir. O'qituvchi o'quvchilarining yozgan ishini tekshirib, xatolarni tuzatib bormasa, o'quvchi keyingi mashqlarni sifatli bajarishga intilmaydi, qiziqmaydi, bajarsa ham, xatolarga beparvo bo'ladi. Har qanday yozma ish o'qituvchining nazoratida, e'tiborida bo'lishini bola doim sezib turishi kerak. Bu o'quvchiga ruxiy oziqa beradi.

Sinfda bajariladigan mashqlar ko'pincha sinfning o'zida o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi. Bunda o'quvchi yozganlarini o'zi tekshiradi, xatolarni tuzatadi.

Yozma ishning turiga qarab tekshirish ishlariga o'quvchilarining uzini ham jalb qilish mumkin.

Kontrol harakterdagi ishlari o'qituvchi tomonidan tekshiriladi. Uyda bajarilgan mashqlar: a) parta ustida qo'yilgan daftarlarni ko'rib chiqish; b) biror o'quvchini doskaga chiqarib, unga yozganini o'qib, izoh berdirish; v) har bir gapni navbat bilai uqitish, yozlishini izoxlash yuli bilan tekshirish mumkin. Lekin bu usullar o'quvchilar daftarinini to'liq

tekshirish imkonini bermaydi. O'qituvchi o'quvchilarning daftarini yig'ib olib, uni har tomonlama tekshirib chiqishi talab etiladi. Yozuvdan bolalarda 2 ta daftar bulishi maqsadga muvofiq. Darsdan keyin daftarlar yig'iladi, tekshiriladi.

Hato tuzatish ham ijodiy harakterdagi ishlar jumlasiga kiradi. Maktabda xatolar tuzatishning xato yozilgan harflar ustidan qizil rang bilan chizib, tepasiga to'g'risini yozib qo'yish usuli keng tarqalgan. Lenin bu usulni hamma vaqt ham samarador deb bo'lmaydi. Agar o'quvchi o'zbekcha so'zlarda yoki lug'atimizga boshqa tillardan kirib kelgan ruscha, forscha yoki arabcha so'zlarda xato qilsa va bu xatolarni **tez** payqab olish uquviga ega bo'lsa, harfni o'chirib, to'g'risini ustiga yozib qo'yish usulidan foydalanish ham mumkin.

Imlosi qiyin so'zlarda xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa va psixologik tomondan ana shu so'zlarning fotokopiyasini o'quvchi uz ongida aks ettirish kerakligi e'tiborga olinsa, xato yozilgan so'zni qizil rang bilan o'chirib, ustiga to'g'ri shakli yoziladi.

Xato grammatik formada bo'lsa, harf emas, forma o'chiriladi yoki uning ostiga chiziladi. Chunki o'quvchi qaysi formada xato qilganini o'zi alglab olishi kerak. Bazi metodistlar xatolarni o'qituvchi tuzatsa, o'quvchilar mustaqil ishlardan xoli qilib qo'yiladi deb, bu usulni qoralaydilar. Bu fikrini tugri deb bo'lmaydi, chunki tuzatishning bu usuli ham o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi: o'quvchi mактаб so'zida b'urniga p'yozgan bo'lsa, o'qituvchi uni tuzatib, shu qoidaga mos keladigan bir qancha so'zlar topishni vazifa qilib beradi.

Lekin xato tuzatishning boshqa usullari ham mavjud.

Ayrim hollarda xato tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashni talab qiladigan usullaridan ham foydalanish mumkin. Xatoni to'g'rilamasdan tagiga chizib qo'yish, qaysi qatorda xato qilingan bo'lsa, o'sha qator hoshiyasiga belgi qo'yish va boshqalar.

Xatolarni tuzatish usullarini tanlashda o'quvchilarining individual xususiyatlari, materialning sodda-murakkabligi, o'quvchilarining o'zlashtirishi, ularni mustaqil ishlash darajasi hisobga olinadi. Xatolar har xil bo'ladi: o'tilgan qoidaga oid xatolar, xali o'tilmagal qoidaga xatolar, o'quvchining tovush talaffuzi, fonematik o'quvi, ko'rish idroki, motorikasidagi nuqsonlardan kelib chiqqan qo'pol xatolar va boqalar. Xatolar harakterini aniqlash uchun ularni taxlil qilish, biror belgi asosida tasnitlash kerak.

Fonetik xatolar: 1. Uxshash unli va undoshlarni bir biri bilan almashtirish, 2. Harflarni tushirib ketish (kupincha murakkab

so'zlardagi unlilarni, undosh tovushlarni, undosh tovushlari yonmay-yon kelgan so'zlardagi undosh harflarni) Z.ortiqcha harflarni qo'shib yozish, 4. Alohindan so'zlarini nutqdan yaxshi ajrata olmaslik natijasida so'zlarini qo'shib yozish.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga ega bulgan bolalarning yozma ishlarida og'zaki nutqidagi kamchiliklar uchrab turadi. Ular o'z-o'zini nazorat qila olmaydilar. Artikulatsiyasi bilan o'xshash tovushlarni (unlilarni, jarangli va jarangsiz tovushlarni) bir-biri bilan almashtirib yuboradilar.

Harakatchanligi, motorikasi buzilgan bolalarning yozma ishlarida ham bir qator o'ziga xos xatolar uchrab turadi. Ularning yozuvi o'zgacha-xaddan tashqari bosib yozadilar, harflari qiyshiq. Motorikasi buzilgan bolalar yozma ishlarida harf elementlarini, harflarni, bo'g'in-so'zlarin tushirib ketadilar, so'z va gaplarni oxirigacha yozmaydilar.

Morfologik xatolarga so'z o'zagi va qo'shimchalarining yozilishida, qo'shma juft, qisqartma so'zlarda qilingan xatolar kiradi. Yozma ishlarni baxolash.

Yozma ishlarni baholashda ular ichida yo'l qo'yilgan xatolarning soni, turi, qay tarzdagi xato ekanligi xisobga olinadi. O'qituvchi qo'pol va qo'pol bo'lmagan xatolarni belgilaydi. Odatta, o'tilgan qoidalarga, o'quvchilarga tanish bo'lgan so'zlarda qilingan xatolar qo'pol xato hisoblanadi. O'quvchilarga tanish bo'lmagan so'zlarda qilingan xatolar qo'pol xatolar xisoblanmaydi. Tanish bqlmagan so'zlarda qilingan xatolar, satrdan satrga ko'chirishda yuz beradigan xatolar, bir so'zni ikki xil yozish, ba'zi tasodifiy xatolar qo'pol bo'lmagan xatolar jumlasiga kiritiladi.

Bir so'z bir necha o'rinda bir xil xato bilan yozilsa –bir xato xisoblanadi.

Yozma ishlarni baxolashda berilgan topshiriqlar turini ham xisobga olish kerak. Masalan, matnni faqat ko'chirish topshirig'i berilgan bo'lsada, bola xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, bitta xato uchun ham ish qoniqarli baxolanishi mumkin. Matn o'zgartirilib ko'chirilganda, uni baholash boshqacha bo'ladi.

Ishni baholashda o'quvchining bilim savyiasi, darslikning mavjudligi, yozma ishning sodda murakkabligi, uni bajarish uchun vaqtning yetarli yetarli emasligi va boshqalarni ham hisobga olish kerak bo'ladi.

Yozma ishlarni baholashda o'qituvchi adolatli bo'lishi lozim.

O'quvchilar bir-birlarining ishlarini solishtirishga qiziqadilar.

Har qanday adolatsizlik ularning ruhiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ham o'qituvchi yozma ishlarni baholashda har bir xolatni hisobga olishi zarur.

Yozma ishlarni baholashda yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'qkituvchisi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan xolda ishlab chiqilgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baxolash normalariga qatyiyl roya qilishi kerak. «5» baxo xatosiz, toza yozilgan, o'quvchi o'zi tuzatgan bir-ikki xatolik yozma ishga qo'yiladi.

Savol va topshiriqlar

O'quvchilarniig yozma ishlarii yqgib olib, tekshirish xatolarni analiz qnlib, tuzatish va qaysi metodlar orqali xatolar ustida ishlash mumkinligini aniqlayash.

2. Xatolarii kayei usullar bilan tuzatish mumkin?

3. Yozma nshlarda qaysi turdag'i xatolar kqproq kuzatiladi.?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1.Abdullayeva Q.,Raxmonbekova S. Diktantlar to'plami (1-4 sinflar)T.,2006

2.Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi-T.,1984

3.Aksyonova A.K.Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole.-M.,Prosveshyeniye,2004

4.Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.-T.1985

5.V.V.Voronkova Obucheniye gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassax vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveshyeniye,1988

6.Gnezdilov M.F.Metodika russkogo yazika vo vspomogatelnoy shkole. M., 1990

7.Obuchenije uchashixsy 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole /Pod redaksiyey Petrovoy V.G. Moskva, Prosveshyeniye, 1982.

8.Yordamchi maktablar uchun ona tili, o'qish va nutq o'stirish dasturi. tuzuvchilar V.Raxmanova, T.. 2003

9.Raxmanova V.S. Ona tili o'qitish maxsus uslubiyati.(ma'ruza matni), TDPU T.,2003

10.Smirnova A.N. Korrekcionno-vospitatelnaya rabota uchitelya vspomogatelnoy shkoli.-M.:1985

5 bob Aqli zaif o'quvchilarning bog'langan og'zaki va yozma nutqini o'stirish metodikasi

5.1.Bog'langan og'zaki nutqni rivojlantirish yo'llari.

Reja:

1. Bog'lanishli nutq xaqida tushuncha.
- 2.Aqli zaif o'quvchilar bog'lanishli nutqini rivojlanish xususiyatlari.
- 3.Yordamchi mehnat ta'limi maktabida bog'langan nutqni rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar.
- 4.Dialogik nutqni o'stirish yuzasidan olib boriladigan ishlar.
- 5.Nutqning motivaqion tomonini kuchaytirish.
- 6.Monologik nutqni rivojlantirish.

Nutq faoliyatining eng murakkab shakllaridan biri-bog'lanishli nutq. O'qilgan matn mazmunini og'zaki yoki yozma xolda bayon etish – bog'lanishli nutqning asosiy ko'rinishidir.

Insho esa bog'lanishli nutqning yozma ijodiy shaklidir. Bog'lanishli nutqning bu ikki shakli ham nutq o'stirish, nutqni adabiy so'zlar bilan boyitish, hamda bolalarning tafakkurlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar o'qilgan asar yoki kuzatilgan narsa hamda voqeа xodisalar yuzasidan berilgan savollarga kengaytirib tuliq javob berishga, javoblarning mantiqiy tomoniga ahamiyat berib, uni kichik xikoya tarzida ifodalashga, o'qilgan asar, kuzatilgan buyumlardagi asosiy tomonlarni ajrata bilish va ularni aniq gapirib bera olishga o'rgangan bo'lishlari kerak. Bola aynan shu fikrning o'zini boshqa so'zlar bilan gapirib bera bilish va uni aniq ifoda qilish uchun zarur so'z va so'z birikmalari hamda gan tanlash lozimligini tushunishi ona tili dasturining bog'lanishli nutq bo'limidagi asosiy talablardan biridir.

Birinchi sinf o'quvchilari dastlab unchalik qiyin bo'limgan matnlarni mustaqil qayta xikoya qilish, rasmlar seriyasi yuzasidan 3-4 gapli xikoya tuzish, keyinroq borib, bir mavzuga qaratilgan mazmunli sujet rasmdagi voqeа yuzasidan 3-4 gap ishtirokida xikoya tuzishga o'rganadilar. Bunday mashqlar tobora murakkablashib, bolalarda astasekin ko'rGANLARI va o'z shaxsiy xayotiy kechinmalari yuzasidan mustaqil gaplar tuzish malakasi shakllantiriladi.

Bunday mashqlar vositasida bolalar gap tuzish va bayon, insho yozishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni puxta egallab oladilar.

Dialogik va monologik nutq.

Kishilarniig nutqiy muloqati ikki shaklda amalga oshiriladi: dialog-so'zlashish (di-ikki, logos-gapirish), ya'ni ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro suxbati, savol-javob almashishi (savollarga javob berish) va monolog-xikoya, ya'ni tinglovchilarga bir kishi(mono-bir, logos-gapirish) batavsil boshidan oxirigacha ma'lumot beradi, gapiradi.

Dasturning so'zlashuv nutqiga va gapirib berishga o'rgatish soxasidagi, ya'ni bog'lanishli og'zaki nutkni o'stirishga qo'yilgan talabi, asosan ukuvchilarni savol-javob, qisqa ma'lumotlar berish, kengaytirib gapirib berish, ya'ni dialog va monolog monolog kabi og'zakn nutqning har xil kerakli shakllaridan foydalana olishga o'qrgatishdir. Dastur o'quvchilar oldiga "bolalarmn har xil shakldagi nutqiy muloqatga: kattalar va bolalar bilan so'zlashish, o'qituvchining savollariga javob berish, atrofdagilarga savol berish va ular bilan so'zlashishga jalb qilish vazifasini qo'yadi. Keyinchalik o'qituvchining gaplarini tinglash va tushunish, butun sinf uchun berilgan savollarga bitta-bittadan javob berishga, jamoa bo'lib so'zlashishga, suxbatda qatnashishga, o'rtoqlarining javobini qunt bilan tinglash va savol berishga o'rgatiladi.

So'zlashuv nutqining o'sishida "Oila", "Maktab" "O'quv qurollari", "Transport" kabi va boshqa dasturda berilgan mavzu buyicha suxbatlarsuxbatlarrolli o'yinlar katta ahamiyatga ega. Bunda suxbatlar, didaktik o'yinlar, rasm ustida ishslash katta ahamiyatga ega.

Suhbat.

Suxbat va va mazmuni dasturda belgilangan. Suhbat orqali bolalarning oilada, maktab, sinfda turli faoliyatlar jarayonida va o'qituvchining raxbarligida o'tkazilgan kuzatishlar, ekskursiya, amaliy ishlar vakida egallagan tajribalari, kishilar hayoti va tabiat xaqidagi tasavvurlari va bilimlarini maksadga qarata aniklaydi, mustaqamlaydi va ma'lum bir tizimga keltiradi.

O'qituvchi bolalar bilan «oil», ota-onalarning mehnati, ona shahar xaqida suxbatlashish orqali, ularda tevarak atrofga nisbatai to'g'ri munosabatni, ota-onalar mehnatiga hurmatni, qariyalar va o'zidan kichiklarga g'amxo'rlikni, ota-onalarga, tug'ilgan joylarga nisbatan muxabbat hislarini uyg'otadi va sh.k.

Suhbatning savol-javob harakteri bolalarda sqzlashuv. muloqat malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi. Ularni uz fikrii sodda va tushunarli bayon etishga, so'zlashish vaqtida o'zini to'g'ri tutishga

o'rgatadi. Suxbat deb o'qituvchining sinfdagi hamma bolalar bilan qandaydir bir mavzu yuzasidai tashkiliy so'zlashuviga aygiladi.

Suxbat o'tkazish o'qituvchidan tayyorgarlikni talab etadi.

Suxbatni rejalashtirishda bolalarga tevarak atrof bilan tanishtirish bo'yicha beriladigan dastur materialini belgilanishi, so'ngra suhbat boshidan to oxirigacha izchil reja tuzishi zarur.

Suhbatning tuzilishi, mazmuni bolalar yoshiga bog'liq bo'ladi. Bolalarda mashgulotga nisbatan qiziqish, faol aqliy faoliyat uyg'otish, ularning xislariiga ta'sir etish uchun suxbatni aniq va emotsiyonal bo'lishini ta'minlash zarur. Suxbatni turlicha boshlash mumkin, masalan ma'lum voqeа yoki xodisani eslatishso'zlab so'zlab berish; su'ratlar, o'yinchoq, buyumlardan: gullar, sabzavotlar va boshqa narsalarni namoish etish bilan ham boshlash mumkin. Masalan, transport haqidagi suhbatni boshlashda "Shaharda" mavzusiga oid suratni namoish etish mumkin. Bolalar o'z kuzatishlariga tayangan xolda turli transport xillarini solishtiradilar, ekskursiyada ko'rganlari va transportdan foydalanish qoidalari haqida so'zlaydilar. Suhbatni she'r va topishmoq aytishdan boshlash ham mumkin.

Suhbatning mazmuniga bogliq holda javob berish, tushuntirish, ko'rgazmali materiallar ko'rsatish kabi turli usullardan foydalaniladi. Suhbatda bolalarning javoblariga katta e'tibor beriladi.

O'quv yilining boshida xor bo'lib javob berishga yo'l qo'yiladi. Lekin, o'qkituvchi bu usuldan mumkin qadar kamroq foydalanishi kerak. Ko'p xollarda suxbat vaqtida o'qituvchi bolalarning ko'rgan-kechirganlariga asoslangan xolda yangi ma'lumotlar beradi, bolalar javobini to'ldiradi, kengaytiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Bog'langan nutq deganda nimani tushunasiz?
2. Aqlan zaif bolalarda bog'langan nutq kanday rivojlanadi?
3. Dialogik nutqni nutqni rivojlantirasiz?
4. Monologik nutqni qanday rivojlantirasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Aksyonova A.K. Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole. M., 2004

2. Dmitriyeva L.I. Formirovaniye slovarya u uchashixsyu spetsialnix shkol 8 vida . M.,2002
- 3.Yordamchi maktablar uchun «Ona tili, o'qish va nutq o'stirish dasturi» Raxmanova V.S. tuzuvchi T., —2003.
- 4.E.M.Razbayeva, HA.Ahmedova Nutq o'stirish metodikasi.- O'qituvchi,T., 1988.
- 5.Maxmudov N. va boshkalar O'zbek tilida ish yuritish T., 1989.
- 6.Hamidova M. Nutq o'stirish. T.,2000

5.2.Mehnat ta'limi maktabida bayon va insho ustida ishlash metodikasi.

Reja

- 1.Xikoya qilishga o'rgatish usullari
- 2.Og'zaki bayon qilishga o'rgatish
- 3.Bayon yozishga o'rgatish usullari
- 4.Insho ustida ishlash bosqichlari

Yordamchi maktab dasturida nutq o'stirish ishlari asosiy o'rinnegallaydi. Nutq ustida olib borilishi kerak bo'lgan barcha ishlar bolaning umumiy, har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

Dasturga ko'ra, yordamchi maktabning boshlang'ich sinflarida nutq o'stirish ishlari lug'atni boyitish, talaffuzni yaxshi yo'lga qo'yish, gapni to'g'ri tuzish, dialogik va monologik nutqni o'stirishga qaratilgan.

Nutq o'stirish yo'li bilan debil o'quvchilardagi psixofizik kamchiliklarni korrekqiyalash ishlarini amalgaga oshirish uchun ona tili darslari xisobidan 1-5 sinflarda xtaftasiga bir soatdan aloxida predmet sifatida tevarak-atrofni o'rganish yo'li bilan og'zaki nutqni o'stirish darslari o'tkaziladi. Bu darslarda kuzatish, ekskursiya, amaliy ishlar, bayon, suxbat, texik vositalar, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning nutqi rivojlantiriladi. Tevarak-atrofdagi narsa va xodisalarni kuzatish orqali o'quvchilar analiz qilish, taqqoslash, predmet va xodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini topishga sodda va umumlashgan xulosalar chiqarishga o'rganadilar. Ekskursiya mashg'ulotlarida o'quvchilar narsa va xodisalar bilan tabiiy sharoitda tanishadilar. Amaliy ishlar (gerbariy yoki boshqa biror narsani yasash, kalendär tutish) orqali sinfda olingan bilimlar mustaxkamlanadi.

bevosita sezgi organlariga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan o'quvchilarning sezgi organlari faoliyati, kuzatuvchangligi, diqqati rivojlanadi.

Yordamchi maktab o'quvchilarining nutqiy taraqqiyotida savod o'rgatish ishlari alovida ahamiyatga ega. Savod o'rgatishning alisbegacha davridan boshlab to oxirigacha doimiy ravishda o'quvchilarning eshitish, ko'rish idroki, umumiy, nutqiy motorika, mayda qo'l muskullarining harakatchangligi rivojlantiriladi. Rivojlangan og'zaki nutq asosida o'quvchilar dastlabki o'qish va yozish ko'nikmalarini egallaydilar. Shu davrdan boshlab, o'quvchilar og'zaki nutq tovush va bo'g'inlar, so'z va gaplardan iborat ekanligini anglay boshlaydilar. Ta'lim jarayonida o'quchilarda o'z fikrini atrofdagilarga izchillik bilan bayon etishga extiyoj tug'diradigan sharoit yaratiladi. O'quvchilar maktab binosi va xonalari, sinf jixozlari va boshqalar bilan tanishadilar va atrofdagilar bilan muloqatda bo'lishga o'rghanadilar. Tevarak atrofdagi narsa va xodisalar yuzasidan turli savollar berishga o'rgatish ishlari nafaqat nutq o'stirish darslarida, balki qo'l mehnati, rasm, jismoniy tarbiya, ashula, matematika darslarida ham amalga oshiriladi. O'qituvchilar o'quvchilarni to'liq, aniq, tushunarli javoblar qaytarishga o'rgatib boradi. Bunda bola bajarayotgan ishlari, nima ishlar qilmoqchi bo'lganliklarini, sinfda, maktabda va maktab atrofida ko'rgan, kuzatgan narsa va xodisalar xaqida gapirib berishni o'rghanadilar. O'quvchilar nutqini o'stirishda ertaklar keng ishlatiladi. Ayrim ertaklar mazmuni savolga javob; yordachi, esga soluvechi savollar orqali bayon etishga o'ratilsa, ayrimlarini mustaqlil ravishda bayon etishga o'rgatish mumkin. Ertaklar asosida o'tkaziladigan insqenirovka, qo'g'irchoq o'yini, rollar bilan o'qish, diafilm, kinofilm, multiplikaqiya filmini namoish etish va hqlar bolaning dialogik nutqini o'stirishga yordam beradi.

Yordamchi maktab o'quvchilarining yosh hamda individual xususiyatlarini xisobga olgan xolda barcha sinflarda turli usullar bilan lug'at ustidagi ishlar uyuşhtiriladi. Dastur talablariga muvofiq, barcha predmetlarda va ayniqsa, nutq o'stirish, o'qish va yozuv, ona tili darslarida o'quvchilarning ichki va tashqi lug'atini boyitish, impressiv va ekspressiv nutqni o'stirish ishlari amalga oshiriladi. Amaliy grammatik mashqlar orqali o'quvchilar grammatik va orfografik bilim va malakalarga ega bo'lib, kichik xajmdagi matnlarni og'zaki va yozma ravishda bayon etishga o'rghanadilar.

Yordamchi maktabning yuqori sinflarida beriladigan elementlar nazariy bilimlar o'quvchilar bog'langan og'zaki va yozma nutqini o'stirishga, orfografiq jixatdan savodli bo'lishga yordam beradi. Grammatika va orforafiya mashqlari nutq o'stirish ishlari bilan parallel ravishda amalga oshiriladi. O'quvchilar ko'chirib yozish, diktant, bayon va insholar yozishga, o'z fikrleri, bilgan kechirganlarini atrofdagilarga og'zaki va yozma shaklda bayon eta olishga o'rganadilar.

Yordamchi maktabda ona tili darslarida orfografiya bilan bog'liq bo'lgan nutq o'stirish ishlari xilma-xildir. Ayniqsa antonim va sinonimlar ustida ishlash, umumlashtiruvchi so'zlar, so'z yasash mashqlari, gap va xikoya tuzish, matn yuzasidan savollar tuzish, savollarga yozma ravida javob qaytarish, reja tuzish, saylanma bayon, ta'limiy diktantlar o'tkazish ishlari va boshqalar keng o'rin egallaydi.

5 sinfdan boshlab o'quvchilarga so'z turkumlari xaqida nazariy bilimlar beriladi. So'z turkumlaridan ot, sifat, ravish, olmosh, sonlarni o'rganishda o'quvchilar lug'ati atoqli, turdosh otlar, mavxum so'zlar, buyum belgisi, harakati, sifatini bildiradigan so'zlar bilan boyitiladi. Har bir darsda sintaksisga doir turli mashqlar bajartiriladi. Bu ishlarning barchasi o'quvchilarning og'zaki va yozma bog'langan nutqini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Xikoya qilishga o'rgatish usullari

Bog'langan og'zaki nutqni o'stirishda xikoya qilish, bayon etishga o'rgatish muxim. Buni turli-tuman usullar bilan amalga oshirish mumkin. O'qituvchining bergan na'munasiga o'xshash bayon, xikoyaning rejasini tuzish, har bir rejadagi savolga oid xikoyaning bir qismini bayon bayon, rejani ravishda ravishda muxokama qilish, o'qituvchi savollariga javob qaytarish, xikoya yuzasidan savollar tuzish, lug'at ustida ishlash, qayta xikoya qildirish va boshqalar. Og'zaki bayon qilishga o'rgatish darsi taxminan kuyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin:

- 1.Kirish suxbati
- 2.Matnni bиринчи бор о'qib berish.
- 3.Asar yuzasidan suxbat o'tkazish.
- 4.Matnni ikkinchi bor o'qish.
- 5.Matnni o'quvchilarga o'qitish.
- 6.Matn mazmunini bayon etish.

Qayta xikoya qildirish vaqtida o'qituvchi jumlani boshlab beradi, o'quvchilar davom ettiradi - o'qituvchining o'quvchilar bilan birgalikdagi bayoni; o'qituvchi faqat boshlab beradi, bola oxirigacha mustaqil bayon etadi-takrorlab qayta xikoya qilish; Og'zaki bayon vaqtida so'z yoki jumlalarni eslatib turish(sekin aytish). Bolaning og'zaki bayoni vaqtida yordamchi, esga soluvchi savollardan ham foydalinish mumkin. Savollar butun sinf o'quvchilariga beriladi. Og'zaki bayon vaqtida o'quvchiga sinfdoshlari ham yordam berishi mumkin. Bunda raxbatlantirish usuli keng ishlataladi. Rollarga bo'lib qayta xikoyalash, bayon etish ham mumkin. Bu usulni mavzuni mustaxkamlash bosqichida qo'llash foydalidir. Darsning yakuniy qismida dramalashtirish usulini qo'llash foydali. Bunda maxsus kiyim, dekorasiya ishlatalish (mavzuga oid saxna yaratish) yaxshi natija beradi.

Maktab amaliy faoliyatida o'quvchilar uchun, ularga tanish mavzu bo'yicha bayon yozdirish tavsisi etiladi. Bayon og'zaki yoki yozma shaklda olib borilishi mumkin. Og'zaki ravishda so'zlab berishga o'rgatish xaqida avvalgi bo'limlarda batavsil gapirilib o'tilgan. Bu yerda esa asosan, yozma bayon yozilishi xaqida fikr yuritiladi.

Ta'llim berish jarayonida yozma bayonga o'rgatishning ahamiyati katta. Bunda o'quvchilar olgan bilim va malakalarini amaliy ravishda qo'llashni o'rGANADILAR.

O'qib chiqilgan matn mazmunini yozma ravishda bayon etish mashg'ulotlari 1-4 sinflarda ham o'tkazilgan. Ammo bu mashg'ulotlar oddiy uslubda, sodda shaklda amalga oshirilgan. Sababi, o'quvchilarda u vaqtida grammatik va orfografik jixatdan to'g'ri yozish malakalari xali shakllanmagan. Yuqoriroq sinflarda esa, yozma ishlar keng qo'llaniganligi, badiiy asarni ko'proq taxlil qilinganligi tufayli bayonlar ko'p yoziladi.

Bu jarayonda bayon yozish uchun tanlangan material jiddiy ahamiyatga egadir. Bayon uchun mavzu, material darak gaplardan iborat bo'lgan, ma'lum sujetni xikoya qiluvchi, voqeylek asta-sekinlik bilan ta'riflanadigan kichik bir matn tanlanadi. Bayon mavzusini maxsus tuzilgan to'plamlardan yoki ukish kitoblaridan tanlash mumkin.

Lekin bayon yozishga kirishmasdan avval aqli zaif o'quvchilarda bu jarayonda uchraydigan xususiyatlar aniqlanishi keraq Bayonni maqsadga muvofiq yozish uchun, mavzu

o'quvchilarga tanish bo'lishi, voqeylek sodir bo'layotgan jarayonlar tomonidan to'g'ri anglanilgan bo'lishi keraq Buning uchun o'qib chiqilgan mavzuni taxlil qilib, reja tuzish tavsiya qilinadi.

Bayon, aslida ma'lum tuzib tuzib yozilishi, so'ng yangi jumlalarni tuzib, orfografik jixatdan taxlil etilib, so'ng daftarga yozishlari keraq Shu tariqa yozilgan bayon, bayonga qo'yilgan talablarga mos deb topilsada, o'quvchilar ko'pincha bayon yozishga tayyor emas. Shuning uchun mavzu yoritilishidan avval, uni albatta taxlil qilib, o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligini tekshirish darkor. Yordamchi maktab o'quvchilari bayyon yozish vaqtida o'z faoliyatini to'g'ri tashkil eta olmaydilar. Ular mavzuni tushingan bo'lsa ham, tuzilgan rejani muvosiq ravishda ishlata olmaydilar. Natijada tuzilgan reja o'quvchilarga yordam berish o'rniqa qiyinchilik tug'diradi. Bunday xususiyatni xisobga olgan xolda o'qituvchi tuzilgan reja savollariga to'g'ri javob berish mashqlarini o'tkazib borishi keraq Aqli zaif o'quvchilar tuzilayotgan jumlalarning orfografiyasiga e'tibor bermaydilar. Shu tufayli bayonlarda, diktant yozishga nisbatan ko'proq xatolarga yo'l qo'yiladi. Aqlan zaif o'quvchilar bayonlarida ko'pincha jumlalarning o'zaro bog'lanishida ham xatolar kuzatiladi. Bunday xatolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarni yozib bo'lgan jumlalarini o'qib berishi, so'ng keyingi jumlalarni tuzib, yozish tavsiya etiladi.

Ba'zan ukuvchilar tuzilgan jumlalarni yozish jarayonida qiyinchiliklar va xatolarga yo'l qo'yadilar. Chunki ba'zi o'quvchilarning yozish darjasasi (texnikasi) ancha sust rivojlangan bo'lib, aynan yozishning o'zi ular diqqatini jalb etib, ammo qanday yozish va nimalar yozayotganini nazorat qilishga qiziqmaydi. Shu sababli ham ular bilan jumlalar tuzish, xato yozmaslik kabi jarayonlarni mashq qilib borish tavsiya etiladi. Xatolarni oldini olish uchun o'quvchilarga qisqa va sodda jumlalar tuzib yozishga o'rgatish keraq Bu faoliyat kuyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Yozilishi kerak bo'lgan mavzuni yaxshilab o'qib chiqish va uni taxlil qilish;
2. Yozish uchun tanlangan mavzuni tayyor reja asosida tuzish yoki taxlil qilib chiqish;
3. Jumlalarni tuzish va ularning yozilishini muxokama qilish
4. Bobni yozish.
5. Bajarilgan ishni o'quvchilar bilan birga taxlil qilib chiqish.

Bayon yozishda reja tuzish muxim ahamiyatga ega. Reja matndagi har bir parchani aloxida taxlil etib, aniqlab olishga yordam beradi.

Yordamchi mактабning 5 sinfida bayon yozishга о'ргатиш учун: 1.rejaning birinchi punkti o'qib chiqiladi va jamao bilan nima xaqida yozish kerakligi muxokama qilinadi.

2.Birinchi jumlaning qanday yozilishi va qaysi orfografik qoidalarga amal qilish zarurligi ko'rib chiqiladi.

3.Tuzilgan jumlalar daftarga yoziladi.

Xuddi shu uslublar keyingi bayon yozishlarda ham ishlataladi. Keyinchalik bu ish murakkablashib, og'zaki ravishda ifodalanib, jumlalar butun bir abzaq shaklida yoritilishi mumkin yoki o'quvchilar mavzuni deyarli to'la anglab, tushunib bo'lganidan so'ng, og'zaki ravishda yana bir marta ko'rib chiqiladi, so'ng yozma ravishda bayon yozishga kirishiladi. Ishni kuyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Yozishga qo'l urmasdan avval reja bo'yicha nima yozish kerakligini eslash;
- Yoziladigan jumlani esga tushirib, shivirlab aytib ko'rish;
- so'zlarni xatosiz yozilishini o'ylab ko'rish;
- ruchkani qo'lga olib, jumlani yozish;
- yozilganni o'qib, tekshirib chiqish.

Bayon yozish jarayonida o'quvchilar o'qituvchiga kerakli savollar bilan murojat qilishlari mumkin.

Reja asosida yozilgan bayondan tashqari, yordamchi mактаб yuqori sinf o'quvchilari учун savollarga yozma ravishda javob berish usuli ham qo'llanishi mumkin. Savollar matnni to'liq yoki qisqartirib bayon etish учун mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Bog'langan yozma nutq o'stirishga qaratilgan maxsus ish faoliyatlaridan biri-insho yozishga о'ргатишdir. Bayon tayyor matn asosida olib boriladi. Insho esa ijodiy faoliyat bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan. Yordamchi mактаб o'quvchilari учун har qanday xayoliy ijodiy faoliyat murakkablik qiladi. Aqlan zaif o'quvchilarga insho yozishga о'ргатиш ancha murakkabligini yoddan chiqarmaslik kekraq Insho yozishga bolani tayyorlash zarur. Buning учун o'qituvchi boshlab bergen xikoyani davom ettirish, savollarga javob yozish, tashlab ketilgan jumlalarni tiklash, berilgan so'zlar ishtirokida matn tuzish, ko'makchi so'zlardan foydalanib, ishni tashkil etish tavsiya etiladi.

Odatda o'quvchilar uchun mavzuni boshlab berish uslubi ijobjiy natija beradi, chunki boshlash yoki oxirini yozish o'quvchilardan kuch talab etadi. Boshlanilgan insho mavzusi o'quvchilar bilan birgalikda muzokara qilinib, so'ng oxirgi kismni o'ylab, yakunlashtiriladi. Bu usulni qo'llashda shunisi muximki, o'quvchilar o'qituvchi yordamida, yoziladigan jumlalarni bir necha variantlarini keltirib, so'ng bir bitimga kelishilib, inshoni yozadilar.

Insho mavzusi o'quvchilarda qiziqish uyg'otadigan bo'lib, xajmi uncha katta bo'lmasi ligi kerak. Insho o'quvchilarda ijobjiy ta'surot qoldirib, ularni emosional jixatdan jonlantirib yuboradigan bo'lishi keraq Mavzu o'quvchilar diqqatini tortmasa, ularda qiziqish uyg'otmasa, tabiiyki ijobjiy natija bermaydi.

Bolalarda insho yozishga qiziqishni uyg'otishda yengilroq mavzudan, murakkabroq mavzuga o'tish uslubini qo'llab, har bir mavzuni maniqaviy tuzilishi aloxida ko'rib chiqilishi lozim. Bunda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- 1.Mavzu konkret, aniq bir masalaga qaratilgan bo'lishi keraq
2. Malum konkret faktini o'quvchilar o'zлari belgilaydi. Inshoda umumiy xolat ham mustaqil yoritilishi lozim;
- 3.O'quvchilarda mavzu sababiy bog'lanishni o'ylashga qaratilgan bo'lib, qanday xolat natijasida nima sodir bo'lganini tushuna bilishlari keraq (sabab-oqibat);
- 4.Mavzu qarama-qarshi xolatni keltiradi (kim kuladi, kim xafa bo'ladi kabi)
- 5.Mavzu konkret tushunchaga olib keladi (faxm-farosatli bola)
- 6.Mavzu shunday tanlanishi kerakki, undagi bir xolat ikkinchi xolatni inkor etadigan bo'lsin (so'zlagandagina botir edi).

Gnezdilov M.F. yordamchi maktabda inshoni kuyidagi bosqichlar bo'yicha yozishga o'rnatishni tavsiya etadi:

- Insho mavzusini anglab olish;
- Insho konkret mavzuga qaratilganligini tushunish;
- Reja tuzish;
- Insho yozishga tayyorgarlik ko'rish(matnni butunligicha,yaxlit yoki ayrim qismlarini ko'rib chiqish, noaniq so'zlarni aniqlash, tushuntirish);
- Inshoni yozish. Mavzuni to'g'ri va aniq tushunishi inshoning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Birinchi turdag'i insho mavzulari o'quvchilarda deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Ba'zida, faqatgina ayrim so'zlarga izox berish talab etiladi.

Ikkinci turdag'i insho yozish uchun ma'lum xodisa mavzusi berilganda xodisa xaqida umumiyl tushuncha beyeriladi. Lekin aynan qanday xodisa ruy bergenligini o'quvchilar o'zlar o'ylab yozishlari keraq Masalan. «O'rmondag'i xodisa»

Qolgan turdag'i mavzularni insho qilib yozish- mantiqan bog'lanilgan murakkablikni talab qiladi.

Masalan, «Olovdan chiqqan baxtsizlik» muvzusini yoritishdan avval, olov tufayli sodir bo'lgan xolqdisani yozib, so'ng nima uchun bu xolat ro'y bergenini ifodalab berishi keraq Yoziladigan insho mavzusi o'qituvchining o'quvchilar bilan o'tkazgan suxbatidan so'ng belgilanadi. O'qituvchi ma'lum savollar orqali sodir bo'lgan yoki bo'ladigan voqeylekni tushuntiradi, aniqlik kiritadi va inshoning rejasini, ya'ni matn mazmuniga ravshanlik kiritadigan savollarni belgilab boradi. Shu bilan birga bu borada nima yozilishi kerak? Xozir nimani yozasiz? Kegin nima xaqida yozish kerak? kabi savollarni berib borish, ayrim to'ldirishlar kiritib boriladi.

Odatda o'quvchilar reja tuzishda faol ishtirok etadilar, muzokara qiladilar, kerakli jumlalarni birin ketin tuzadilar va reja tuzilib bo'linganidan so'ng doskaga yoziladi, daftarga ko'chirib olish o'quvlarga tavsiya etiladi.

Reja daftarga yozilganidan so'ng o'quvchilar mavzuni yozishga tayyorlanadilar. O'quvchilar yozmoqchi bo'lgan parchani qisqacha og'zaki gapirib, so'ngra o'z so'zlari bilan, boshqacharoq qilib yozadilar. Mavzuning boshlanishida qiyinroq jumlalar takrorlanib, mustaxkamlanib, o'quvchilar yoritishi kerak bo'lgan mavzu xaqida yetarli bilimga ega bo'lganlaridan keyingina jumla yoziladi. Insho yozish vaqtida o'quvchilar o'qituvchiga savollar berib borishlari mumkin.

Ma'lum mavzuni yoritishda o'quvchilar inshoni xikoya tarzida yozibkina qolmasdan, balki voqeylek yoki xodisalarini ta'riflab yozishlari ham mumkin. Maktab tajribasiga asoslangan xolda uyuştilrilgan ekskursiyani ta'riflab yozish, ma'lum bir mehnat jarayoni va uning natijasini ta'riflash, tabiat xodisalaridan biri xaqida ta'riflab yozish kabi va boshqalar.

Bu turdag'i insholar o'qituvchidan jiddiy tayyorgarlik va maxoratni talab etadi. O'qituvchi oldindan maxsus reja tuzib, unga masalan kuyidagi larini kiritadi:

- 1.Ekskursiya qayerga uyuşdırılmıştır?
- 2.Ekskursiya nima məqsədə uyuşdırılmıştır?
- 3.Ekskursiyaya kim rəhbərlik etdi?
- 4.Ekskursiya paytida nümlər kuzatıldı?
- 5.Ekskursiyadan olinan tə'sirətlər nümadan iborat?

Bu iş turida ayniqsa ikki xələt e'tibor berish lozim - o'qituvchılarga nima xəqida yoxishi keraklığını o'rgatış va jumla larını xatosız, to'g'ri yoxishga o'rgatış.

Mehnat fəaliyatında müstəqil bajarılmış maksulətni və uning yaradılışını tə'rifləb berish kuyidagi reja asosida amalga oshırılışı mümkün:

- 1.Qanday maksulət ishləb çıxarış topşırığı berildi?
 - 2.Qaysi material və qanday asboblardan foydalandı?
 - 3.Ish fəaliyatı qanday tərtibda təşkil etildi?
 - 4.Kim iş maksulətinə qəbul etdi və qanday baxoladı?
 - 5.Təyyarələnən iş maksulətindən kimlər və qanday qılıb foydalandı?
- Ushbu iş bəşqərəcə tarzda ham amalga oshırılışı mümkün.

Bayon və insholarnı tekshirish və ularnı taxlil etish.

O'quvchilarning yozma ishlərinin tekshirish və baxolash muxim təlimiy və tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ishlər nəfaqat nəzəratqılış, balki o'quvchilar bilim, ko'nikma və malakalarining ortgalığını kuzatış imkonini beradi.

Bu fəaliyat kuyidagicha təşkil etilishi mümkün:

1.O'quvchilar inshoni yozib bo'lganidan keyin daftarlardan yig'ib olinadi, tekshiriladi, xatolari tuzatiladi. Orsografik və puktuaqion xatolar ko'k rang bilan tuzatiladi, tagidan chizib qo'yilmaydi, maxsus belgilər qo'yilmaydi. O'quvchilar diqqatini jałb etish məqsədida qızıl rang bilan quyidagilar belgilənədi:

-Gap ma'nö jixatidan noto'g'ri tuzilgan bo'lsa - V kabi belgisi bilan:

-Ortiqcha so'zlar qovus ichiga olinadi və o'chiriladi:

-Gap ichida so'zlar ketmagnetligi buzilganda so'zlar ustidan raqamlar qo'yib chiqiladi;

-Noto'g'ri yozilgan so'z qo'shimchałari tagiga chiziladi.

2.Aloxida bir darsda xatolar ustida ish olib boriladi. Ushbu darsning maqsadi o'quvchilarga tushuntirilib, eng yaxshi yozilgan insho hammaga o'qib beriladi va bu ishning afzal tomonlari tushuntiriladi, ya'ni yozma ishning konkret. tushunarli va ayniqsa chiroyli tuzilgan jumllalari xaqida o'qituvchi to'xtalib o'tadi. Bunday ishlarni namoish etish muxim, chunki yordamchi maktab o'quvchilarida taqqoslash yo'li bilan anglash qobiliyatini nisbatan yaxshiroq rivojlangan bo'ladi. ular birinchilar qatorida bo'lishni juda istaydilar.

Keng tarqalgan xato va kamchiliklar taxlil qilinadi va ularni tuzatish, bartaraf etish, oldini olish yo'llari tushuntiriladi.

3. So'zlarda uchragan xatolarni turli mashqlarni bajartirish yo'li bilan to'g'ri yozishga o'rgatish.

4.Va. nixoyat. daftarlар o'quvchilarga tarqatiladi. ular o'z yozma ishlarni ko'rib chiqadilar. So'ng o'qituvchi ba'zi o'quvilardan qanday xatoga yo'l qo'yanliklari va ularni qanday tuzatish kerakligi xaqida so'raydi va darsni yakunlaydi.

Yordamchi maktabning 4 sinfigdan boshlab, ona tili darslarida yozma nutqni o'stirish maqsadida bayon va insholar o'tkaziladi. Bayon yozish uchun matn shunday tanlanishi kerakki, uning mazmuni o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lsin va uning tarkibida o'tilgan grammatik materialga oid so'zlar soni ko'p bo'lsin.

Yordamchi maktabda insho, faqatgina bola uchun nixoyatda yaxshi tanish bo'lgan, uning faoliyati bilan, boshidan kechirgan voqeа-xodisalar bilan bog'liq bo'lgan mavzular bo'yicha o'qituvchining yordami bilan yoziladi. Insho uchun mavzu tanlashda uning xayotiyligi, tuzilishi va tarkibi, tarbiyaviy ahamiyati xisobga olinishi lozim.

Bayon va insho o'quvchilarни fikrni keng ko'lamda va har xil shaklda bayon eta olish qobiliyatini o'stirishga katta yordam beradi.

Yozma bog'langan nutqni o'stirishda yordamchi maktab o'quvchilarini bog'langan yozma nutqning eng murakkab turi - ish qog'ozlarini yozishga o'rgatish muxim ahamiyatga ega. Mustaqil xayot kechirishda xat, ariza, tarjimai xol, e'lon, telegramma, spravka,

tasnifnoma, tilxat va boshqa ish qog'ozlarini yozishga o'rganish uchun avvalom bor bayon va inshoni yozishga o'rgatish lozim. Dasturda bog'langan yozma nutqni o'stirish borasida ish qog'ozlariga katta o'rinnajratilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Bayon va insholarni yozishda xikoya qilishga o'rgatishning ahamiyati nimada?
2. Yozma bayon og'zaki bayon negizida o'rgatiladi.
3. M.F.Gnezdilovning insho yozishga o'rgatish usullarini yoritib bering.
4. Bayon va inshoyozishga o'rgatish usullaridan qaysilarini bilasiz?
5. Insho ustida olib boriladigan ish blsqichlarini yoritib bering.
6. Bayon va insholarni tekshirish va baxolash yo'llari

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Ayupova M.YU. Muminova L.R. Logopediya .Toshkent 1993
2. Aytmetova S.SH. «Oligofrenopedagogika» T.-1990 y.
3. Logopediya (Pod red. I.S.Volkovoy. M.. Prosveshyeniye. 1989.)
4. Nurkeldiyeva D.A.Maktabgacha oligofrenopedagogika TT..2001 Nizomiy nomli TDPU .ma'ruza matni
5. Pulatova F.M. Oligoffrenopedagogika asoslari. T. - 2006.
6. Dulnev G.M.Uchebno-vospitatelnaya rabota vo vspomogatelnoy shkole. M.-1981
7. Zamskiy X.S. Umstvenno otstaliye deti.Moskva.1995
8. Mamedov K.Shoumarov G.Akli zaif bolalar psixologiyasi.Toshkent. 1994
9. MuminovaL.R. Kaxramanova Logopediya terminlarining ruscha-uzbekcha izoxli lugati. T. «Ukituvchi» - 1985 y.
10. Salamanka dekloratsiyasi». -Ispaniya. 1994 y.
11. Nurkeldiyeva D.A.Maktabgacha oligofrenopedagogika TT..2001 Nizomiy nomli TDPU. ma'ruza matni
12. Lalayeva R.I. Narusheniye protessa ovladeniya chteniyem u detey. M.. Prosveshyeniye.2000 .
13. Raxmanova V..S. Yordamchi maktabda savod o'rgatish .O'RMM RO'MKT.1988

- 14.Saidazizova S.Yordamchi maktab o'kuvchilari yozma nutqidagi kamchiliklar ustidda ishlash. XTV O'MM T., 1991
- 15.Sadovnikova I.N. Narusheniye pismennoy rechi u mladshix shkolnikov. M., Prosvetshcheniye, 2001.
- 16.Yefimenkova L.N., Sadovnikova I.N. Ispravleniye i preduprejdeniye disgrafii u detey. M., 2000.

5.3.Yordamchi mehnat tyalimi mактабида иш qоғ‘озлари устидаги олиб бориладиган ишларнинг vazifasi, mазмuni.

Reja

1. Xujjat turlari va xususiyatlari.
2. Munshoat tili va uslubi.
3. Aqli zaif uo'quvchilarni ish qog'ozlarini yozishga o'rnatish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasida o'zbek tiliga «Davlat tili» maqomi berilishi munosabati bilan barcha korxona, muassasa, tashkilot va birlashmalarida ishni o'zbek tilida yuritishga o'tildi.

Mehnat ta'llimi maktabi o'quvchilari maktabni bitirgach korxona, muassasalarda mustaqil ishlab, faoliyat ko'rsatib, zarur bo'lganda, har qanday ish qog'ozini hatosiz, to'g'ri yoza bilishlari kerak.

Ish kog'ozlarini yoza olish - olingan bilimlarni amaliy hayotga bevosita tadbiq etish demakdir. Ish xujjatlarisiz na bir muassasa, na bir tashkilot faoliyat ko'rsata oladi.

Ish kog'ozlari - kishilarning uzoq ish va mehnat munosabatlari jarayonida tarkib topgan muayyan shakl va izchillikda tuzilgan va yozilgan hujjatdir.

Nutq madaniyati-madaniyatli, ma'lumotli kishining muqim fazilatidir. Bunday odam tafakkur qila bilishi va uz fikrlarini og'zaki hamda yozma shaklda to'g'ri, aniq, chiroyli ifodalay bilishi kerak. Buning uchun esa fikr aniq va izchil, asosli bo'lib, tilning grammatik so'z va orfoepik me'yerlariga rioya etilishi muhimdir.

Ma'lumki, har bir kishiga mustaqil ishlab chiqarish faoliyatida turli tuman xujjatlar yozishga to'g'ri keladi.

Sharqda X-XIX asrlarda yorliq, farmon, bitimlar, arznama, qarznomalar, tilxat yoki mazmunan shunga yaqin qujjatlar nisbatan keng tarqalgan. Yorliqlar mazmunan har xil bo'lgan: xabar, farmoyish, bildirish, tasdiqlashlar.

XIX asrda Qo'qon xonligida keng tarqalgan xujjatlardan biri Pattadir. Pattada ma'lum kishiga muayyan miqdordagi pul, maxsulot, urug' yoki boshqa narsalarni berish lozimligi haqidagi ma'lumot aks ettirilgan. Patta matnlarida ham o'ziga xos doimiy tarkib va muayyan nutqi qolip turg'unlashgan. «Umuman, o'tmis hujjatlardagi muayyan turg'un tarkib va qolip o'zbek xujjatchiligi uzoq tarixiy tajriba va tadrijiy takomil maxsuli ekanligining dalilidir» deb yozilgan "Uzbek tilida ish yuritish" nomli N.Maxmudov, A.Madvaliyev, N.Maxkamov, M. Aminovlarning kitobida. Xozirgi kunda O'zbekistonda ushbu kitob asosida ish yuritilmokda. Kitobning dastlabki boblarida ish yuritish xujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, umumiyl metodik tomonlari hamda xujjat tili ustida to'xtalib o'tilgan.

Xujjatlar xizmat va shaxsiy xujjatlarga bo'linadi. Xizmat Hujjatlari muassasa, tashkilot, korxoma yoki ularning vakolatga ega bo'lgan mansabdar shaxslari nomidan bo'ladi Bayonnomma, tavsifnoma, dalolatnomalar shular jumlasidandir.

Alohiba fuqorolar nomidan yozilgan xujjatlar-tarjimai Hol. ariza, ishonchnoma, xat va shu kabilar shaxsiy xujjatlarga kiradi. Xujjatlar tarixiy manba, dalillash, guvoxlik vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yaratilishi o'rniqa ko'ra hujjatlar ichki va tashqilarga bo'linadi. Ichki xujjatlar ayni muassasaning o'zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan xujjatlardir. Muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladiganlari esa tashqi Hujjatlardir.

Xujjatlar mazmuniga ko'ra ikki turli bo'ladi: Sodda va murakkab xujjatlar. Sodda xujjat muayyan bir masalani o'z ichiga oladi. Murakkabi zsa ikki xil yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi. Mazmun bayonining shakli jihatidan xususiy (individual), namunali (tipovoy) va bir xil qolipli (trafaretli) xujjatlar farqlanadi. Xususiy xujjatlarning asosiy belgilaridan biri bu matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, hamisha ham bir andozada bo'limganlidigidir. Bunday xujjatlarda muayyan doimiy tarkib mavjud bulsada, bevosiga inazmun bayoni bir qadar erkin bo'ladi.

Namunali xujjatlar boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog'liq, bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z yachiga oladi. Iqolipli xujjatlar, odatda oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladi. bunday xujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya'ni o'zgarmas (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va o'zgaruvchi (xujjatni tuzish paytida yoziladigan) axborotlar; shuning uchun bu turdagi xujjatlarga

nisbatan ko'pincha «yozmoq» emas balki «to'ldirmoq» so'zi ishlataladi. qolipli hujjatlar sirasiga, masalan, ish xaqi yoki yashash joyi haqidagi ma'lumotnomalar, ayrim d'alolatnomalar xizmat - safarlari guvoxnomalari va boshqa ko'plab xujjatlarni kiritish mumkin.

Xujjatlarni to'g'ri yozish uchun o'quvchilarning, birinchi navbatda, bog'langan og'zaki va yozma nutqi yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Xujjatni tayyorlash va rasmiylashtirishda eng avvalo o'zbek tilining barcha asosiy qonun va qoidalarini ma'lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir o'quvchi o'zbek tilining imlosi, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo'lishi kerak.

Xujjatlar matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlikdan iborat zaruriy sifatlarni xujjatchilik tilining o'ziga xos uslubi, undagi uziga xos so'z qullah, morfologiya va sintaksis orqali amalga oshiriladi.

Xujjatlar tilida ot turkumiga iod so'zlar ko'p qo'llaniladi. Xatto fe'l bilan ifodalanuvchi harakat va xolatlar ifodasi uchun ham ota yaqin so'zlar ishlataladi, masalan: "tayyorgarlikning borishi haqida", "qarorning bajarilishi haqida", "yordam berish maqsadida", "qabul qilishingizni so'rayman" kabi va boshqalar. Fel shakllarining qo'llanilishida ham bir muncha o'ziga xosliklar mavjud. 3 shaxs buyruq-istik maylidagi yoki utgan zamondagi fellar nisbatan ko'proq ishlataladi, jumladan: kurib chiqildi, eshitildi, qaror qilindi, bajarilsin, tasdiklansin, bo'shatilsin, tayinlansin, topshirilsin, qabul etilsin.

Xujjatlardagi gan ko'rinishi, odatda tasniflash, mayda qismlarga ajratish, qayd etuvchi va qaror qiluvchi kismlarning birligiga, umuman sabab-oqibat va shart oqibat munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham hujjatlarda nisbatan uzun jumlalar, murakkablashgan, uyuhiq bo'lakli gaplar ko'p qo'llaniladi. Lekin gan tarkibidagi so'z tartibiga qatyiy rioya qilinadi. Asosan darak va buyruq gaplar ishlataladi.

Xujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Ayrim shaxs tomonidan yozilgan xujjatlar zsa yo birinchi shaxs ko'plik sonda, yoki uchinchi shaxes birlik sonda rasmiylashtiriladi: "... ga ruxsat berishingizni suraymiz", "deb xisoblaymiz", "ma'muriyat talab qiladi", "boshqarma so'raydi" kabi va shu kabilar.

Xujjatlar matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan, so'z birikmalaridan kengroq foydalansh lozim. Chunki qoliplashgan, yagona doimiy shaklga ega bo'lgan so'z tizimlari, iboralar

muxandistlik psixologiyasining ma'lumotlariga ko'ra, so'z birikmalariga qaraganda 8-10 marta tez idrok qilinar ekan. Buning ustiga, qoliplashgan so'z birikmalari hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkonini beradi. Har bir Rning moxiyati va maqsadi bilan bog'liq ravishda o'ziga xos qoliplashgan sintaktik tizimlar qo'llanishishi mumkin. Xujjatchilik takomillasha borgan sari qoliplashgan birikmalar g'am ko'payib, mukammallahib boradi. Buning natijasida xqjjatlarni tuzish va rayemiylashtirish ishi ham bir qadar yengillashadi.

- Hujjatdagi fikri aniq lo'nda bayon qilishda xat boshining ahamiyati katta. Har bir alohida fikr xat boshi bilan ajratilishi, bir xat • boshidan ikkinchi xat boshigacha bo'lgan matn 4-5 jumladan oshmasligi maqsadga muvofiq. Xo'jjatchilikda imlo va tinish belgilari masalasiga alohida e'tibor berish kerak. Xujjatning nomi bosh harf bilan yoziladi.

Ish qog'ozlarini yozish qoidalari:

- 1.Xujjatlami o'chirish yoki tuzatishga yo'l qo'yilmaydi.
2. Ish qog'ozlarining har bir turi umumqabul etilgan shaklda va ma'lum izchillikda yoziladi, tuziladi.
- 3.Hujjatning matni qisqa, ravon, aniq va mantiqli bayon qilinishi shart.
4. Xujjatlarda faqat umum qabul qilingan qisqartma so'zlardan foydalaniladi.
5. Ish qog'ozlarida biror shaxsga murojaat etilganda "Siz" olmoshi bosh harf bilan yoziladi.
- 6.Son odatda raqam bilan yoziladi. Pul qujjatlarida raqamdan so'ng qavs ichida shu raqamning so'zdagi ifodasi ko'rsatiladi.
7. Arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlaridan so'ng qo'shimcha yozilmay. uning o'rниga – defies qo'yiladi Rim raqamlaridan so'ng xech qanday qo'shimcha yozilmaydi.
- 8.Turli belgi va son ifodalari bir xil shaklda yoziladi №.% (telegrammalarda bular so'z bilan raqamli band. soiz kabi ifodalanadi.).
- 9.Ish qog'ozlarida ularning imzolanishiga rioya etiladi: avval xujjatga imzo chekadigan mansabdor shaxs lavozimining nomi so'ng shaxsiy imzosi va familiyasi ko'rsatiladi.
- 10.Xujjatlarda sanalar arab raqamlari bilan yoziladi.

11. Xujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi.

5.4. Mehnat ta'limi məktəbida o'quvchilar nutqiniig leksik tomoni ustida olnb borılıdagın ishlar tizimi.

Reja

1. Leksik komponet.
2. Leksik komponet ustida ihlah yo'llari.
3. So'z ma'nosi ustida ishslash.
4. Gap tuzish mahoratini kengaytirish.

Mehnat ta'limi məktəbida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, nutqiniig leksik komponenti ustida ishslash murakkab jarayon bo'lib, quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish;
2. so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish;
3. o'quvchi nutqida kam ishlatiladigan so'zlarni faol so'zlarga aylantirish;
4. O'quvchi nutqidagi keraksiz, parazit so'zlarni (anaqa, anu, nima edi va x.k. larni yo'qotish, bartaraf etish;

So'z tovush yoki tovushlardan iborat biror ma'no bildiruvchi nutq birligi, gap bo'lagidir. So'z orqali biz fikrimizni, aniq va mavxum tushunchalarni ifodalaymiz. "Leksikologiya" bulimi so'zning uz va kuchma ma'nosi, ma'nodosh (sinonim) so'zlar, shakldosh(omonim) sqzlar, talaffuzi yaqin, ma'nosi farq qiluvechi paronim) so'zlar, tarixiy so'zlar, yangi va eskirgan so'zlar, kasb- xunarga oid so'zlar, shevaga oid so'zlar, atamalar, olinma so'zlar ibora va tasviriy ifodalarga oid materiallarni kamrab oladi.

So'zlar faoliyatning barcha jabxalarida-oilada, ko'chada, məktəbda, dars jarayonida o'zlashtiriladi. Matematika, mehnat, tarix musiqa fani va boshqa fanlar, radio, teleko'rsatuvlar, matbuot, badiiy adabiyot, bolani o'rab turgan ijtimoiy muxit- hamma, hammasi o'quvchining so'z boyligini oshirish manbaidir.

O'quv faoliyatni insонning kundalik turmushi va turli soxalardagi faoliyat davomida vujudga keladigan, boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish ehtiyojini qondirishni ta'minlovchi muhim jarayondir. Ushbu faoliyatning eng oddiy usullarini odam bolalik chog'ida kattalar bilan muloqotga kirishish orqali egallaydi.

Nutqiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati bolaning aqliy jihatdan rivojlanishi jarayonida takomillasha boradi. Bu qobiliyatning takomillashishi ikki yo'naliishda amalga oshadi: 1. Nutq faoliyatini kundalik turmush bilan bog'liq muloqotlarni amalga oshirash vositasi sifatida mustaxkamlanib boradi. 2. Bu faoliyat insonning turli sohalaridagi faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan muloqot extiyojini qondiruvchi vosita hisoblanadi.

Nutq faoliyatining kundalik muloqotni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar me'yorda rivojlangan bolalarda ham tabiiy sharoitda yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi.

Ammo nutq faoliyatini insonning turli soxalardagi faoliyati, ayniqsa, aqliy mehnat jarayonida yuzaga keladigan muloqotni ta'minlay oladigan darajaga yetkazish uchun maxsus nutq o'stirish mashg'ulotlarini, maxsus ta'limni joriy qilish zarurati tug'iladi. Insonning muayyan faoliyati uning uning nutqiy faoliyati uchun tabiiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Afsuski, ona tili darelarida bunday kuchli va ta'sirchan omildan tuliq foydalanishning imkonи yo'q.

Darslarda o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat o'qituvchining rejasi bo'yicha o'qaziladigan ta'limiy maqeadlar bilan cheklangan, bir taraflama faoliyatdir. Shu sababli, nutq faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha ruxiy kechinimlar o'qituvchi tomonidan turli ta'limiy usul va vositalar yordamida sun'iy ravishda yuzaga keltiriladi. Bunday ta'limiy usul va vositalar o'quvchining ongiga tashqaridan ta'sir etishga mo'ljallanganligi uchun, ular har doim ham kerakli ruxiy kechinmani yuzaga keltira olmaydi. Natijada o'quv nutqiy faoliyatini yo'lga qo'yishda bir qator jiddiy qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, o'quv nutq faoliyati bilan tabiiy nutq faoliyati o'rtaсидаги farq tobora kuchayib boradi.

Nutq o'stirish, lug'at ustida ishlash, so'zlarin tushuntirish, nutqning talassuz, leksik, sintaktik tomonlari ustida olib boriladigan barcha ishlarning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan vazifa, yaa'ni nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirish, o'z fikrlarini nutq orqaln bayon eta olishga o'rgatish uchun eng qulay sharoit faqat tabiiy nutq vaziyatidagina mavjud bo'ladi.

Shuning uchun hozirgi kunda eng ilg'or nutq o'stirish tizimlarini yaratishda asosiy e'tibor o'quv nutq faoliyatini imkonи boricha tabiiy nutq faoliyatiga yaqinlashtirishga harakat qilinishi bejiz emas. Mana shu prinsipial harakterga ega bo'lgan qoidani ona tili darslarida izchil ravishda qo'llash uchun avvalo an'anaviy o'qitish

usullari va o'quv vositalarini taxlil qilib, ularni qo'llash paytida tabiiy nutqga xos bo'lgan ruhiy jarayonlar qay darajada ta'minlanishini aniqlash talab etiladi.

O'quvchilarning so'z boyligini qstirishda quyidagi an'anaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. So'z ma'nolarini izohlab berish, taqqoslash va sharhlash.

Bu usul ko'proq ma'nosi va shakli bir biriga yaqin yoki keskin farq qiladigan so'zlarni izohlashda qo'l keladi. Nutqimizda bunday so'zlar anchagina qismni tashkil atadi.

Masalan, -i, -u tovush (harf) larining talaffuzi va imlosi urganilar ekan, urush-urish, tushum-tushim singari so'zlarni taqqoslash orqaliularning ma'nosi, talaffuzi, imlosini sharqlash mumkin. Qo'shma otlar va ularning imlosi haqida gap ketganda paxtagul, gulbozor singari qo'shma otlarni paxta guli, bosh og'rig'i, gul bozori singari so'z birikmalari bilan taqqoslash mumkin.

2. So'zlarni kuzatish. Kuzatish ham taqqoslash kabi keng qo'llaniladigan aqliy faoliyat bo'lib, unga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarniig sikrlesh faoliyatini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunday topshiriklardan darsning har qanday bosqichida ham foydalanish mumkin. O'quvchilar berilgan so'z va iboralarni kuzatib, ularning o'zlariga zarur narsalarni ajratib oladilar va shu asosda muayyda xulosaga keladilar.

Berilgan so'z, so'z birikmalari, gap va matnlarni kuzatish jarayoni ayni vaqtida bolalarning so'z boyligini oshirish jarayoni bo'lib, bu usuldan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. So'zlarni ma'lum belgilarga qarab guruxlargacha ajratish. Guruxlash aqliy faoliyat bo'lib, u nutq o'stirish davrida bolalarning so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul so'zlarni anglatayotgan ma'nosi, so'z turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi.

Guruxlash taqqoslash va kuzatish bilan chambarchas bog'langan. So'zlarni guruxlash uchun, avvalo kuzatish yoki taqqoslashdan foydalanishga to'g'ri keladi.

4. Ma'lum bir guruxdagisi so'zlar ro'yxitini mustaqil ravishda tuzish.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida ularga ma'lum bir guruxdagisi so'zlar lug'atini tuzishni topshirish mumkin. Ma'lum bir mavzu o'rganilgandan keyin mustaqil ish sifatida

topshiriq berish mumkin. Ona tili darslarida ma'lum bir so'zning ma'nosini sharxlash, so'zlar ro'yxatini tuzish kabi amaliy ishlarga tez-tez murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Ona tili mashg'ulotlarida nutq o'stirish borasida o'quvchilar nutqini ko'p ma'noli so'zlar, ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar, uyadosh so'zlar, tasviriy ifoda va iboralar bilan boyitishga aloxida e'tibor berish kerak. Chunki bu so'zlar tilimizning leksik boyligi, fikrni badiiy ifodalashning eng asosiy vositasidir.

Shunday qilib, yordamchi mehnat ta'llimi mакtabida nutq o'stirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish, birinchi navbatda, ularning so'z boyligini, leksik komponentini oshirishni taqozo etadi. O'quvchilarни doimiy ravishda, ular birinchi marta duch kelayotgan yangi so'zlar bilan tanishitirib borish, so'zlarning yangi ma'no qirralarini oshib berish, nutqdagi kam istemol so'zlarii ser iste'mol so'zlarga aylantirish, adabiy til uchun zid bo'lgan so'zlarni o'quvchilar vutqidan chikarib tashlash faqat ona tili fanining emas, balki mакtabda o'qitiladigan barcha fanlarning, shuningdek oila va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Ona tili mashg'ulotlarida kuzatish va taqqoslashdan foydalanib, so'zning ma'nosini sharxlash, so'zlarni guruxlash, mustaqil ravishda ma'lum guruxdagi so'zlar ro'yxati va izoxli so'zlar ro'yxatini tuzish, o'quvchilar nutqini ko'p ma'noli, ma'nodosh va qarama-karshi ma'noli so'zlar, uyadosh, tovushdosh so'zlar bilan boyitib borish ishlari juda katta ta'llimiyya, korreksion ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni tilimizni tasviriy vositalardan o'rini foydalanishga o'rgatadi.

O'quvchilarning gap ustida ishslash va gap tuzish mahoratini kengaytirish (nutqning sintaktik tomoni ustida ishslash).

Sintaksisning asosiy obyekti - so'z birikmasi va gapdir. Sintaksis kursi leksikologiya, sonetika, orfografiya, morfologiya, punktuatsiya, nutq o'stirish bilan bog'lanadi.

Sintaksis o'qitishda o'qituvchi bog'lanishli nutqga alohida e'tibor beradi, chunki sintaksisdan olib boriladigan darslarning asosini bog'lanishli nutq tashkil etadi. Gap - fikrni og'zaki va yozma ifoda etishning yagona formasi. Shuning uchun nutqning sintaktik tomoni ustida ishslash jarayonida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni korrekqiyalash asosiy vazifa hisoblanadi.

Gap - fikrning eng kichik bo'lagi. O'quvchi gap orqali ko'zlagan maqsadi xaqida xabar berishi, tinglovchidan biror voqeal hodisani so'rashi, his - xayajon va buyurish kabi mazmunni ifodalashi mumkin.

Ma'lumki, tilning qurilishi, uning tayanch vositalari bolaning ongida shakllangan bo'lib, me'yorda rivojlangan bola gapdan bemalol foydalana olish kunikmalariga egadir. Ona tilining grammatik qurilishidan tamomila bexabar kishi ham gapni grammatik jixatdan to'g'ri tuzadi. Maktab - bolalarning gap qurish mahoratini kengaytiradi va takomillashtiradn.

Grammatika va imlo (orfografiya) darslarida maxsus maktab o'quvchilar gapning bosh bo'laklari: ega va kesim; ikkinchi darajali bo'laklari (aniqlovchi, to'ldiruvchi, izoxlovchi). gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (sodda va qo'shma gaplar) kabi zaruriy materiallar bilan tanishadilar va bu, shubxasiz, ularning gap qurish maxoratini ancha kengaytiradi. Ona tilining izehil kursini o'rganishda o'quvchilardagi mavjud malaka va ko'nikmalar rivojlantiriladi. Ular gap orqali fikrni ixcham, to'g'ri va ta'sirchan ifodalashning turli yullari va usullari bilan tanishadilar.

Ona tili mashg'ulotlarida gap ustida ishlashning yo'llari rang-barangdir. ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

1.Gapni ixchamlashtirish. Ixcham fikr-ta'sirchan fikrdir.

Shuning uchun nutq ustirish davrida qo'yiladigan talablardan biri fikrni ixcham shaklda, izehillnk bilan bayon etishga urgatishdir. O'quvechi gap tuzishda birorta ortiqcha so'znn ishlatmasligi, maqsadni nsodalovchi so'zni topib qullashi, so'z va so'z birikmalarini to'g'ri aloqaga kiritishi, gap bo'laklarining oddiy va o'zgargan tartibiga qat'iy amal qilishi lozim.

Fikrni ixcham bayon qilish uchun o'zbek tilining imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish talab etiladi. O'quvchilarni berilgan gaplardan mazmunga salbiy ta'sir etmaydigan ma'lum bir so'zni tushirib qoldirshsga urgatish, gapni ixchamlashtirishga o'rgatishning eng asosiy yullaridan biridir. Masalan, Men sinfda o'tiribman. Men sinfdaman. Ishlagap paytda xalaqit bermang. Ishlaganda xalaqit bermang.

2.Gapni kengaytirish va toraytirish. Gapni kengaytirishning eng qulay usuli - kesimdan savol berish orqali uniig egasi va ikkinchi darajali bo'laklarni topib o'qishdir.

Masalan,o'quvchilarga «Boraman», «Uchishdi», «Ko'rganmisiz?» singari bir bo'lakli gaplarni berib, ularni avval ikki bo'lakliga (men boraman, qushlar uchishdi, siz ko'rganmisiz?kabi), so'ngra ko'p bo'lakliga, (qushlar qayerga uchishdi?, O'ushlar issiq o'lkalarga uchishdi.- Qushlar kuzda issiq o'lkalarga uchishdi va h.k.) aylantirish topshiriladi.

Ayni vaqtida sodda yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga aylantirib,- gapni toraytirish usulidan fydalananish mumkin:

3. Gapning mazmunini saqlagan xolda shaklini o'zgartirish.

Bu ish ko'proq. berilgan gaplarda so'zlarini. ularning ma'nodoshlari va uyadoshlari bilan almashtirish orqali. gap bilan ifodalangan kesim. ega. to'ldiruvchi. hol. aniqlovchilarni kengaytirilgan birikmalarga aylantirish. sodda gaplardan qo'shma gaplar va aksincha. qo'shma gaplardan sodda gaplar hosil qilish. ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga va o'zlashtirma gaplarni ko'chirma gaplarga aylantirish kabi usullar bilan amalga oshiriladi.

Muloqat jarayonida fikrlar shakllanadi. atrofdagilarga bildiriladi. aytildi va anglatiladi. Og'zaki yoki yozma shaklda bayon etilgan fikrlar shu fikrni bildiruvchi kishi uchun ham ravshan bo'lib qoladi. Demaq nutq muloqat jarayonida tafakkur quroli bo'lib ham xizmat qiladi. Aloqa bog'lash jarayonida nutq orqali fikrlar ifodalanadi. bildiriladi va tinglovchiga ta'sir etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Har bir kishining ma'naviyati. madaniyati. savodxonligi nuqiga qarab belgilanadi. Nutq orqali kishining ichki dunyosi. qobiliyati. odamgarchiligi. rostgo'yligi va boshqa fazilatlari ham oydinlashadi.

Savol va topshiriqlar

4..Leksik komponet komponent deganda nimani tushunasiz?

5.Leksik komponet ustida ihlah yo'llari.

6.So'z ma'nosi ustida ishslash.

7.Gap tuzish mahoratini kengaytirish.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

- 1.Karimov I.A.O'zbekiston XXIasr bo'sag'asida. Tashkent "O'zbekiston" 1997
- 2.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq millatni millat qilishga xizmat etsin (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblari).// Barkamol avlod orzusi.- Toshkent: 1999.- 31-48
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- Toshkent: O'zbekiston, 1999. 456-b
- 4.Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayat pirovard maqsadimiz.-Toshkent:O'zbekiston,2000.509-b.
- 5.Karimov I.A. Sog'lom avlod tarbiyasi barchamizning muqaddas insoniy burchimiz //Tafakkur.2000.-1-16-b.
- 6.O'zbekiston Respublikasida Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi.T., 1997
- 7.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonuni
8. Aytmetova S.SH.Oligofrenopedagogika T, 1994.
9. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi-T.. 1984
- 10.Abdullayeva K. Birinchi sinfda o'qish darslari. Savod o'rgatish.-T.,O'qituvchi. 1996
- 11AksyonovaA.K.Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole.-M..Prosveshyeniye. 2004
12. Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.-T.1985
- 13.Vigotskiy L.S. Voobrajeniye i tvorchestvo v detskom vozraste10. M..Prosveshyeniye, 1991
- 14.V.V.Voronkova Obuchenije gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassax vspomogatelnoy shkoli. Moskva. prosveshyeniye,1988
- 15.Dulnev G.M.Uchebno-vospitatelnaya rabota vo vspomogatelnoy shkole. M.,1982
- 16.Gnezdilov M.F.Metodika russkogo yazika vo vspomogatelnoy shkole. M., 1990
- 17.Ibroximova Z.Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari.-T.:O'qituvchi, 1994
- 18.Obuchenije uchashixsy 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole Pod redaksiyey Petrovoy V.G. Moskva. Prosveshyeniye, 1982.
- 19.Yordamchi maktablar uchun ona tili. o'qish va nutq o'stirish dasturi. tuzuvchilar V.Raxmanova. SH.Roziqova T...,1994
- 20.Leontyev A.N. Izbrannije psixologicheskiye prizvedeniya.M.. Pedagogika. 1983.
- Mirzayev T.»O'zbek xalq ertaklari» T.,1988Maqulova G.Saidova S.»Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari». T., O'qituvchi, 1997
- 21.Mixaylova Z.A.Igroviye zanimatelniye zadachi dlya shkolnikov. M., 1985
- 22.RaxmanovavV.S.Yordamchi maktabda savod o'rgatish T..1988
- 23.RaxmanovaV.S. Ona tili o'qitish maxsus uslubiyati ma'ruza matni. TDPU T..2003
- 24.Sagatov M, Pulatova F..Mamedov ..Oligofrenopedagogika T. 1995
- 25.SmirnovaA.N. Korreksionno-vospitatelnaya rabota uchitelya vspomogatelnoy shkoli.-M.:1985

Raxmanova V.S. muallifligidagi «Ona tili o'qitish maxsus metodikasi» (Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ona tili o'qitish maxsus metodikasi fanidan» nomidagi o'quv qo'llanmasiga

T A Q R I Z

Defektologiya yo'nalishi bakalavriat talabalar uchun yaratilgan «Ona tili o'qitish maxsus metodikasi» nomidagi o'quv qo'llanma dastur asosida tuzilgan bo'lib, maxsus metodikaning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

O'quv qo'llanma Tushuntirish xati, besh bob, 26 banddan iborat bo'lib, birinchi bobda- yordamchi mehnat ta'limi maktabining umumiy masalalari, ikkinchi bobda -yordamchi maxsus maktabda savod o'rgatish metodikasi, uchinchi bobda - aqli zaif bolalarni o'qishga o'rgatish masalalari, to'rtinch bobda - maxsus maktabda grammatika, imlo va nutq o'stirish metodikasi. beshinchi bobda esa aqli zaif o'quvchilar bog'langan og'zaki va yozma nutqini o'stirish masalalari batavsil yoritilgan.

Muallif Raxmanova V.S. o'quv qo'llanmani korreksion yo'nalishda tuzgan. Metodikaning har bir bo'limida aqli zaif bolalarning o'zlashtirish xususiyatlari, qiyinchiliklari pedagogik, psixologik adabiyotlarda taxlil etilib. talabalar diqqati aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan barcha ishlar shularni xisobga olgan xolda amalga oshirilishi lozimligiga jalb etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada tavsiya etilgan ko'pgina usul va yo'llar boshlang'ich maktab ona tili metodikasidagi usullar bilan taqqoslab berilgan. me'yorda rivojlangan bolalarga nisbatan aqli zaif bolalarning o'zlashtirish qobiliyatları taxlil etilgan.

O'quv qo'llanmani yaratishda ishlatalgan ushbu uslub talabalarini keyinchalik nafaqat yordamchi mehnat ta'limi maktabida ona tili, o'qish, yozuv va nutq o'stirish darslarini muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi, balki ularni resurs o'qituvchi sifatida me'yorda rivojlangan bolalar tengdoshlari orasida aqli zaif bolalarni integratsiyalashgan ta'limga jalb etishda ham qo'l keladi.

Raxmanova V.S. muallifligida yaratilgan «Ona tili o'qitish maxsus metodika» o'quv qo'llanmasi olyi ta'lim uchun yaratiladigan qo'llanmalarga qo'yilgan talablarga javob beradi. Har bir mavzudan so'ng talabalmi mustaqil ishlashi uchun savol va topshiriqlar, adabiyotlar ro'yxati berilan. O'quv qo'llanma nashrga tavsiya etilishi mumkin.

Defektologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Nurkeldiyeva D.A.

«Ona tili o'qitish maxsus metodikasi (Yordamchi mehnat ta'limi mактабида она тили о'qитиш методикаси фанидан)» о'кув qo'llanmaga

T A Q R I Z

Defektologiya yo'nalishi bakalavriatning o'quv rejasida Ona tili o'qitish maxsus metodikasi kursi mavjud. Ushbu kurs ikki yo'nalish bo'yicha utiladi. Birinchi yo'nalish-yordamchi mehnat ta'limi mактабида она тили о'qитиш методикаси; ikkinchi yo'nalish-eshitishida nuqsoni bo'lган bolalar mактабида она тили о'qитиш методикаси.

Mazkur o'quv qo'llanmada aqli zaif bolalarga yordamchi mehnat ta'limi mактабида она тили о'qитиш методикаси yoritilgan.

Muallif Raxmanova V.S. o'quv qo'llanmani yaratishda yangicha yondoshib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga harakat qilgan. Talabalar uchun nazariy bilim berish jarayonida qaysi manbalar, qaysi olimlarning fikrlari qo'shimcha o'rganilishi lozimligi ta'kidlangan, har bir mavzu buyicha savol va topshiriqlar, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada yordamchi mehnat ta'limi mактабида она тили о'qитиш методикасining Umumiy masalalari. Savod o'rgatish va nutq o'stirish. O'qishga o'rgatish va nutq o'stirish, Grammatika imlo va nutq o'stirish. Aqli zaif bolalarning bog'langan og'zaki va yozina nutqini o'stirish bo'limlari keng yoritilgan.

Kitob Pedagogika oliv o'quv yurti talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida talab darajasida yaratilgan.

Undan maxsus mактаб o'qituvchilar hamda resurs o'qituvchilar unumli foydalanishi mumkin.

Professor Raxmanova V.S. muallifligida yaratilgan Ona tili maxsus metodikasi (Yordamchi mehnat ta'limi mактабида она тили о'qитиш maxsus metodikasi fanidan) oliv ta'lim o'quv qo'llanmalariga qo'yilgan talablarga javob beradi va uni nashrga tavsiya etish mumkin. XTV RTM maxsus ta'lim bo'limi boshlig'i.

P.f.n.dotsent

Shomaxmudova R.SH.

Mundarija

Kirish.....	3
1 bob. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ona tili mahsus metodikasi fanining umumiy masalalari	
1.1. «Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ona tili mahsus metodikasi fan sifatida.....	5
1.2. Ona tili yordamchi maktabda o'quv predmeti sifatida.....	10
1.3. Yordamchi maktabda ona tili o'qitish tamoillari.	21
1.4. Aqli zaif o'quvchilar nutqining rivojlanish hususiyatlari.....	27
2 bob Yordamchi mehnat ta'limi maktabida savod o'rgatish va nutq o'stirish metodikasi	
2.1. Savod o'rgatishning ilmiy asoslari	30
2.2. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida savod o'rgatishga tayyorlash davri.....	35
2.3. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida savod o'rgatishning alifbe davri.....	36
2.4. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida savod o'rgatish usullari.....	42
3 bob. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida o'qishga o'rgatish va nutq o'stirish metodikasi	
3.1. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida o'qish darslarining ta'limiy. arbiyaviy. korreksion vazifalari.....	46
3.2. Yordamchi mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarida o'qish malakalarini shakllantirish yo'llari.47	
3.3 Aqli zaif o'quvchilarni ovoz bilan va ovozsiz (nchda) o'qishga o'ratish yo'llari	53
3.4. Maxsus maktabda ilmiy ommabop maqolalarni o'qishga o'rgatish yo'llari.....	55
3.5. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida sinfdan tashqari o'qish.....	57
3.6. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish.....	61
3.7. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida o'qish darslarida matn ustida ishslash metodikasi.....	64
3.8. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ertak ustida ishslash metodikasi.....	68
3.9. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida she'r ustida ishslash metodikasi.....	73
IV bob Yordamchi mehnat ta'limi maktabida « Grammatika imlo va nutq o'stirish metodikasi».	
4.1. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatika o'qitish va to'g'ri yozuvga o'rgatishning vazifalari. mazmuni va olib boriladigan ishlar tizimi.....	76
4.2. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatika va imloga o'rgatish usullari....	80
4.3. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida grammatick mashqlar va ularning turlari. uyuşhtirilishi.....	86
4.4. To'g'ri yozuvni o'rgatishga oid ishlarni tashkil etish yo'llari. usullari.....	89
4.5. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida yozma ishlar va ularni o'tkazish metodikasi	95
4.6. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida yozma ishlarni tekshirish va baxolash. Natolar ustida ishslash metodikasi.....	104
5 bob Aqli zaif o'quvchilarning bog'langan og'zaki va yozma nutqini o'stirish metodikasi	
5.1. Bog'langan og'zaki nutqni rivojlantirish yo'llar.....	111
5.2. Mehnat ta'limi maktabida bayon va insho ustida ishslash metodikasi.....	114
5.3. Yordamchi mehnat ta'limi maktabida ish qog'ozlari ustida olib boriladigan ishlarning vazifasi. mazmuni.....	125
5.4. Mehnat ta'limi maktabida o'quvchilar nutqiniig leksik tomoni ustida olib boriladigan ishlar tizimi.....	129

ONA TILI O'QITISH MAXSUS METODIKASI

Muharrir Bozorov E.

Bosishga ruxsat etildi 15.10.2007y. Qog'oz bichimi 60x84ⁱ/_v
Hisob-nashr tabog'i 8.75. adadi 100
Buyyurtma raqami № 66

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084. Toshkent kichik xalqa yo'li, 7-uy

Nizomiy nomidagi
“IDPU” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib, 103

